

14-bob

Kshepitskiy vakolatnomani ko'rib chiqqach, uni Dizmaga qaytara turib, dedi:

- Hammasi joyida. Ministrlikka bu ish bilan kimning shug'ullanishini bilmaysizmi?

- Bilaman, albatta. Qandaydir Cherpak degan odam Bo'lim boshlig'i ekan.

- Cherpak dedingizmi? Kulgili familiya ekan, Lekin gap bunda emas. Muhimi - uning qanday odamligi.

- Bunisini bilmayman, lekin, menimcha, u bilan kelishsak bo'ladi. Nihoyat, ministr Pil'xen o'sha Cherpakka mening iltimosimni shaxsan o'zi aytib qo'ygani ishimizni osonlashtirishi kerak.

Soat o'n birda Kunitskiy hozir bo'ldi. U gapni ob havodan boshlab, so'ngra kecha teatrda ko'rgan spektakli haqida so'z ochsa-da, ko'zlaridan: "Dizma iltimosimni bajardimikin?" - deb bezovtalanayotgani sezilib turardi. Nihoyat, yurak yutib, shu haqda so'ragan edi, Nikodim bosh irg'adi.

- Bo'lmasam-chi. Kecha ministrning oldiga bordim.

- Yashang-e, azizim! Xo'sh, u nima dedi?

- Avvaliga o'jarlik qildi, ammo oxiri uni bu ish bilan shug'ullanishga ko'ndirdim.

- Xudoga shukur-e! Azizim pan Nikodim, sizni menga tangrining o'zi yetkazdi!

- Qo'limdan kelgan ishni qilyapman.

Dizma Kunitskiyga ish yuzasidan yelib-yugurishi, kerakli odamlar bilan gaplashishi uchun bir necha kun, ehtimol, biror hafta kerakligini tushuntirdi. Hali bir bitimga kelishmasdan burun Kunitskiyning ministrlikka borishidan foyda yo'q emish; u ish shartnoma tuzishga borib taqalgandagina ba'zi detallar haqida shaxsan o'zi borib gaplashishi kerak bo'larmish.

- Yashang-e! Qoyil! - dedi boshi osmonga yetib Kunitskiy. - Pan Nikodim, balki ba'zi xarajatlar bo'lar. Marhamat, tortinmay aytavering. - U shunday deb karmonini chiqarib, Dizmaga tikildi.

Nikodim kresloda chayqalib qo'ydi.

- Biror... besh ming kifoya qilsa kerak... - deya javob qildi u xayolga cho'mib.

- Mayli, olti ming ham bo'la qolsin! Biz hali bu ishda ortig'i bilan foyda ko'ramiz, xe-xe-xe... Aravada ya.xshi yurishni istasang - g'ildirakni moyla! Moyni ayamalik kerak! Qalovini topsang qor yonadi, pan Nikodim. Agar foyda ko'rishni istasang xarajattan qochmaslik kerak.

U beli bukilmagan o'n ikkita besh yuztalikni sanab borgan edi. Nikodim ularni beparvogina cho'ntagiga solib qo'ydi. U endi yirik pullarga ko'nikib qolgan bo'lib ularni ko'rganida bir vaqtlardagiday angrayib qolmasdi.

Bu gal Nikodim Kunitskiy bilan nonushta qilishga rozi bo'ldi. Nonushta mahali u qurilishga temir yo'l shpallari yetkazib berish haqida butun bir leksiya tingladi.

Soat uchda Dizma ministrlikka ravona bo'ldi. Pal'to va shlyapasini kiyib qayergadir ketmoqchi bo'lib turgan ministr Pil'xen Dizmani ko'rgani zahoti idorada yana bir oz vaqt qolishga rozilik bildirdi. U Nikodimga hamma ish joyida ekanligini aytdi.

Shartlarini esa "qadrli raisjon" Cherpak bilan kelishib olsin emish. Buni u istagan paytida qilsa bo'lar ekan.

- Turgan gap, biz bu shartnomani, - deya qo'shimcha qildi ministr, - sizga butunlay ishonganim va hamisha ish joyida bo'lishi uchun shaxsan o'zingiz kafil bo'lishingizga amin ekanligimdan tuzyapmiz.

- Albatta shunday bo'ladi.

O'sha kuni kechqurun Nikodim kashovitsalik ordinat Mavrikiy Charskiyning bevasi grafinya Charskayaning uyidagi yig'inda qatnashdi. Marhum Mavrikiy Charskiy o'zidan so'ng uncha katta bo'lmagan yer-suv bilan avtor hisobiga nashr etilgan o'n to'rt povest' va birona teatrda qo'yilmagan olti tarixiy dramadan iborat adabiy meros qoldirgan edi.

Shu boisdai ham grafning bevasi atrofida .adabiyotchilarni yig'ishni o'zining muqaddas burchi deb hisoblardi: Varshavada uning saloniga kelmagan birona ham adabiyotchi qolmagandi.

Adabiyotchilarning ko'pchiligi grafinyanikiga tez-tez kelib turardi. Ular bu yerda qornilarini to'yg'izishar va xayr-ma'zurdan so'ng marhum graf Mavrikiyning hech bo'lmaganda asarlaridan ikki tomini qo'ltiqlariga qistirib ketishardi. So'ng navbatdagi ziyofatda bu dunyoni tark etgan kasbdoshlarining iste'dodini ko'klarga ko'tarib maqtashardi-da, shunday ajoyib yozuvchini tez unutilib yuborishganidan fig'onlari chiqardi.

Olti tarixiy dramaning birontasi o'qilayottanida faqat ikki xonim - uy bekasining jiyanlari Ivonna bilan Mariyettagina ochiqdan-ochiq esnab o'tirishardi.

Ko'hlikkina opa-singillarning dardida bu xonadonga adabiyotchilardan tashqari aristokrat yoshlar ham kelib turishardi.

Nikodim ostona hatlab o'tgan zahoti Pshelenskaya yoki knyaz' Rostotskiynikida uchratgan ko'pgina tanishlariga ko'zi tushdi. U ayniqsa anovi rasvo tundagi voqeada qatnashgan xonimlarning deyarli hammasi hozir bo'lganidan xijolatga tushdi. Nikodim faqat, ochig'ini aytganda, o'zi juda cho'chib qolgan Stellaning ko'rinmaganidan bir oz taskin topdi.

Uni izzat-ikrom bilan quvonib qarshi olishdi.

Uchrangli Yulduz lojasiga a'zo bo'lgan xonimlar Lyalya Konespol'skaya boshchiligida uni shunday olqishlashdiki, Nikodim xijolatdan o'zini qo'yarga joy topolmay qoldi.

Ularning ko'zlari Dizmaga o'sha la'nati tunni eslatib turardi. Xonimlar payt poylab u bilan ko'z urishtirishar va qandaydir odobsiz qiliqlar qilishardi.

Nikodim kelajakda asqatishi mumkin bo'lgan yangi tanishlar orttirishni o'ylamaganida bu yerdan jon deb qochib qolgan bo'lardi.

Grafinya Charskaya Dizmani darhol marhum Mavrikiy Charskiyning o'lmas asarlari haqida savolga ko'mib tashladi. Nikodim "Tuyg'u gullari" va "Bulbul qo'shig'ini" bir necha bor o'qiganini aytib, gapni boshqa yoqqa burishga harakat qildi.

Bu orada Mariyetta Dizmani g'oyat ajoyib yozuvchi Zenon Lichkovskiy bilan tanishtirdi. Lichkovskiy shu zahoti Nikodimni adabiy akademiya tashkil etishda ishtirok qilishga unday boshladi.

- Pan rais, sizning eng yaxshi iste'dod sohiblarini o'z himoyasiga olib, ular tadqiqot ishlari bilan shug'ullanishga imkoniyat yaratib beradigan tashkilot tuzishning zarurligini tan olishingizga sira shubhalanmayman.

- Ha, albatta, - deya javob qildi Nikodim. Garchi u gap nima xususida ketayotganini tushunmasa-da, Lichkovskiyning fikriga qo'shilish lozimligini angladi.

Muguz gardishli ko'zoynak taqqan qandaydir tarasha nusxa takallufsizlik bilan Dizmaning tugmasidan ushlab, unga adabiy akademiya tuzishning prinsiplarini tushuntira boshladi. Uningcha, pan rais polyak adabiyoti shtabini tuzish haqidagi fikrni faqat maorif ministrligidagina emas, balki Jecha Pospolita prezidenti huzurida ham yoqlab chiqishi lozim emish. Uning yoniga yana bir necha mehmon qo'shildi-da, hammasi Nikodimdan bu tashabbusni qo'llab yuborishni iltimos qila boshladi.

Dizma Lichkovskiy boshchiligidagi adabiyotchilarga qo'lidan kelganicha yordam ko'rsatishga va'da qildi.

Grafiya Charskaya mehmonlar orasida bo'zchining mokisiday u yoqdan-bu yoqqa yurardi. U Nikodim uchun ham vaqt topib, uidan qandaydir jamiyati xayriya uchun ikki yuz zlotiy shilib oldi.

Nikodim yoshi bir joyga borib qolgan ikki xonimning suhbatidan qutulgan zahoti juftakni rostlab qoldi.

Uyga kelsa Ninadan xat kelibdi. Xatda Nina odatdagiday o'z kechinmalarini tasvirlagan edi. Bundan tashqari, u Nikodimdan Koborovoga qaytishni iltimos ham qilgandi.

Nikodim Kshepitskinga qo'ng'iroq qilib, u bilan uzoq suhbatlashdi.

Ularning ikkovi ham ishning borishidan mamnun edi. Kshepitskiy Dizmaga Kunitskiyning ishonchini qozonish lozimligini uqtirdi.

- U sizga ishonmog'n kerak, pan rais, aks holda hamma urinishimiz bekor ketadn.

- Nega ishonmas ekan endi! - Nikodim yelkasini qisib qo'ydi.

- Eng muhimi, Nina ishni buzib qo'ymasa bo'ldi.

- Bu yog'idan qo'rqmang, o'zim to'g'rilayman.

Soat birda Kunipkiy hozir bo'ldi. Uning dimog'i chog' edi. Ministr undan shpal sotib olishga deyarli rozi bo'lganini eshitgach, Kunitskiy Dizmaning bo'ynidan quchdi. U qadrlil pan Nikodimdek odam bu yorug' olamdan topilmasligi haqida javray boshladi.

Nikodim Cherpakka qo'ng'iroq qilib, u bilan birga ovqatlanishga kelishib olganida soat to'rt bo'lay deb qolgan edi. Bugun

Kshepitskiy xo'jayinga hamroh bo'lmadi.

Cherpak yoshi qirqlarda bo'lgan chaqqongina kishi ekan, U chinovniklik martabasidan voz kechib, biror xususiy firmaga ishga kirishni orzu qilar ekan.

Nikodim buni darhol payqadi. Shu boisdan ham gapni cho'zib o'tirmay, unga Koborovodagi taxta tilish zavodida direktorlik lavozimini taklif qildi.

Nikodim faqat ministrning yordami tufayligiia Kunitskiyning avvaligi sud protsessi sababli paydo bo'lishi mumkin bo'lgan to'siqlardan holi bo'lganini endi tushundi.

Cherpak, chamasi, pul uchun har qanday ishga tayyor edi.

U Dizmaning niyatini surishtirib o'tirmay, uning barcha ko'rsatmalariga qat'iy amal qilishga so'z berdi. Nikodimning ko'rsatmalari esa oddiygina edi.

- Pan Cherpak, ikki kundan so'ng siz Kunitskiyini huzuringizga chaqirtirasiz.

- Xo'p bo'ladi.

- So'ng hujjatlarni sinchiklab tekshira boshlaysiz... Toki u barcha tartib-qoidalar bajo keltirilganidan keyingina shpal sotish uchun buyurtma olishiga ishonsin.

- Tushunaman, pan rais, uning shunday tinkasini quritayki...

- Uch kunlik muzokaradan so'ng unga, ministr payshanba kuni, chet elga jo'nashidan oldin, sizni qabul qilib, ba'zi detallar xususida kelishib olmoqchi, deb aytasiz. Tushundingizmi?

- Tushundim, pan rais.

- Unga, payshanba kuni ertalab, deysiz. Yodingizda bo'lsin - payshanba kuni ertalab. Soat... Hm... Soat o'n birda. So'ng u bilan xayrlashasiz-da, soat birda menga qo'ng'iroq qilasiz. Kunitskiy mening oldimda bo'ladi. Siz uni telefonga chaqirib, ishning chigallashganini, ministr uning avvalgi sud protsessini bilib qolganini, agar Kunitskiy darhol o'zini oqlaydigan hujjatlarni ko'rsatmasa, bitim bekor qilinadi, deganini aytasiz.

- Protsess chindan ham bo'lganmi?

- Ha, bo'lgan. Bunga javoban Kunitskiy hujjatlar Koborovoda ekanligi, hoziroq u yerga jo'nab, ertaga ministrga keltirib ko'rsatajagini aytadi. Menimcha, xuddi shunday javob qiladi. Siz esa bunday qilishning iloji yo'q, ertaga soat o'n birgacha yetib kelolmaysiz, miiistr bo'lsa masalaning moliyaviy tomoni haqida siz bilan shaxsan o'zi gaplashib olmoqchi, deb e'tiroz bildirasiz. Tushunarlimi?

- Tushunarli, pan.rais.

- Shunday qilish kerakki, Kunitskiy hujjatlari keltirish uchun bironta boshqa odamni yuborishga majbur bo'lsin, o'zi esa Varshavadan bir qadam ham siljiy olmasin. Siz, pan Cherpak, ana shu ishning uddasidan chiqishingiz kerak.

- Siz uchun, pan rais, har qanday ishni ham to'g'rilayman.

- Keyin bundan o'zingiz ham xursand bo'lasiz, - dedi Dizma o'rnidan turib.

Oradan ikki kun o'tdi. Nikodim halovatini yo'qotgan edi. U eng mayda ikir-chikirni ham unutmay harakat rejasini tuzib qo'ygan Kshepitskiy bilan tinimsiz suhbatlashdi, dimog'i chog' bo'lib, gul-gul ochilib yurgan Kunitskiyini bir necha bor qabul qildi. Bu orada u pani Pshelenskayanikiga va xonimning tanishi - jinoiy qidiruv komissarnikiga borib mehmon bo'lib keldi, xatlar yozdi, telefonda gaplashdi, majlislarda ishtirok etdi. Cherpak bilan uchrashuvlar bu hisobga kirmasdi, albatta.

Nikodim ichida Kshepitskiyning abjirliligiga qoyil qolgan edi. Sekretari yonida bo'lganida u o'zini ancha dadil sezardi. Shu bilan birga Dizma Kshepitskiy ham uning yonida kam bo'lmayotganini yaxshi tushunardi. Reja asta-sekin amalga osha boshladi.

Kunitskiy ko'z ilg'amas to'rga tushib qolgan edi. U har gal Cherpak bilan uchrashganidan so'ng bankaga kelib, o'z quvonchi va minnatdorchiligini yashirmay, Dizmaga batafsil axborot berardi. Nikodim ham o'z navbatida do'stlik va sadoqat haqida gap sotib, unga xushomad qilardi.

Nihoyat, hal qiluvchi payshanba kuni ham yetib keldi, Rosa soat birda pan raisning kabinetida qo'ng'iroq jiringlab qoldi.

- He, jin ursin! - go'yo zardasi qaynagan kishi bo'lib dedi Nikodim. - Kechirasiz, pan Kunitskiy, ko'ray-chi, kim ekan shu paytda qo'ig'iroq qilayotgan.

- Bemalol, azizim pan Nikodim, - dedi xursand bo'lib stulda tebranib o'tirgan Kunitskiy.

- Eshitaman!..

- Nima?

- E, salomatmisiz! Omadingiz bor ekan: pan Kunitskiy xuddi shu yerda, oldimda o'tiribdi.

Shunday deya u trubkani Kunitskiyga uzatdi.

- Pan Cherpak so'rayapti. U sizni butun shahardan qidirayotganmish.

Kunitskiy toubkani olib, qulog'iga tutdi.

- Allo!.. Yaxshimisiz, pan boshliq, salomatmisiz! Marhamat, nima xizmat bor edi?

Dizma o'rnidan turib deraza oldiga bordi-da, diqqat bilan quloq sola boshladi. U hayajonga tushib, deraza tagligini mahkam qisdi.

Biroq asta-sekin uning ko'ngli joyiga tusha boshladi. Hammasi mo'ljaldagidek ketmoqda edi.

Kunitskiyning tovushida bezovtalik, qo'rquv va iltijo ohanglari sezila boshladi. Nihoyat, u trubkani joyiga quyib, xitob qildi;

- Nima qilish kerak! Nima qilsam ekan!

- Nima gap o'zi? - deya hamdardlik bilan so'radi Dizma.

Kunitskiy o'zini stulga tashlab, peshanasidan terni artdi-da, odatdagidan battarroq shushulaganicha, protsess haqidagi hujjatlarning zarur bo'lib qolgani to'g'risida gapira ketdi: u juda bo'lmagaida ertaga kechqurun soat sakkizgacha hujjatlarni keltirib ko'rsatishi lozim emish... Biroq ularni olib kelish uchun o'zi Krborovoga borolmasmish, chunki ertaga soat o'y birda ministrning qabulida bo'lishi kerak ekan. Ministr shundan so'ng bir oyga jo'nab ketar ekan.

- Qutqaring, azizim pan Nikodim, maslahat bering, nima qilay?

- Hm... Buning nimasi qiyin ekan: Koborovoga telegramma bering, hujjatlarni yuborishadi-qo'yishadi,

- Eh, qani edi buni iloji bo'lganida! - dedi yig'lamoqdan beri bo'lib Kunitskiy. - Hujjatlar po'lat sandiqda, kalitlar esa menda.

- Unda darhol bironta odamni jo'natish kerak... Avtomobilingiz bor-ku. Shoferni jo'nating qo'ying.

- Shoferni deysizmi? Azizim! Nahot po'lat sandiq kalitini shoferga bera olsam?! Axir bor pul, qog'ozlar, qimmatbaho buyumlar va katta ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlarning bari o'sha yerda saqlanadi-ku. Yo tangrim, yo parvardigor, endi nima qilish kerak?!

Dizma bir zum xayolga cho'mdi.

- Xo'p, yaxshi, Varshavada bironta ishonchli odamingiz bormi?

- Hech kim, hech kim yo'q!

- U holda shpal buyurtmasidan voz kechishga to'g'ri keladi.

- Ammo bu million zlotiy foyda keltiradi-ya, million! - deya bijillay ketdi Kunitskiy. - Buni anchadan beri orzu qilib yurgan edim!

Endi bo'lsa... Eh, qanday ahmoqman-a, uni ola kelsam o'larmidim!..

- Nimani aytyapsiz!

- Sizga ko'rsatgan ko'k papkani-da. Esingizdami?

Shunday deya Kunitskiy peshanasiga shapatiladi. U yana nimadir demoqchi bo'ldi-yu, biroq labini tishlab indamadi.

- Esimda, albatta. Ko'k papkani aytyapsiz-da, - deya tasdiqladi sovuqonlik bilan Dizma.

- Buning yana bitta yo'li bor, - dedi taraddudlanib Kunitskiy, - bitta chora bor, ammo...

Dizma, birdan Kunitskiy dilimdagini sezib qolsa-ya, deb cho'chidi va asta; yerga qaradi.

- Xo'sh, qanday chora ekan?

- Hm... Hatto iltimos qilishga ham jur'at etolmayapman... Ammo buning qanday muhmligini o'zingiz ham yaxshi tushunasiz. Men uchun ham, o'zingiz uchun ham...

- Bo'lmasam-chi. Million zlotiy ko'chada yumalab yotmaydi.

- Azizim pan Nikodim, - dedi ortiq chidayolmay Kunitskiy, - faqat sizgina hamma ishni qutqarib qolishingiz mumkin.

- Men-a? - deya ajablendi Dizma.

- Ha, siz, siz, chunki men faqat sizga ishonaman. Pan Nikodim, azizim, qadrdomim, yo'q demang.

- Nima qilishim kerak o'zi?

- Rost, bir oz charchaysiz, ammo ayni qirchillagan paytingiz-ku axir! Azizim pan Nikodim, Koborovoga borib kelmaysizmi, a?

Kunitskiy cho'ntagidan ichida kalitlar shiqirlab turgan charm xaltachani oldi.

- Meni qutqaring. Hamma umidim sizdan.

Nikodim yelkasini qisdi.

- Birovlarning sandig'ini titkilashni yoqtirmayman.

- Azizim! Qadrdomim, yo'q demang endi! - Kunitskiy iltijo bilan qo'llarini qovushtirdi.

Nikodim go'yo o'ylanib qolgandek bir oz sukut qilib turdi.

- Telba odamdek yelib borish... Kechasi bilan uxlamay chiqish...

- Nima qilish kerak, a, nima qilish kerak?

Dizma bir oz vaqt yozuv stolini chertib turdi-da, nihoyat, qo'l siltadi.

- Hay mayli, jin chalsin sizni, bo'пти, boraman.

Chol shushulab minnatdorchiilik bildirganicha Nikodimning qo'lini siqa boshladi. Ammo uning mitti ko'zlarida hamon qo'rquv va hadik ifodasi yo'nab turardi.

- Sandig'ingiz qaysi kalit bilan ochiladi?

- Mana bunisi bilan. Lekin quruq kalitning o'zi bilan ochilmaydi. Undagi soatning yuqori milini to'qqizga, pastkisini yettiga to'g'rilash kerak.

Dizma qo'lga qaram olib, raqamlarni yozib oldi.

- Xo'p, yaxshi, biron nima yeb olaman-da, yo'lga chiqaman. Avtomobil' chaqiring.

Bir soatdan so'ng, sekretari bilan maslahatlashib olgach, Nikodim pastga tushdi.

Kunitskiy uni darvoza oldida kutib turgan ekan. Chol hayajonini yashirolmay qolgandi. U Dizmaga shubhalanib tikilganicha so'nggi ko'rsatmalar berib, hujjatlar solingan papka yuqori tokchani o'ng tomonida ekanligi, sud protsessi haqidagi hujjatlar bir joyga to'planganligi boisidan boshqa joyni titkilashning hojati yo'qligini tushuntirdi.

- Yaxshi, yaxshi, - dedi Kunitskiyning gashgai bo'lib Dizma va avtomobil' eshigini ochdi.

- Keyin sandiqni yaxshilab qulflashni, soat millarini to'g'rilab qo'yishni unutmang, azizim pan Nikodim.

- Xo'p... Xayr. Qani, ketdik.

Mashina joyidan qo'zg'aldi. Oradan chorak soat o'tmay ular shahar tashqarisiga chiqib olishdi.

Nikodim ingichka va uzun po'lat kalitni olib, uni qiznqib ko'zdan kechira boshladi.

- Mittigina narsa-yu, - deya to'ng'illadi u, - shuncha narsa unga bog'liq bo'lib qoldi-ya.

Avtomobil' tanish yo'ldan yelib borardi. Ko'p o'tmay yomg'ir yog'a boshladi, mashina oynalari mayda-mayda tomchilar bilan qoplendi. Kuzda kunlar qisqa bo'lganidan qorong'i tushay deb qolgan edi. Nikodim yoqasini ko'tarib bo'lajak ish haqida xayol surganicha mudray boshladi.

Mashina faqat bir marta to'xtadi - kimdir yo'lga tashlab ketgan mix pokrishkani teshib yuborgani tufayli g'ildirakni almashtirishga to'g'ri keldi.

Yiroqdan Koborovo chiroqlari miltirab ko'ringanida vaqt allamahol bo'lib qolgan edi.

Nikodim avtomobildan tushib, shoferga allanimani buyurdi. Eshik ochilib, uydan xizmatkorlar yugurib chiqishdi.

- Beka uydamlar? - deya so'radi Nikodim ularning salomiga alik ham olmay.

- Uydalar, pan janobi oliylari. Kutubxonada o'tiribdilar.

- Yaxshi.

- Ularga xabar qilaylikmi?

- Kerak emas. Ketaveringlar. O'zim topib olaman. Nikodim qorong'i mehmonxonadan o'tib, kutubxona eshigini ochdi. Nina stol ustiga engashib qandaydir kitobni o'qib o'tirardi. U hatto boshini ham ko'tarmadi. Nikodim eshikni yopdi-da, tomoq qirdi.

Shundan keyingina Nina boshini ko'tardi, u tomonga qarab qichqirib yubordi. U o'rnidan sapchib turib, Nikodimning oldiga yugurib keldi-da, bo'ynidan quchoqladi,

- Niko, Niko, Niko!..

Nina uning pinjiga tiqilar ekan, yuzlari quvonchdan porlab turardi.

- Keldingmi, keldingmi, azizim, jonginam!

- Salomatmisan, Ninochka?

- Yo tangrim, seni qaiday sog'inganimni bilsang edi!

- Meni sog'inmadi deb o'ylayapsanmi?

- Qani, o'tir. Ayt, bu yerda ko'p turasanmi?

- Afsus, bir necha soatdan so'ng jo'nayman.

- Nimalar deyapsan? Bu dahshat-ku axir!

- Ishning o'zi shunday bo'lib qoldi.

Nina uning yuzlarini silay boshladi. Nikodim qisqagina qilib kelish sababini aytdi, keyin birrov bo'lsa ham Ninani ko'rish imkoni tug'ilganidan sevinib, bu yoqqa jo'naganini qo'shib qo'ydi.

Nina Nikodimning tizzasiga o'tirib, hijron alami, muhabbat, umid, kelajakda turmush qurishgach, kechiradigan baxtiyor hayot haqida so'zlar ekan, gap orasida uni o'par edi.

- Agar biror kutilmagan voqea sodir bo'lmasa, - deya uning gapini bo'ldi Dizma, - biz sen o'ylagandan ertaroq turmush quramiz. .

- Qanday qilib? Ajralish-chi? Axir sudda ajralish bir necha oy lab cho'zilmish-ku.

- Ishni sudsiz ham bir yoqli qilamiz. Men advokat bilan maslahatlashdim. Biz nikohni bekor qilamiz.

- Men bunaqa nshlarni tushunmayman, - dedi Nina bir oz ikkilanib, - lekin sen shuni o'ylagan bo'lsang, juda olijanoblik qilibsang.

Ular ovqatlanish uchun yemakxonaga o'tishdi. Nina Nikodimdan vaqtini qanday o'tkazayotganini so'rab-surishtira boshladi. U Dizmaning Charskayalar va Rostotskiylarnikiga borib turishi, adabiy akademiya tashkil qilish komitetining noziri ekanligi hamda bankaga yuz mingga yaqin zlotiy qo'rganidan juda xursand bo'ldi.

Ular o'rinlaridan turishgach, xizmatkor kirib, shofer Varshavaga qaytib ketish uchun hammasini hozirlab qo'rganini xabar qildi.

- Yaxshi. Ayting, kutib tursin.

Nikodim cho'ntak soatiga qarab qo'ydi-da, shoshilishi lozimligini aytdi. Nina u bilan Kunitskiyning kabinetiga bormoqchi bo'lgan edi, Nikodim undan shu yerda kutib turishni iltimos qildi.

- Nega endi? - ajablanib so'radi Nina.

- Bilasanmi, men ba'zi qog'ozlarni o'qib, ba'zi narsalarni yozib olishim kerak... Sen yonimda bo'lsang, bu ishlarga qo'lim tegmay qoladi... Meni kutib tur, darrov qaytaman.

Nikodim chiroqni yoqib, og'ir duxoba pardani bir chetga surdi.

Tokchada yanlil po'lat sandiq qaqqayib turardi. Nikodim unga sinovchan nazar tashladi. Agar qarochilar bu yerdagi qimmatbaho narsalarni o'marib ketishni xayol qilishsa, sandiq ochish uchun ancha ter to'kishlari kerak bo'ladi. Dizma esa qiynalmay-netmay uni bir minutda ochadi.

- Agar kallang yaxshi ishlasa, - dedi ovoz chiqarib Pikodim, - ochqichning ham keragi yo'q... To'g'ri, hamma rejani Kshepitskiy tuzdi, ammo foydasi menga tegadi.

Kalit qulf ichida ohista buraldi. Dasta sekin pastga tushib, eshikcha ochildi.

Sandiq ichi saranjom-sarishta edi. O'ng tomondagi tokchalarda kitoblar va hujjatlar solingan papkalar, chap tomonida esa dasta-dasta pullar taxlab qo'yilgandi. Ikki tokchaga turli qutichalar terilgandi; Dizma avvalo o'sha qutichalarni ochib qaradi, turli duru gavharlar, behisob oltin uzuklar, marjon, qimmatbaho to'g'nag'ich, billur va yoqutlar...

- Xuddi zargarlik magaziniga o'xshaydi-ya. Shoshilish kerak edi.

Nikodim barla papkalar, hisob-kitob daftarlarini olgan edi, bir uyum bo'ldi. Dizma bularni yozuv stoliga olib o'tdi-da, ko'k papkani bir chetga surib qo'yib, duch kelgan birinchi daftarni ochdi. Nikodim sana va raqamlar bilal to'ldirib tashlaigan bu daftarni varaqlar ekan, oldida Kunitskiy sudxo'rlik bilan shug'ullanib yurgan paytida tuzgan qarzdorlar ro'yxati turganini angladi. Buni undirib plingan protsent raqamlarni ham isbotlab turardi. Boshqa yozuvlar orasida goho-goho "gr. Ponimirskiy - 12000 zlotiy", "gr. Ponimirskiy - 10000 zlotiy" kabi qaydnoma takrorlanardi.

Dizma boshqa daftarni ochib qaradi. Bunisi Koborovodan olingan daromadlar ro'yxati ekai. Uchinchi, to'r-tinchi va beshinchi daftarlar ham raqamlarga to'lib ketgan edi.

Ularning Nikodim uchun qizig'i yo'q edi. U papkalarni ochib ko'rishga ahd qildi. Dnzma qidirgan narsa - veksellar birinchi papkada ekan. Aslida ular veksel' ham bo'lmay imzo chekilgan toza blankalar edi. Blankalar butun bir dasta bo'lib, hammasiga:

Nina Kunitskaya Nina Kunitskaya, Nina Kunitskaya, Nina Kunitskaya, deya imzo chekilgan edi...

Veksellar ostida Ninaning eriga bergan vakolatnomasi va Koborovoni Ninaga sotilgani haqidagi notarial akt ham bor ekan.

Dizma bu hujjatni olib, cho'ntagiga soldi-da, so'ng papkaning bog'ichini bog'lab, uni haligi ko'k papkaning ustiga qo'ydi.

U boshqa papkalarni ham ko'zdan kechira boshladi. Natija kutilganidan ham ziyoda bo'lib chiqdi. Nikodim birinchi papkadanoq ikkita konvert topib oldi. Kichkina konvertga: "Menng vasiyatnomam", kattasiga esa: "Men o'lgan taqdirimda ochilmasdan yoqib yuborilsin", - deya yozib qo'yilgandi.

- O'lgan taqdirimda emish, - kulib yubordi Nikodim, - lekin hali tiriksan, shuning uchun ham ochaversa bo'ladi.

Shunday deya u surg'uch muhrni sindirib, konvertni ochdi.

Undagi qog'ozlarning eng tepasida Avstriya pasporti turardi.

- Qo'lga tushding-ku, oshna!

Pasport Genovefa Kunik va noma'lum otadan tug'ilgan Leon Kunik nomiga berilgan edi. Unda "kasbi" degan grafaga ko'rning



hassasiday qilib: "Kel'ner", deb yozib qo'yilgandi.

Konvertidagi keyingi hujjat kumush idishlarni o'g'irlagani uchun uch oy qamoqqa hukm qilingani haqidagi Krakov sudining qarori edi. Uning tagidan bir dasta xat chiqdi. So'ng turli raqamlar bilan to'ldirib tashlangan daftarcha bilan yana sud qarori ko'zga tashlandi. Bu gal endi Varshava sudi qalbaki pul ishlagani uchun Leon Kunikni ikki yil qamoqqa hukm qilgan edi.

Nikodim soatiga qaradi-da, so'kindi.

Vaqt yarim tundan oshib qolgan edi. U stol ustida sochilib yotgan qog'ozlarni apil-tapil yig'ishtirib, cho'ntagiga tiqdi.

Qolgan narsalarni sandiqqa qayta soldi-da, uni qulflab, haligi ikki papkani ko'ltig'iga qistirganicha xayrlashish uchun Ninaning oldiga chiqdi. Uni buduarda kutib o'tirgan Nina endi asabiylasha boshlagan ekan. Shunga qaramay juvon uni tabassum bilan kutib oldi.

- Yo'lga chiqishing kerakmi, jonginam?

- Nimayam qilardim, ketmasam bo'lmaydi, - Nikodim uning yoniga o'tirib, qo'lidan tutdi. - Azizim Ninochka, - deya gap boshladi.u, Kshepitskiy tayinlagan gaplarni eslab, - azizim Ninochka, ayt-chi, menga ishonasanmi?

- Haliyam shuni so'rayapsanmi?! - ta'na aralash dedi Nina.

- Bilasanmi... senga qanday aytsam ekan... Ba'zi voqealar sodir bo'ladi... Ba'zi narsalar oydinlashadi...

- Gapingni tushunmayapman.

- Yo hammasi aslicha qolib, sen butun umringni Kunitskiy bilan o'tkazasan yoki biz nikohdan o'tib, Kunitskiy asfalasofilinga ketadi. Bu yog'i senga bog'liq bo'lib qoldi.

- Nik! Axir hammasi ravshan-ku!

- Men ham shunday o'ylaymai. Unday bo'lsa Ninochka, sendan iltimos qilaman... Sen menga ishonishing, hamma gapimga rozi bo'lib, sira e'tiroz bildirmasliging lozim. U yog'ini o'zim to'g'rilyaman.

- Yaxshi, lekin nega bunday sirli ohangda gapiryapsan? Axir busiz ham masala ravshan-ku!

- Hali hammasi oydinlashgani yo'q, - dedi Dizma bir oz ikkilanib. - Ammo yaqin kunlarda oydinlashadi. U qari odam, sen bilan biz esa yashashimiz kerak... Tushundingmi?..

Ninaning ko'ngliga g'ulg'ula tushgan bo'lsa-da, ammo surishtirib o'tirishii lozim tonmay, soddagina qilib dedi:

- Senga ishonaman.

- Mana bu boshqa gap. - Shunday deya Nikodim o'zining tizzasiga shapatiladi. - Endi men jo'nashim kerak. Xayr, Ninochka, xayr, jonginam.

U Ninani quchoqlab o'pa boshladi.

- Xayr, go'zalim. Meni yovuz odam deb o'ylama. Yodingda bo'lsin: men nima ish qilsam, seni jonimdan ortiq sevganim uchungina qilaman.

- Bilaman... bilaman... - deya javob qildi Nina uning yuz-ko'zidan o'par ekan.

Nikodim xayrlashayotib Ninaning peshanasidan o'pdi-da, papkalarni olib, buduardan chiqdi. Vestibyulda Dizma pal'tosini kiygach, yonlarida xizmatkor turgani uchun Nina u bilan go'yo oddiy tanishidek yana bir bor xayrlashdi.

- Xayr, yaxshi yetib boring. Anavi masalada esa nimani lozim topsangiz, o'shanday yo'l tutavering... Sizga ishonaman.... Umuman, kimgadir ishonish kerak-ku axir... Xayr...

- Xayr, pani Nina, ko'nglingiz to'q bo'lsin, hammasi joyida bo'ladi.

- Tezroq qaytib keling.

- Qo'lim bo'shagan zahoti qaytaman. Nikodim Ninaning qo'lini o'pdi. Xizmatkor eshikni ochgan edi, Nikodim sharros qo'yayotgan yomg'irda yugurib borib, avtomobilga o'tirdi.

- La'nati havoni qarang-a, - deya to'ng'illadi Dizma, mashina eshigini sharaqlatib yopar ekan.

- Qechasi bilan yog'sa kerak, - dedi unga javoban shofer.

Chindan ham yomg'ir ertalabga qadar tinmadi. Mashina Varshavaga kirib kelganida tomiga qadar loyga belangan edi.

Dizma o'z kvartirasining eshigini ochiib u yerda Kshepitskiyga duch kelganida hali soat sakkiz ham bo'lmagan edi. Ular,

xizmatkor eshitib qolmasligi uchun, kabinet eshigini yopib, Nikodim keltirgan hujjatlarni ko'zdan kechira boshlashdi.

Kshepitskiy boshi osmonga yetib, qo'lini bir-biriga ishqardi. Sud protsessiga taalluqli xatlar ichidan chinovniklarga pora berilgani haqidagi hujjat topilgach, u o'rnidan sapchib turib, dedi:

- Gap tamom, jinoiy qidiruv bo'limiga boramiz.

- Veksellar-chi? - so'radi Dizma.

- Veksellarmi?.. Hm... Ochig'ini aytganda, ularni saqlab qo'yilsa yomon bo'lmasdi: axir bir kun emas, bir kun Ninaning sizdan ko'ngli qolishi mumkin. Lekin uning sizga tegishiga imonigiz komil ekan, ularni yoqib yuborganimiz ma'qul.

- Menga tegishiga shubha yo'q.

- Juda yaxshi. Ktdik bo'lmasa.

Jinoiy qidiruv bo'limining boshlig'i katta komissar Reyx yuqoriroq mansabga erishish uchun hech qanday ishdan qaytmaydigan odamlardan. edi. Sovuqon, sezgir va mirishkor Reyx Dizmaning pinhoniylarini darhol fahmladi. Kshepitskiy o'z boshlig'ining xolisligi xaqida tinmay sanayotganiga qaramay, katta komissar Reyx gapning po'skallasini aytib, masalani ko'ndalang qilib qo'ydi:

- Pan rais, siz Kunitskayaga uylanmoqchimisiz?

Dizmaning shunday niyatini borligini aytib, rostiga ko'chishdan bo'lak iloji qolmadi.

- Komissar mening shaxsiy hayotimga aralashyapti, deb o'ylamang, pan rais. Aslo unday emas. Lekin, menimcha, Kunitskiy qamoqqa olingach, tabiiy, sud protsessi bo'lishi kerak..

- To'g'ri, - deya uning gapini tasdiqladi Kshepitskiy.

- Hamma gap ana shunda! - deya davom etdi komissar. - Katta shov-shuvga sabab bo'ladigan bunday protsessdan bo'lajak rafiqangiz, qolaversa, o'zingiz ham unchalik xursand bo'lmasang'iz kerak, deb o'ylayman,

- Hm... Sizningcha, nima qilish kerak?

Komissar Reyx bir zum sukut saqlab turdi.

- Pan rais, bundan qutulishning faqat bitta yo'li bor.

- Xo'sh?

- Aytaylik, Kunitskiy o'n yilga, kam deganda, olti yilga qamaladi. Bu shubhasiz. Dalillar shundayki, chol sirayam qutulib ketolmaydi. U bilan biror bitimga kelish uchun urinib ko'rsak, nima deysiz?..

- Bitimga-ya?..

- Ha-da. Harqalay o'n yil qamoqda yotishni sirayam istamasa kerak. O'ylashimcha, u sizning taklifingizga rozi bo'lib, xotining yer-mulkiga da'vo qilmaydi, buning evaziga siz ma'lum miqdorda pul va chet el pasporti berasiz. Xohlagan mamlakatga jo'nayversin.

- Ammo darhol qaytib keladi-da.

- Buning ham yo'li bor. Biz bunday qilamiz: uni men bugun qamoqqa olaman-da, qattiq so'roq qilib, manovi hujjatlarni ko'rsataman va sal bo'shashi uchun uch-to'rt kun avaxtaga tiqib qo'yaman. So'ng yana so'roq qilib, uiga haligi bitimni taklif qilaman. Agar rozi bo'lmasa - o'zidan ko'rsin, rozi bo'lsa - qo'lga pasportni tutqazib, chet elga qochirib yuboraman. Qochirib yuboraman! Tushunyapsizmi? Qochsa mutlaq qaytib kelolmaydi, chunki men uning ortidan qamoqqa olish haqida buyruq yuboraman. Bunga nima deysiz, pan rais?

- Juda puxta o'ylabsiz, - deya bosh irg'adi Kshepitskiy.

- Men ham shu fikrdaman, - aks sadodek takrorladi Dizma.

- Ha, yaxshi reja albatta, - deya davom etdi Reyx, - biroq uni amalga oshira olishimga imonim komil emas. Agar bu gaplar ochilib qolsa, hammadan ko'p men aziyat chekaman. Juda bo'lmaganda iste'foga chiqarib yuborishadi, hatto qamoqqa tashlashlari ham mumkin. Juda qaltis ish..

- Pan komissar, - deya uning gapini bo'ldi Kshepitskiy, - menimcha, bekorga hadiksirayapsiz, Pan rais hukumat doiralarida mo'tabar odam hisoblanadilar. Butun Varshavada pan raisdek dasti daroz odam topilmasa kerak.

Reyx ta'zim qildi.

- O, men. buni juda yaxshi bilaman! Shuning uchun ham pan raisdek mo'tabar odamga arzimmas bir yaxshilik qilib qo'ysam, g'oyat xursand bo'lardim. Axir u kishi kelajakda meni unutmazlar kerak.

- Ha, albatta, - bosh irg'adi Dizma.

- G'oyat minnatdorman. Men pan raisning homiylik qilishlarini o'zim uchun sharaf deb bilaman. Shu boisda u kishidan kichkina bir narsani iltimos qilmoqchiman.

- Marhamat, qo'limdan kelganicha yordam beraman.

- Siz uchun bu narsa arzimagan ish, men uchun esa katta ahamiyatga ega. Gap bunday, politsiya boshlig'ining o'rinbosari yangi yildan iste'foga chiqyapti. Agar sizdek mo'tabar odam bir og'iz aytib qo'ysa, meni uning o'rniga tayinlashlari mumkin edi...

- Bu ish kimga bog'liq? - deya so'radi Dizma.

- Ichki ishlar ministriga.

- U holda, ko'nglingiz to'q bo'lsin, - javob qildi Dizma, - ministr mening do'stim.

- G'oyat minnatdorman.

Shunday deya Reyx Dizmaning qo'lini qisish uchun sakrab o'rnidan turdi.

So'ngra ular ishning tafsilotlarini muhokama qila boshlashdi. Reyx bilan Kshepitskiy masalani har tomonlama kelishib olishdi.

Dizma ularning gaplariga hayratlanib quloq solar ekan, ichida o'zi hech qachon ishni shunday ustalik bilan amalga oshira olmasliginn tan olib qo'ydi.

Bankada ularni Kunitskiy kutib turgan ekan. Uning yuz-ko'zi, butun xatti-harakatlaridan bezovtalanayotganligi ko'rinib qo'ydi.

Sekretar' cholning yonidan o'tar ekan, unga istehzo aralash qarab qo'ydi, biroq Kunitskiy buni hatto sezmedi ham. U pildiragancha Dizmaning oldiga yugurib keldi-da, bidiray ketdi:

- Keldingizmi! Juda xursandman. Papkani olib keldingizmi?

- Salom. Olib keldim.

- Pan Nikodim, bu nima degani o'zi?

- Nimani nazarda tutyapsiz?

- Ministrning qabul qilishi haqidagi gapni-da! Cherpak qabul kechiktirildi, dedi. Ministr, umuman, hech qayoqqa jo'namasmish.

Pan Nikodim, nima gap o'zi?

- Kabinetimga kiraylik, - qizarib javob qildi Dizma, - o'sha yerda hammasini tushuntirib beraman.

- Hech nimani tushunolmay qoldim, hech nimani, - takrorlardi Kunitskiy Dizmaning ortidan pildirab borar ekan.

- Ignatij, sen shaharga borishing mumkin, - deya xizmatkorga javob berib yubordi Dizma.

Ignatij chiqib ketgach, Nikodim Kunitskiyga o'girilib dedi:

- Bilasizmi, xotiningiz siz bilan ajralishmoqchi.

- Nima dedingiz? - deya sapchib tushdi Kunitskiy.

- Aytdim-ku. U sizdan ajralib, menga tegmoqchi.

Kunitskiy Dizmaga g'azab bilan qarab qo'ydi.

- Hali shunaqa deng... Balki, u siz bilan kelgandir ham?

- .Yo'q, Nina Koborovoda qoldi.

Chol tinimsiz lablarini tishlardi.

- Qachon shunday fikrga kela qolibdi? Yo'q, bunday bo'lishi mumkin emas. U menga hech nima demagandi-ku! Shunchaki injiqlik qilayotgan bo'lsa kerak? Sizning ig'vongizga uchgan bo'lsa kerak-da...

- Ig'voga balo bormi.. U meni yaxshi ko'rib qolgan, sizdek aljigan chol joniga tegibdi.

- Lekin bu alaxsigan cholning million-million puli bor! - deya pishilladi Kunitskiy.

- Shimildiriq ham yo'q sizda, millionmish-a. Millionlar ham, Koborovo ham Ninaniki.

- Qog'ozda, faqat qog'ozda, muhtaram rais. Suqlanadigan joyi yo'q!

- Balki bordir, - faylasufona gap qotdi Dizma.

- Afsus, sizga juda achinaman, - deya ichqoralik bilan hiringladi Kunitskiy, - lekin menda xotinim bergan veksellar bor. Ular yer-mulkning narxini to'la qoplaydi.

Nikodim qo'llarini cho'ntagiga tiqib, lablarini cho'chchaytirdi.

- Veksellar masalasiga kelsak, pan Kunitskiy, ular chindan ham bor edi. Ha, bor edi, endi esa yo'q bo'ldi.

Kunitskiy dokaday oqarib ketdi. U a'zoyi badani titrab, hansiraganicha ingradi:

- Nima?.. Nima?.. Qanaqasiga "yo'q" bo'larkan?

- Shunaqasiga.

- O'g'irlabsan! Sen mening veksellarimni o'g'irlabsan?! Kalitni, sandiqning kalitini cho'z bu yoqqa!  
- Bermayman.  
- Axir bu talonchilik-ku! O'g'ri, bandit! Seni avaxtaga tiqaman!  
- O'chir ovozingni, qari qirchang'i! - deya o'shqirdi Dizma.  
- Talonchi! Kalitni ber!  
- Bermayman, chunki kalit seniki emas - tushundingmi, ablah! Seniki emas, Ninaniki. Sandiq ham, kalit ham uniki.  
- E, yo'q! Keksa Kunitskiyni aldash oson deb o'ylama, yaramas. Hali Pol'shada adolat bor, sud bor hali! Senga kalitni berayotganimni ko'rgan guvohlar bor. O'pkangni bos, oshna! Ninani o'zi ham veksellarga imzo chekkanini tan oladi hali.  
- Bundan tashvish qilmay qo'ya qol. Bu yog'i mening ishim.  
- Sud bor! - dedi yana qizishib Kunitskiy. Shu payt dahlizda qo'ng'iroq jiringlab qoldi.  
- Sud bilan qo'rqitmoqchi bo'ladi-ya, hayvon! - Dizma polga tupurdi-da, eshikni ochish uchun chiqib ketdi.  
- Ablah, voy ablah-ey! - Kunitskiy qopqonga tushgan tulkidek xonada u yoqdan-bu yoqqa zir yugurardi. - Hoziroq prokuror oldiga, politsiyaga boraman...  
Biroq chol hech qayoqqa borolmadi, eshik ochilib, xonaga politsiya serjanti bilan jinoiy qidiruv xizmatining grajdancha kiyingan ikki agenti kirib keldi.  
- Leon Kunitskiy yoki Kunik siz bo'lasizmi? - deya quruqqina qilib so'radi serjant.  
- Ha, men Kunitskiy bo'laman.  
- Siz qamoqqa olindingiz. Kiyining-da, biz bilan yuring.  
- Men-a? Qamoqqa olindingiz? Nima sababdan? Bu anglashilmovchilik bo'lsa kerak.  
- Hech qanday anglashilmovchilik yo'q. Mana sizni qamoqqa olish haqidagi order.  
- Nega, nega endi?  
- Bunisi bilan ishim yo'q, - deya yelkasini qisdi serjant, - buni sizga jinoiy qidiruv bo'limida aytib berishadi. Qani, ketdik! Qurolingiz bormi?  
- Yo'q.  
- Uni tintinglar.  
Agentlar Kunitskiyning cho'ntaklarini tintib ko'rishdi. Qurol chindan ham yo'q ekan.  
- Qani, ketdik! Sizni bezovta qilganimiz uchun bizni kechirasiz, pan rais, shunday buyruq olgan edik. Xayr.  
- Buyruqni bajarish kerak, albatta, - dedi Dizma. - Yaxshi boringlar.  
Qunitskiy o'girilib, yana bir nima demoqchi bo'ldi, biroq agent uni bir turtgan edi, chol bir zumda tashqariga otilib chiqdi. Nikodim bo'shab qolgan dahlizda uzoq turib turdi. Nihoyat oynaga qarab, sochlarini siladi-da, yemakxonaga qaytib kirdi. Stolga dasturxon yozilgai bo'lib, nonushta keltirib qo'yilgandi, Dizma esa uni unutib qo'ygandi. Nikodim qorni juda ochganligini faqat endi payqadi. Kofe sovib qolgan ekan, unga shakar solgan edi, erimadi. Nikodim bufetdan aroq to'la grafinni olib, tarelkasiga vetchina, kolbasa va buzoq go'shti soldi-da, nonushta qilishga tushdi.  
- Chamasi, peshanamga mo'tabar odam bo'lib o'lish yozilgan ko'rinadi, - dedi o'ziga o'zi Nikodim uchinchi qadahni qo'lga olar ekan. - Sizing salomatligingiz uchun, pan rais.  
Shivalab yog'ayotgan yomg'ir deraza oynasiga chirsillab urilardi, tashqari esa g'ira-shira edi.

## 15-bob

Dizma general Yajinovskiyni yoqtirmasligining sababi bor edi: generalning ko'zlari doim istehzo bilan boqardi, u odamlar bilan quruq muomala qilardi. Ammo Nikodimga eng yoqmagan tomoni generalning Terkovskiy bilan do'stligi edi. Bir necha bor taklif qilinganiga qaramay, Nikodim Yajinovskiylar xonadonidan o'zini opqochib yurdi. Biroq bu gal borishga majbur bo'ldi - general, agar pan rais bu gal ham biznikiga qadam rajjida qilmasalar, buni haqorat deb tushunaman, deya ochiqdan-ochiq aytgan edi, Darvoqe, Dizma Terkovskiyning shu kunlarda Jegestovda ekanligi va shu boisdan ham Yajinovskiynikiga borishi dargumonligini yaxshi bilardi.

Aslida Diamaning Terkovskiydan o'zini tortib yurishig'a hech qanday asos yo'q edi. U dilida Terkovskiyga nisbatan hech qanday xusumat sezmasdi, biroq, ular ashaddiy dushman, degan mish-mish keng tarqalgan bo'lib, barcha shu gapni takrorlayvergach, oxir-oqibatda Nikodimning o'zi ham bunga ishonib qolgandi. Terkovskiy ham, o'z navbatida, unga sovuq va hatto bir oz adovat bilan muomala qilardi. Dizmaning baxtiga, uning mavqei ancha mustahkam bo'lib, Terkovskiy buni inobatga olmay iloji yo'q edi. Nikodimning Terkovskiy bilan yaqinlashishdan o'zini olib qochishga yana bitta sabab bor edi. "Rohiba" xonimlarning' shama qilishlariga ko'ra, kabinet boshlig'i bo'lgan bu baqaloqning "sirdan voqif bo'lganlar" bilan aloqasi bo'lib, Nikodim bu jamoatdan ancha xavfsirab yurardi.

Yajinovskiylar bankiga yaqin bo'lgan Vil'chaya ko'chasida istiqomat qilishardi, shuning uchun ham Dizma u yerga piyoda jo'nadi. Chamasi, mehmonlar ko'p edi - darvoza oldida yigirmaga yaqin avtomobil' yig'ilib qolgandi. Dahlizda pal'tolar uyulib yotardi, xonalardan kulgi va gangur-gungur tovushlar eshilib turardi.

General va uning rafiqasi Dizmani samimiy kutib olishdi-da, mehmonxonaga boshlab kirishdi. Xuddi shu payt u yerda hamma jimib, yo'g'on bilaklari yalang'och xo'ppa semiz bir xonim royal' yoniga o'tirgan edi. Dizma beixtiyor eshik oldida to'xtab, tanishlarining salomiga bosh irg'ab javob berishga majbur bo'ldi. U hatto kimga ta'zim qilayotganini durustroq ilg'ay olmadi ham. Nikodimning ko'zi hammadan oldin qora frak qiygan erkaklar orasida turgan Terkovskiyga tushdi.

- Obbo, lan'ati kelibdi-da! - deya to'ng'illadi o'zicha Dizma royalning ilk sadolari yangrayotganda.

Nikodim Terkovskiy bilan yuzma-yuz to'qnashib qolmaslik uchun undan o'zini opqochib yurishga ahd qildi. Bunday gavjum mehmonxonada buning unchalik qiyin joyi yo'q edi, boz ustiga u bilan uchrashishga Terkovskiyning ham tobi bo'lmasa kerak. Biroq Terkovskiy odamlar orasidan o'tib, o'ziga tomon kelayotganini ko'rgach, Nikodim hayratdan og'zi ochilib qoldi. Terkovskiy Dizma bilan salomlashib, uning qultig'idan tutdi-da:

- Yuring, chekib kelimiz, - deya shivirladi.

Ikki arbob salondan o'tib borishar ekan, mehmonlarning bari ulardan ko'zini uzmay turardi. Ular generalning kabinetiga kirishdi.

Terkovskiy cho'ntagidan katta oltin portsigar chiqarib, Nikodimga papiros tutdi-yu, go'yo hech gap bo'lmaganday dedi:

- Sizni ko'rmaganimgayam ancha bo'ldi-da, azizim pan Dizma...

Bunday muomalani sira kutmagan Dizma suhbatdoshiga gumonsirab indamay qarab turaverdi.

- Sog'lig'ingiz qalay? - deya davom etdi baqaloq. - Men esa olti hafta dam olganimdan so'ng o'zimni juda yaxshi his etyapman. Ishonasizmi, pan rais, naq yetti kilo ozibman. Durust, a?

- Yomon emas, - dedi Dizma.

- Dam olish-juda yaxshi narsa-da! - Muhit o'zgaradi... Yangi tanishlar, yangi taassurot, yangicha hayot...

- Siz Jegestovda bo'ldingizmi? - deya so'radi Nikodim biror narsa deyish uchun.

- Ha. Juda maza qildim-da. Mehmonxonada royal' tinimsiz gumburlardi. Qo'shni xonada bridj o'yini avjiga chiqqan bo'lib, ahyon-ahyonda u yerdan qimorbozlarning gangur-gungur gaplari quloqqa chalinardi. Terkovskiyning bo'g'iq tovushi xuddi ko'ksini yopib turgan oppoq manishkasi ostidan eshitilayotgandek tuyulardi. Uning baliqnikiga o'xshash mitti ko'zlari yog' bosgan qovoqlari orasida xiragina miltirar, semiz va kalta barmoqlari esa qahrabo mundshtugini asta silab turardi.

"Bu iblisga nima kerak o'zi?" - deya o'ylardi boshi qotib kolgai Dizma.

- Bilasizmi, pan rais, - deya davom etdi Terkovskiy, - men u yerda sizni eski tanishingiz - notarius Vinder bilan tanishish sharafiga muyassar bo'ldim. Juda dilkash odam ekan.

Terkovskiy Dizmaga sinchkovlik bilan tikilganicha jimib qoldi.

Uning gapini yaxshi eshitolmay qolgan Nikodim qayga so'radi:

- Nima dedingiz?

- Sizning eski tanishingizni uchratib qoldim, deyapman.

Nikodim tishini tishiga bosdi.

- Kim ekan u?

- Pan Vinder. Juda dilkash odam ekan!

- Kimni? Vinderni deysizmi?.. Eslo olmayapman.

Nikodim jon-jahdi bilan Terkovskiyning ko'ziga tikildi.

- Notarius Vinderni nahot eslolmasangiz?!

- Notarius?.. Yo'q. Eslo olmayapman.

Terkovskiy istehzo bilan kulib yubordi.

- U esa sizni juda yaxshi eslarkan. Biz u bilan bir kupeda keldik: bu ajoyib chol menga siz to'g'ringizda, Liskov haqida juda ko'p narsalarni aytib berdi.

Dizmaning ko'z o'ngi qorong'ilashib ketdi. Tamom bo'lish deb shuni aytishsa kerak-da? Halokat deganlari shu emasmi axir: uni fosh qilishdi. Nikodim cho'ntagiga tiqqan qo'llarini qattiq musht qilib tukkanidan qo'li og'rib ketdi. U bir zum Terkovskiyga tashlanib, tirjayib turgan basharasi ko'karib ketgunga qadar semiz bo'ynidan bo'g'sammikin, deb ham o'ylanib qoldi. Nikodim ichida hujumga shaylanib, mushaklarini qattiq qisdi.

- Kechirasiz, - dedi shu payt yonidan o'ta turib, unga tegib ketgan bir notanish xonim.

Bu hol Nikodimni hushiga keltirdi.

- Qanaqa Liskov? Siz nimalar deyapsiz o'zi?

Terkovskiy yelkasini qisib qo'ydi.

- Bo'lmagan gap! Hech qanday Vinderni tanimayman!

Terkovskiy qoshlarini chimirib, xotirjamlik bilan papiros kulini chertib tushirdi.

- Ha, albatta, balki, bu anglashilmovchilikdir.

- Anglashilmovchilik... - deya takrorladi Dizma.

- Darvoqe, biz tez kunda buni aniqlaymiz. Notarius Vinder kelasi haftada Varshavaga keladi. Men uni uyimga taklif qildim. U juda dilkash odam ekan. U siz bilan familiyadosh bo'lgan biror odam haqida gapirgan bo'lsa ham ajab emas. Ehtimol, o'sha odam qarindoshingiz bo'lib ham chiqar... Xe-xe-xe.....

Dizma javob berishga ulgurmad. Mehmonxonadagi konsert tugab, gulduros qarsaklar ostida kabinetga mehmonlar yopirilib kirishdi.

Butun kecha davomida Nikodim xuddi ninaning ustida o'tirganday bo'ldi. Nihoyat, soat o'n ikkiga yaqin u, sezdirmay juftakni rostlab qoldi.

Shivalab yomg'ir yog'moqda edi. Dizma pal'tosining tugmalarini qadamay uyi tomon surgalib borardi. U uyiga yetib kelgach, yechinmasdan ham o'zini divanga tashladi.

Hammasi ravshan.

Endi uning taqdiri Terkovskiyning qo'lida, Terkovskiy kechirmaydi. Kek saqlab yurgan ekan, ablah! U Boчек emas sizga!

Nikodim bir seskanib tushdi.

U o'nidan turib, chiroqni yoqdi-da, pal'tosi, shlyapa va fragini yechib, xonada u yoqdan-bu yoqqa yura boshladi. Uning miyasini biri beridan mudhishroq fikrlar chulg'ab, peshanasini sovuq ter bosdi.

"Vinderni gumdon qilsam-chi... Balki eplash mumkindir... Xo'sh, u yog'i nima bo'ladi?.."

Terkovskiy Liskov haqida bilib olgan ekan, endi undan qutulib bo'lmaydi. Agar Vinder g'oyib bo'lsa - Terkovskiy bu kimning ishi ekanligini darhol fahmlaydi... Ishdan haydasalar ham mayli-ya, qamoqqa tiqishadi...

"Yalinsammikin?.. Baribir foydasi tegmaydi".

Nikodim Terkovskiyning qanday odam ekanligini juda yaxshi bilardi.

Miyasi tinmay g'uvillardi. Dizma kechasi bilan mijja qoqmay chiqdi. U yolg'izlik va zaiflikdan azob chekardi. Buni hatto Kshepitskiyga ham aytib bo'lmasdi... Xo'sh, nima qilish kerak?.. Nima qilsaykin?..

U nonushtaga qo'l ham urmay, Ignatiyga bankaga qo'ng'iroq qilib, betoblighi tufayli ishga borolmasligini aytib qo'yishni buyurdi. Biroq oradan yarim soat o'tmasdanoq xato qilganini angladi: uning birdan betob bo'lib qolgani haqidagi gap Terkovskiyning qulog'iga yetib borishi mumkin edi. Dizmaning g'azabi qaynab ketdi. U hech gapdan hech gap yo'q Ignatiyga o'shqirdi-da, bankaga jo'nadi. U yerda ataylab barcha bo'limlarni aylanib chiqdi. Vandrishevskiyning oldiga kirdi va garchi kecha o'zi uch kun muhlat bergan bo'lsa-da, balans tayyor bo'lmagani uchun direktorni koyidi. So'ng Kshepitskiyga "salom", deya to'ng'illaganicha kabinetga kirib, ichidan qulflab oldi.

Dizmaga faqat, Terkovskiy o'z shubhasini birona odamga aytdimi, yo'qmi, degan fikr azob berardi. Nihoyat, Nikodim, u makkor yuragidagini duch kelgan odamga aytavermaydi, degai qarorga keldi. U nima qilarkin? Har qanday Dizmani ham, Yashunskiyini ham, Pil'xenni ham rasvolarini chiqarib haydatishga urinsa kerak...



Faqat bittagina yo'li qolgan bo'lib, darhol iste'foga chiqish va Koborovodagi sandiqda yotgan pullarii o'marib, chet el pasportini olish hamda Vinder Varshavaga qelmasdan burun juftakni rostlab qolish lozim. Ninaga uylanish haqida gapirmasa ham bo'lardi. Kunitskiyni esa, keyin shikoyat qilib yurmasligi uchun, qamoqdan chiqarib yuborish va u bilan bir amallab kelishib olish kerak.

- He, jin ursin!

Telefbn jiringlab qoldi. Kshepitskiy allaqanday bir xonim bilan grafinya Konespol'skaya kelganini xabar qildi. Xonimlar uni albatta ko'rishmoqchi emish.

- Ularga betob ekanligimni ayting.

- Aytdim, - dedi javoban Kshepitskiy, - lekin, pan raisga ma'lum qiling, deb gapimga ko'nishmayapti. Aytishlaricha, siz ularni albatta qabul qilarmishsiz. Nikodim qovog'idan qor yog'ib eshikni ochdi. - Marhamat, - deya xonimlarni quruqqina taklif qildi u. Konespol'ekaya yonidagi xonim jodugarsifat Stella ekan.

Uni ko'rib Dizmaning zardasi qaynab ketdi.

Xonimlar tashvishlanib uing sog'lig'ini surishtirishdi va doktorlarni tavsiya qila boshlashdi., Nihoyat, maqsadga ko'chib, ustozning betobligi loja marosimini bajarish uchun halal bermasligiga umid bildirishdi. Ertaga navbatdagi marosim ekan. Afsuski, Konespol'skayaning eri hozir uyida ekan, shu boisdan ham misteriya o'tkazish uchun Buyuk O'nuchinchining kvartirasidan bo'lak joy qolmabdi.

Bu gapdan Dizmaning joni hiqildog'iga keldi.

- Meni tinch qo'yinglar. Hozir bu narsa ko'nglimga sig'maydi.

- Ertaga qadar tuzalib ketasiz, - deya Stella e'tirozga o'rin qoldirmaydigan ohangda. - Uchrangli Yulduz tomonidan yuklangan vazifa albatta bajarilmog'i lozim.

- Tuzalaman, tuzalaman... - dedi chap berishga urinib Dizma. - Men soppa-sog'man, lekin hozir bu ishlarga vaqtim yo'q.

Zimmamda muhim ishlar bor.

Oraga jimlik tushdi. Nikodim deraza tomon o'gi-rildi.

- Ustoz, - deya astagina so'radi Konespol'skaya, - biror ko'ngilsizlik bo'ldimi?

Nikodim istehzo bilan kulib yubordi.

- Ko'ngilsizlik ham gapmi. Shunday ablahlar borki, iloji bo'lsa, boshingga chiqib o'tirib olsam deydi...

- Ustoz, siz har qanday odamning ham tanobini tortib qo'ya olasiz, - dedi ishonch bilan Stella.

Nikodim unga uzoq tikilib turdi.

- Har qanday odamni ham emas. Shundaylar ham borki, to'ng'iz kabi senga choh qaziydi, quturgan itdek akillaydi... Nomingni bulg'ashga, dunyoni ko'zingga qorong'i qilishga harakat qiladi...

Stellaning ko'zlari qisilib ketdi.

- Kim ekan o'sha odam?

Dizma faqat qo'l siltab qo'ya qoldi.

- Ayt, ustoz, senga choh qaziyotgan kim o'zi?

- Hojati bormikin...

- Aytish kerak, - deya bijilladi Konespol'skaya, - balki, biznikiga bironta yo'l, bironta chora o'ylab topar.

- Uchrangli Yulduz ordeni juda qudratli, - dedi jiddiy ohangda Stella.

Nikodim bo'ynini qisdi-da, bexosdan:

- Terkovskiy, - deb yubordi.

Hayratdan ikkala xonimning og'zi ochilib qoldi, Dizma ichida so'kinib qo'ydi. Bu xotinlarga aytib nima qilardi? Ahmoq!

Stella o'rmidan turdi-da, vazmin qadam tashlaganicha Nikodimga yaqinlashdi.

- Ustoz! Sen buyurishga haqlisan. Bu odam halok bo'lishi kerakmi? - Dizma allanechuk bo'lib ketdi: bu xotinlar aqldan ozishibdi!

- Ustoz! - deya davom etdi Stella. - Bu odam abadiy yo'q bo'lsinmi yoki vaqtincha yo'qolsinmi? Buyur!

Nikodim kulib yubordi. Bu gap unga yosh bolalarga xos tentaklik bo'lib tuyuldi. Ruhoniyga o'xshaydigan bu kalta oyoq maymun Terkovskiy kabi nufuzli bir odamni nimayam qila olardi? Lekin shu zahoti u Vinderning kelishiga juda oz vaqt qolganini esladi. Shundan so'ng hammasi tamom bo'ladi. Terkovskiy Vinder bilan gapni bir joyga qo'yadi-yu, keyin... Qani endi shunday qilinsaki, o'sha paytda Terkovskiy Varshavada bo'lmasa.

- Terkovskiyni Afrikaga jo'natib, u yerda daraxtga bog'lab qo'ying yoki, umuman, jahannamga jo'nating? - dedi alam bilan Dizma.

- Qachon? - deya qat'iy ohangda so'radi Stella.

- Shu bugun bo'lsa ham mayli... Ha-ha-ha!.. Bu deymen, juda quvnoq ayol ekansiz-ku! Bo'пти, cho'pchak aytishni yig'ishtiraylik.

Xo'sh, misteriyani nima qilamiz?

Xonimlar marosim belgilangan muddatda amalga oshirilishini qat'iy talab etishdi va bundan bo'yin tovlaydigan odamning biror falokatga uchrashi muqarrar ekanligini shama qilishdi. Bundan qo'rqib ketgan Dizma darhol taslim bo'la qoldi va Uchrangli Yulduz lojasining ikkinchi yig'inini o'z uyida o'tkazishga rozilik bildirdi.

Kechqurun u ko'ngil ochish uchun Vareda bilan "VoHa"ga bordi va uyiga qaytgach, tosh qotib uxlab qoldi.

Ertalab Stella bilan Lyalya yetib kelib, Dizma ularning ixtiyoriga berib qo'yan kvartirani batamom ostin-ustun qilib tashlashdi.

Dizma misteriyani konspiratsiya qonunlariga amal qilib o'tkazishga qaror qildi va muhtaram Ignatiyga dam olish uchun uch kunga javob berib yubordi. Shu boisdan ham mebellarni u yoqdan-bu yoqqa surish, gilamlarni bir xonadan ikkinchi xonaga tashish kabi barcha og'ir ishlar uning zimmasiga tushdi. Bir hisobga Nikodim bu ishdan xursand ham bo'ldi - anovi Terkovskiy to'g'risida, Vinderning Varshavaga kyolishi bilan bog'liq bo'lgan xavf-xatarni o'ylashga vaqti yo'q edi.

Xonimlar, chamasi, unutishgan bo'lishsa kerak, Terkovskiyni ortiq esga solishmayotgandi.

"Unutishgan bo'lishsa juda yaxshi, - deya o'ylardi Dizma. - Kecha ularga bekor aytdim o'zi".

Nikodim jon-jahdi bilan mebellarni u yoqdan-bu yoqqa surar va xonadan xonaga gilam tashirdi.

Kechga tomon u shu qadar charchadiki, yotoqxona kirib, ichidan qulflab olsa jon-joi derdi. Ammo qayoq-da! Yotoqxona ham, boshqa uch xona ham, vanka bo'lmasi ham "rohibalar" uchun mo'ljallab qo'yilgandi.

Soat o'n birda dahshatli falokat sodir bo'ldi Xonimlardan biri so'nggi daqiqada eri kelib qolgaii tufayli misteriyaga kelolmasdig'ini xabar qildi. Ustavga binoan marosimda albatta o'n ikki "rahiba" ishtirok etishi lozim edi. Xonimlar o'zlarini qo'yarga joy topolmay qoldilar.

Nikodim darhol misteriyani kelasi haftaga qoldirishni taklif qilgan edi, biroq Stella g'azab bilan, bunday qilish ustavni buzish bilan

barobarligi va o'zi bunga sira ham yo'l qo'ya olmasligini aytdi. Qiyin ahvoldan chiqish chorasini topish kerak edi. Kutilmaganda xonimlardan biri - baronessa Vel'berg chora topdi: u bir kechaga yollash mumkin bo'lgan bitta qizni tanir emish, qizga ishonsa bo'larmish, u juda ajoyib qiz bo'lib, var'etelardan birida "Girl" ekan; baronessaning ishonirishicha, kichkina Vladaga har qanday sirni ishonish mumkin emish.

Bo'lak chora qolmagan edi. Kichkina Vladani taklif qilishga jazm etishdi. Shu zahoti unga telefon qilishdi. Avvaliga qiz bugun dansingda uchrashishi lozim bo'lgan rashkchi jazmanini ro'kach qilib, misteriya kelishdan bosh tortdi. Biroq keyin yuz zlotiylik kredit biletining daragini eshitib, rozi bo'ldi.

Shundan so'ng misteriya barcha qoidalarga amal qilingan holda, qoq yarim kechada boshlandi.

Soat birda, iblis chaqirilayotgan paytda kichkina ko'ngilsizlik sodir bo'ldi: hushidan ketayozgan Vlada yig'lab yubordi va uyimga ketaman, deya xarxasha qila boshladi. Uni arang to'xtatishdi. Qiz peyotl qo'shilgan vinodan ichgach, ancha tinchib qoldi.

Soat ikkida rais Nikodim Dizmaning mehmonxonasi butunlay ag'dar-to'ntar bo'lib ketdi. Shu tobda u taniqli davlat arbobining mehmonxonasiga sira ham o'xshamay qolgandi. U ko'proq dudxona yoki qadimgi Rimdagi bug'xonalarga o'xshardi.

Misteriya qatnashchilari xonalarga tarqalishganida darparda chetidagi tirqishdan dekabr' tongiing ilk nurlari endigina mo'ralay boshlagan edi. Jang maydonida faqat Buyuk O'nuchinchi qoldi. U devorga suyanib o'tirganicha shunday xurрак otardiki, deraza oynalari qimirlardi.

Nikodim vaqt peshindan og'ganida uyg'ondi. Uning azbaroyi sillasi quriganidan miyasi g'uvullardi.

U o'rnidan turib kiyindi-da, borib yotoqxonaga nazar tashladi. "Rohibalar" uyg'ona boshlashgan edi. Vannaxona tiqilinch edi.

Xonimlar Nikodim bilan birin-ketin xayrlashib, oyoqlarini arang surgashganicha, uy-uylariga tarqalisha boshlashdi.

Nihoyat, Dizma yolg'iz o'zi qoldi. U barcha oynalarni ochib tashladi va zo'r-bazo'r qimirlab, kvartirani tartibga solmoqchi bo'ldi.

U pianinoni joyig'a surib qo'yimoqchi bo'lib turganida ko'cha eshikning qo'ng'irog'i jiringlab, Kshepitskiy kirib keldi.

- Ehe, pan Nikodim! - dedi u kulib. - Bu yerda rosa bazmi jamshid bo'lganga o'xshaydi-ku.

Kunitskiy qamoqqa olinganidan so'ng u o'z boshlig'i bilan juda apoq-chapoq bo'lib ketganidan uni nomini atab chaqira boshlagan edi.

- He, yer yutsin o'sha mochag'arlarni! - deya to'ng'illadi qovog'ini solib Dizma.

- Bu deyman, rangingizda rang qolmabdi-ku! - dedi ajablanib Kshepitskiy. - Bunaqa ishlarni yaxshi ko'rishingizni bilmagan ekanman.

- Padariga la'nat bu ishning!

- Demak, hirsni o'ldirish uchun shunday qilibsiz-da?

- Bo'ldi, muncha tirg'ilmasangiz, jin ursin sizni! - dedi zardasi qaynab Dizma. - Undan ko'ra yordamlashib yuboring.

- Nega o'zingiz ishlayapsiz? Ignatyi qayoqqa ketdi? Dizma javob berish o'rniga pishqirib ishlayverdi. Nihoyat, u bir so'kinib qo'ydi-da, o'zini divanga tashladi.

Kshepitskiy papiros tutatdi.

- To'g'ri Reyxning oldidan kelyapman.

- Xo'sh?

- Kunik nihoyat shashtidan tushibdi. Sovuq, qorong'i kamerada yotib, ta'zirini yebdi. Lekin u xotini bilan yuzlashtirishlarini talab qilgan emish. Reyx unga Ninaning sizga yozgan so'nggi xatini ko'rsatgandan keyingina tinchibdi. Yuz ming zlotiyga rozi emish, faqat anovi sirini fosh etuvchi hujjatlarni qaytib berishni shart qilib qo'yayotganmish.

- Xo'sh, Reyx nima deyapti?

- Reyx bunday shartga ko'nadigan ahmoqlardan emas, u o'sha hujjatlarni jinoiy qidiruv arxivida emas, shaxsan o'z uyida saqlashni va'da qilibdi, xolos.

- Kunitskiy rozi bo'libdimi, ishqilib?

- O'ylab ko'rish uchun yana bir kun muhlat olibdi. Qo'rqmang. Albatta rozi bo'ladi.

Kshepitskiy o'rnidan turib, papirosidagi kulni chertib tushirdi-da, qo'shib qo'ydi:

- Siz esa, o'z navbatingizda, Ninaga erining ozod qilib, o'z xohishi bilan chet elga jo'nayotganini xabar qilib qo'yishingiz kerak.

Hm... Unga hatto, chol bor pulining yarmini olib ketayotibdi, deb yozishingiz ham mayli. Shundan so'ng uning ko'ngli joyiga tushadi.

- Ha, bir oz aldab qo'ysak yomon bo'lmaydi, - deya gap qotdi Dizma bir oz xayol surib turgach. - Lekin, men xat yozmagan ma'qul. Xat bironta odamning qo'lga tushib qolishi mumkin yoki...

Birdan u Terkovskiyi eslab, yana seskanib tushdi. Yo'q, yo'q... U bu haqda o'ylab o'tirmaydi. Bo'lganicha bo'ldi. Eng muhimi - o'ylamaslik kerak... Faqat hozir emas... Koborovo... Jo'nash kerak."

Nikodimning qo'lini qimirlatishga ham majoli qolmagan edi. Og'riqning zo'ridan uning basharasi bujmayib ketdi.

- Faqat bugun emas, - u ayta olgan gap ana shu bo'ldi.

Chindan ham Dizmaning sillasi juda qurigan edi. U hatto o'qtin-o'qtin jiringlab turgan telefon oldiga ham bormay, kun bo'yi divanda qimir etmay yotdi.

Nikodim faqat Uchrangli Yulduz lojasidan qanday qilib osonroq qutulish chorasini o'ylardi. Kishining sillasini quritadigan bu bazmi jamshiddan so'ng uning Buyuk O'nuchinchilik vazifasidan butunlay hafsalasi pir bo'lgai edi.

Ana shu loja tufayli u kiborlar doirasiga mansub xonimlar bilan yaqindan tanishib olgandi; ularning eshigi endi Nikodim uchun doim ochiq edi. Agar u endi Uchrangli Yulduz ordenidan bir amallab qutulib olsa, baribir u yerda orttirgan tanishlarining foydasi tegaveradi.

Lekin qanday qilib qutulsa ekan? Har qanday mushkul ishning ham chorasini topa oladigan Kshepitskiyga maslahat solsamikin? Ammo bunday qilishga Dizmaning yuragi dov bermadi. U hali loja sirini oshkor qilgan har bir odam o'limga hukm etilishi mumkinligini unutmagan edi.

Uzoq bosh qotirganidan so'ng Dizma bu esini yegan xotinlarga, tushimda iblisni ko'rdim, u menga bundan buyon O'nuchinchi bo'lishni taqiqlab qo'ydi, desammikin, deb o'ylab qoldi. Men unga yoqmas emishman, shu boisdan ham u misteriyalarda men qatnashar ekanman, ortiq qorasini ko'rsatmas emish, deyman... Dizma ertagayoq grafinya Konespol'skayaning oldiga borib, shuni aytib qo'yishni ahd qildi.

Ular bilan endi bironta boshqa odam azob cheksin.

Nikodim jilmayib qo'ydi. U Varedani eslagan edi.

- Ularga Varedani ro'baro' qilib qo'yaman! Iblis faqat Varedany talab qildi, - deb aytaman. Ignatij dasturxonga kechki ovqatni, qo'yib, yangi gazetalarni keltirdi. Dizma gazetalarni jahl bilan bir chetga surib qo'ydi-da, ovqatlana boshladi. Shu payt telefon jiringlab qoldi. Vareda qo'ng'iroq qilgan ekan. U Nikodimdan so'radi.

- O'qidingmi?  
- Nimani?  
- "Nimani" deysan-a? O'zingni go'llika solaverma ko'p! Xuddi bilmaganday gapirasana-a?!  
- Ayta qolsang-chi, nima gap o'zi?  
- Terkovskiyning jo'nab ketayotganidan xabaring yo'qmi?  
Dizma turgan joyida qotib qoldi.  
- Nima... Nima deding?  
- Yangi vazifaga tayinlanib, bugun kechqurun elchi sifatida Pekinga jo'nayotganini aytyapman. Kechqurungi gazetalarni o'qimovdingmi?  
U yana allanimalar dedi, biroq Nikodim quloq solmay qo'ygan edi. U trubkani joyiga tashlab yemakxonaga yugurib kirdi-da, gazetalarni ochdi.  
Chindan ham barcha gazetalarda Xitoyda hukumat barqarorlashgani sababli bosh ministr kabinetining boshlig'i, stats-sekretar' yordamchisi Yan Terkovskiy elchi hamda Xitoy hukumatining muxtor ministri qilib tayinlangani munosabati bilan uning bugun Pekinga jo'nab ketayotgani xabar qilingan edi. Dizma gazetalarni stol ustiga tashladi. Uning yuragi guppilab urmoqda edi.  
U o'rnidan sapchib turdi-da:  
- Ura! Ura! Ura! - deya baqirdi.  
Ignatij yugurib kelib, ajablanganicha eshik oldida to'xtab qoldi.  
- Meni chaqirdingizmi?  
- Ignatij! Aroq keltir! Bu ishni yuvish kerak!  
Xizmatkor grafin keltirib qadahga aroq quydi. Boshqasiga ham quy! - deya qichqirdi Dizma. - Yo'qolsin itvachchalar!  
Dizma ketma-ket to'rt qadahni bo'shatdi-da, stulga o'tirdi.  
- Bilasanmi, Ignatij?  
- Eshitaman.  
- Kimki mening, ya'ni Nikodim Dizmaning yo'lga to'g'anoq bo'lsa, rasvosi chiqadi. Tushundingmi?  
Dizma yana bir qadahni bo'shatib, ochiq turgan eshikning chirog'i o'chirib qo'yilgan kabinetga qaradi: qorong'ilikdan unga qandaydir ukkinikiga o'xshagan ko'zlar aqrayib qarab turgandek tuyuldi. Nikodim bir tupurdi-da, cho'qinib qo'ydi.  
- Qani, quy, ichamiz, Ignatij!  
U o'rniga yotganida vaqt yarim tundan og'ib qolgan edi. Shunda Dizma xizmatkoriga qarab dedi:  
- Bilasanmi, Ignatij, bu xotinlar butun dunyoni ag'dar-to'ntar qilib yuborishlari mumkin, ins-jinslar hamroh ekan ularga...  
- Bu gapingiz to'g'ri, - deya tasdiqladi Ignatij.

## 16-bob

Seshanba kuni Nikodim bilan Kshepitskiy nikohni bekor qilish masalalari bo'yicha mutaxassis advokat Pitsunskiyning' oldiga borishdi, chorshanba kuni esa katta komissar Reyx bilan oxirgi marta uchrashib unga yuz ming zlotiy topshirishdi. Payshanba kuni katta vokzaldan qarama-qarshi tomonga qarab ikkn poyezda yo'lga chiqdi. Ularning birida munkaygan bir chol qalt-qalt titrab o'tirardi. Boshqasida esa davlat g'alla bankasining raisi yo'lga chiqqan edi. Uni do'stlari shod-xurramlik bilan kuzatib qo'yishgandi.

Ochig'ini aytganda, chol yolg'iz emasdi. Kupeda uning qarshisida ikki yuzi qip-qizil norg'ul bir janob o'tirardi. Janob o'ng qo'lini pal'tosining cho'ntagiga tiqib olgandi, bu o'rinda uning bunday-o'tirishi zaruratdan ko'ra, ko'proq odat bo'lib qolganidan edi. Varshava - Berlin poyezdi birinchi bo'lib yo'lga chiqdi. Taxminan o'n minutlardan so'ng Belostok - Grodno tomon yuradigan ikkinchi poyezd joyidan jildi.

Vagon zinasidan sakrab tushgan oxirgi odam Kshepitskiy edi. U boshlig'iga jinoiy qidiruv bo'limida Kunitskiy bilan qilgan suhbat haqida qisqacha hisobot berdi. Kshepitskiy Dizmaga Kunitskiyning taqdiriga tan berib, ortiq to'sqinlik qilmaganini xabar qildi. Chol hatto Koborovo ishlarining ba'zi tomonlarini tushuntirib, yangi boshqaruvchining mushkulini ancha oson qilibdi. Nikodim Dizma esa yangi boshqaruvchi qilib xuddi shu Kshepitskiyning o'zini tayinlagandi.

Dizma xursand edi.

U bo'm-bo'sh kupeda o'rnashib olib, bundan buyon o'zi qanaqa kuyov bo'lishi haqida xayol sura boshladi.

Turgan gap, endi u bankadan voz kechishi kerak edi. Endi u bankani boshiga uradimi? Koborovodan olinadigan ulkan daromad biror ahmoqona gapni valdirab qo'yishdan cho'chimay tinchgina yashash imkoniyati - bularning bari bankadan voz kechishni taqozo etardi.

Yolg'iz o'zi Koborovo xo'jaligini eplay olmasligini Nikodim yaxshi bilardi, albatta.

Baxtiga, uning yonida har qanday ishni do'ndirib bajaradigan Kshepitskiy bor edi. Dizma pul masalasida sekretarga juda ham ishonib bo'lmasligini tushunardi, biroq boshqa jihatdan olganda, Kshepitskiy shunday serdaromad joyda egrilik qilishi ehtimoldan uzoq edi.

Tashqarida qalin qor bilan qoplangan keng vodiy yostanib yotardi.

Nikodim Terkovskiyi esladi-da, tishlarini g'ijirlatib qo'ydi. U lojada ishtirok qiluvchi xonimlar tufayligina Terkovskiydan xalos bo'lgani shubhasiz edi. Xonimlar qanday harakat qilishgani, kimlarni ishga solishganini u bilmasdi, bilishni istamasdi ham. Ilgari Nikodim ulardan iblis bilan muomalada bo'lganlari uchun cho'chirdi. Endi esa u battar qo'rqib qoldi. Tiriklar ins-jinslardan ham xavfliroq bo'lishadi. Shuning uchun ham lojadan tezroq qutulib olish haqidagi ahdidagi qattiq turishga qaror qildi. Turgan gap, u keyin ham bu xonimlar bilan aloqasini uzmaydi, lekin lojadagi o'rniga Varedani o'tkazib qo'ygani ma'qul.

Dizma Lyalya bilan Stella "iblis irodasi" haqidagi gapni eshitgach, qanday dovdirab qolishganini eslab, kulib yubordi. Polkovnik toza jazosini tortadigan bo'ldi-da...

Temir yo'lning ikki cheti o'rmon edi.

Kech kirdi, tuman tushgandi. G'ildiraklar taqa-tuq qilib Koborovo strelkalaridan o'ta boshlashdi. Perronda temir yo'l xizmatchisi

bilan Ninadan bo'lak hech kim ko'rinmasdi. Vagon derazasidan Dizmani ko'rib qolgan juvonning chehrasi tabassumdan yorishib ketdi.

U so'rashish uchun qo'lini cho'zdi, Nikodim chamadonini qor ustiga qo'ydi.

"Xayriyat, xudoga shukur!.."

Ular bo'm-bo'sh vokzaldan o'tib, avtomobilga o'tirishdi.

Motor starterning vag'illashidan jonlanib, g'ildiraklar sarg'anchiq qorda chir etib aylandi-yu, mashina o'rnidan qo'zg'aldi.

- Aytchi... ayt-chi... U... u... darrov rozi bo'ldimi?

Ninaning tovushidan bezovta ekanligi sezilib turardi.

Dizma kulib yubordi.

- Majbur bo'ldi.

- "Majbur bo'ldi" deganing nimasi? - qo'rqa-pisa gapirdi Nina.

- Ninochka, - deya tushuntirdi Nikodim, - muhabbat hamma narsani yengishga qodir, deb o'zing aytgan eding-ku axir.

Mashina taxta tilish zavodi yonidan o'tar ekan, u yerdagi chiroqlar lop etib yondi. Yo'l chetida turgan bir necha kishi shapkalarini olib ta'zim qilishdi.

- Xo'sh, endi... endi u nima qilmoqchi?

- Bunisi bilan bizning ishimiz yo'q, - deya yelkasini qisdi Nikodim. - Bankadagi bor pullarini olib ketdi. Koborovo qancha tursa, deyarli shuncha pul bor ekan. Ochlikdan o'lmaydi.

- Chet-elga jo'nadimi?

- Ha.

- Qaytib kelmaydimi endi?

- Bu haqda gap ham bo'lishi mumkin emas. Bu yog'iga men kafilman.

Nina o'ylanib qoldi.

- U shunday qilishga majbur bo'ldi, deding, Niko. Buning biror... alohida sababi yo'qmi, ishqilib?

- Nega tashvishlanyapsan, Ninochka? Masala hal bo'ldi - vassalom. U yog'i bilan nima ishing bor?

- Axir u mening erim edi...

- Men esa, ering emasdi, deyman.

Nina ajablandi.

- Qanaqasiga erim bo'lmas ekan?

Dizma nikohni bekor qilish tartibini qo'lidan kelganicha tushuntirdi-da, advokatning dalillarini takrorladi.

- Agar biror ishkal chiqib qolmasa, ikki oydan so'ng panna Ponimirskaya bo'lib olasan, uch oydan keyin, mabodo ahdingdan qaytmasang, mening xotinim bo'lasan.

Nina indamay o'tiraverdi.

Dizma buni ko'rib tashvishga tushdi. Birdan aynib qolsa-ya?.. Balki endi o'zini erkin his etgach, kelajak taqdirini u bilan bog'lashni istamay qolar?

- Nega indamayapsan, Ninochka, jonginam? - deya so'radi Nikodim qo'lidan kelganicha muloyimlik bilan.

- E, shunchaki o'zim, - dedi hushiga kelib Nina. - O'sha voqeani o'ylab qoldim. Endi buni o'ylamaslik kerak, to'g'rymi?.. O'tdi-ketdi... Peshanada bor ekan-da...

U Nikodimning pinjiga tiqildi.

- Hayot shunaqa o'zi, - dedi ishonch bilan Dizma,

- Men hayotdan qo'rqaman. U juda dahshatli.

- Men esa qo'rqmayman.

- Bilaman. Chunki sen kuchlisan, juda kuchlisan...

Koborovodagi uyning hamma derazalari charog'on bo'lib turardi. Nina so'nggi paytlarda qorong'ilikdan qo'rqadigan bo'lib qolganini va shu boisdan barcha chiroqlarni yoqib qo'yishni buyurganini aytdi.

Vestibulda hamma xizmatkorlar to'planib turishgan ekan. Ular hali biror narsani aniq bilishmasa-da, biroq Varshavadan yolg'iz qaytib kelgan shofyorning uzuq-yuluq hikoyasidan o'zlaricha xulosa chiqarib qo'yishgandi. Ilgari sira ham birovni kutib olmaydigan bekaning stansnyaga borishi ham ularning bu fikrini tasdiqlab turardi. Xizmatkorlar qandaydir voqea sodir bo'layotganini sezib qolishgandi... Nina buni intutsia deb atardi, Nikodim esa hid bilish derdi.

Nikodim oqsoch xotinga Kunitskiyning yotoqxonasiga joy solib berishni buyurganida ayol sira ham ajablanmadi.

Nina Dizma Varshavaga jo'nab ketgach, yana yolg'iz qolishdan noliy boshladi.

- Sen ham men bilan yura qol, Ninochka. Men seni olib ketaman.

- Koshkiydi buning iloji bo'lsa!.. - dedi ma'yus jilmayib Nina.

- Nega iloji bo'lmas ekan?

- Noqulay axir. Nahot buni tushunmasang? Shov-shuv ko'tariladi!

- Xo'sh, nima qilibdi, - dedi yelkasini qisib Nikodim. - Shundanam qo'rqib o'tiramizmi! Axir biz nikohdan o'tamiz-ku. Juda bo'lmaganda, mehmonxonada yashashning mumkin. Shunda har kuni ko'rishib turamiz.

Nina chapak chalib yubordi.

- Yashasin! Topdim! Pshelenskaya xolam. Xolamnikida turaman.

- Ana ko'rdingmi.

- Lekin Varshavada ko'p turishni istamayman. Shaharni yomon ko'raman. Hamma joydan ham o'zimni Koborovoda yaxshi his etaman. Biz doim Koborovoda yashaymiz-a, Nik?

- Bo'lmasam-chi, o'sha Varshava o'zimniyam jonimga tekkan. Juda to'ydim.

- Juda mehribonsan-da! Yur, seni o'ylagan paytlarimda chalib yurgan narsamni chalib beraman.

Ular kichik mehmonxonaga o'tishdi. Nina pianino qopqog'ini ochdi.

- Sen ham chalishni bilasanmi?

- Faqat mandolina chalaman.

- Nina kulib yubordi.

- Hazillashyapsan shekilli?



- Xudo haqqi!
  - Mandolina chalish juda kulgili ko'rinadi.
  - Nega endi?
  - Bilmayman, menimcha, juda kulgili bo'lsa kerak. Banka raisi, davlat arbobi kelib-kelib mandolina chalib o'tirsa-ya!
  - Afsus, asbobni Varshavada qoldirdim-da. Bo'lmasam senga bir narsa chalib berardim.
- Nina uni o'pgan edi, Nikodim unga qo'l cho'zdi. Biroq juvon uning quchog'idan sirg'alib chiqdi-da, kula-kula pianino chala boshladi.
- Yaxshimi? - deya so'radi u ko'zlarini yumib.
  - Juda yaxshi. Juda ajoyib. Uning so'zlari qanaqa?
  - So'zlari deysanmi? - deya ajablendi Nina. - Ha! Sen buni operadan deb o'ylayapsanmi? Yo'q. Bu sonata. Bilasanmi kimniki?
  - Kimniki ekan?
  - Chaykovskiyniki.
  - Shunday degin. Chiroyli kuy ekan. Uning nomi qanaqa?
  - Si-mol'.
  - Si-mol'? Qiziq. Nega si-malina emas?

Hazildan vaqti chog' bo'lib ketgan Nina uning bo'ynidan quchdi.

- Sultonim bugun quvnoq kayfiyatdalar shekilli? Topdim: mandolina haqidagi gap ham hazil edi, yomon-toy. Kichkina Ninochkang ustidan ham shunaqa kulasanmi. "Ninotchka!" Bilasanmi, meni hech kim bunday atamagan edi... Ninotchka! Bilasanmi, bu unchalik chiroyli emasdir, lekin menga juda yoqadi. Qani, qaytar-chi...
- Ninotchka, - dedi Nikodim va o'zicha: "Jin ursin, mandolina chalishimning nimasi yomon ekan?" - deya xayolidan o'tkazdi.
- Hammasidan ham shu so'zingni yaxshi ko'raman. Sen ismimni shunday jiddiy talaffuz qilasanmi, tovushingdan dadillik... kuch, hatto farmon his etish mumkin. Negaligini bilmayman, lekin, menimcha, butun a'zoyi badanlariga tuz, yod singib ketgan dengizchilarning tovushi shunaqa bo'lsa kerak.
- Yod deysanmi? Demak, dengizchilar badanlariga yod surtishar ekan-da?

Nina kulib yubordi.

- Chindan ham bugun kayfiyating ajoyib ekan. Bilasanmi, sen hazil gap aytish talantiga ega ekansan. Sen hazil gapni mutlaqo jiddiy ohangda aytasan, bundan askiyang yanada kulgiliroq chiqadi. Biz birga bo'lganimizda qanday baxtiyor ekanligimni bilsang edi! Hozir ich-ichimdan xursand bo'lib, o'zimni shunday yengil his etyapmanki, asti qo'yaverasan. Kichkina Ninochkang anchadan beri bugun birinchi marta shiringina uxlaydi. Qayg'uli fikrlar g'oyib bo'ladi endi...

Nikodim ko'zlarini qisib dedi:

- Buning o'rniga ba'zi boshqa narsalar paydo bo'ladi.

Nina qizarib, uning pinjiga tiqildi.

- Yo'q, yo'q, - deya e'tiroz bildirishga urindi u. - Ninotchka tepada shiringina uxlaydi, Nik esa pastda yotadi.
- Foydasi yo'q. Iltimos, e'tiroz bildirilmasin. Bekorga bahslashib o'tirmaylik.
- Nik!..

- Gap tamom!.. Masala hal bo'lgan. Xizmatkorlar ketgan zahoti mening Ninochkam oldimga tushadi.

- Tushmaydi, - deya bahslashga boshladi Nina.

- U holda o'zim tepaga chiqaman...

- Mana ko'rasan, eshik qulflog'liq bo'ladi, - dedi kulib juvon va lablarini uning yuziga suykadi.

- Eshik? Men uchun eshik nima degan gap! Sindiraman qo'yaman...

- Voy, pahlavonginam-ey! Qulog'ingni tut, bir gap aytaman.

U lablarini Nikodimning qulog'iga yaqinlashtirib, asta shivirladi.

- Ninotchka o'z sultonining oldiga tushdi.

- Mana bu boshqa gap...

Ular ajralishib, Dizma Kunitskiyning yotoqxonasi tomon yo'l olganida soat o'n birdan oshgan edi. Yo'l-yo'lakay u kabinet chirog'ini yoqib, po'lat sandiqni ochdi. Tokchalarda dasta-dasta pullar qator turardi. U dastalardan birini oldi-da, go'yo og'irligini aniqlamoqchi bo'lganday, uni kaftida irg'itib qo'ydi.

- Meniki... Hammasi meniki. Pullar, sandiq, uy, fabrikalar... Millionlar!

Nikodim yechinar ekan, bu badavlat amlokda ishni nimadan boshlashini o'yladi.

U ertagayoq butun korxonalarini aylanib chiqishga va xizmatchilarni yig'ib, kerakli ko'rsatmalar berishga ahd qildi. Dizma ularning oldida aytadigan gaplarini o'ylay boshladi...

Shu payt eshik g'ijirlab ochildi-da, xonaga Nina kirib keldi.

Bu kecha Nikodimga uxlash nasib qilmadi. Ertalab soat yettida xizmatkorlar xonalarni supurib-sidira boshlagan edi, Nina uyning narigi qismida yashaydigan xizmatkorlar yetib kelmasdan yotoqxonasiga yetib olish uchun shoshilib chiqib ketdi.

Dizma papiros tutatib, yostiqlarini to'g'rilab qo'ydi.

"Agar doim shunaqa bo'laversa, men uzoqqa bormayman".

U uxlashga urinib ko'rdi, biroq uyqusi kelmadi.

- Turish kerak, - deya to'ng'illadi Nikodim va qo'ng'iroq tugmasini bosdi.

Yugurib kelgan xizmatkorga u vanna hozirlashni va cho'chqa go'shtidan qo'shib o'nta tuxumdan quymoq pishirishni buyurdi.

- Eng muhimi - yog'liroq bo'lsin.

Nikodim kiyinib, yemakxonaga kirganida quymoq hali tayyor emas ekan. U xizmatkorni koyiy ketdi. Xizmatkor, quymoq baribir sovib qolardi, deb o'zini oqlamoqchi bo'lgan edi. Dizma o'shqirib berdi.

- O'chir ovozingni, ahmoq. Agar hammasini o'z vaqtida qilganingda sovib qolmasdi! Vannadan chiqqanimni ko'rmadingmi? Sen yaramaslarni tartibga o'rgatib qo'yaman hali! Quymoqni olib kelgin-da, otni egarlashni buyur... To'xta! Yaxshisi, chana qo'sha qolishsin.

- Xo'p bo'ladi, pan janobi oliylari. Nonushtadan so'ng Dizma ikki ot qo'shilgan bejirimgina chanaga o'tirdi-da, qog'oz fabrikasiga haydashni buyurdi. Fabrika idorasida u xizmatchilarning choy ichib o'tirganini ko'rib, tutaqib ketdi.

- Bu yer nima o'zi, jin ursin! - deya baqirdi u. - Fabrikami yo qovoqxonami?

Xizmatchilar sapchib o'rnilaridan turishdi.

- Nima qiliq bu! Bu yerda ovqatlanganingiz uchun haq olasizlarmi? Xat tashuvchi qani?

- Bu yerdaman, pan rais.

- Hoziroq stakanlarni yo'qot! Bundan keyin idorada choy ichganingizni ko'rmay. Ovqatni uylaringizda yeysizlar.

Tushundinglarmi?

Dizma idoradan o'tib, direktor kabinetining eshigini ochdi. Kabinetda hech kim yo'q edi.

- Direktor qani?

- Pan direktor to'qqizda keladilar, - hayajondan tovushi titrab tushuntirdi xizmatchilardan biri.

- Nima-a?.. To'qqizda deysanmi? Tekinxo'rlar, itvachchalar!

Nikodim fabrikani ko'zdan kechirib chiqdi. Sexda ish avjida edi. Ishchilar Dizma bilan odatdagiday bosh irg'ab salomlashishdi.

Ularning bu salomida hadiksirash, shubha va o'z qadrini bilish - xullas, proletariy korxonaga egasini ko'rganida dilida paydo

bo'ladigan barcha tuyg'ular namoyon bo'lgan edi.

Yoshgina injener Dizmaning oldiga yugurib kelib, ehtirom bilan salom berdi.

- Xo'sh, ishlar qalay? - deya so'radi Nikodim. - Hammasi joyidami?

- Hammasi joyida, pan rais.

- Direktoringizga aytib qo'ying, bundan buyon nshga soat yettida kelsin. Boshliq qo'l ostidagi odamlarga ibrat bo'lmog'i kerak.

U injenerning qo'lini qisdi-da, fabrikadan jo'nab kstdi.

Tegirmon, taxta tilish korxonasi, otxona, chorva fermasi, aroq zavodi - bularning barini Dizma peshinga qadar aylanib chiqdi. U

Koborovodan xuddi to'fonday hamma yoqqa vahima solib o'tdi.

Uyga yaqinlashar ekan, Nikodim derazadan Ninani ko'rib qoldi. Nina unga qarab tabassum qilganicha ikkala qo'lini silkib turardi.

U egnidagi xalatni yechmasdanoq vestibyulga qarab tushdi.

- Shu tobda sultonim qayoqdan kelyaptilar? - deya so'radi u ohista - qo'shni xonada xizmatkor stolga dasturxon yozmoqda edi.

- Korxonalarni ko'zdan kechirib chiqdim.

- Xo'sh, qalay?

- Yalqovlar ko'p ekan. Hechqisi yo'q, endi hammasini gah desa qo'lga qo'nadigan qilib qo'yaman.

- Jonim, sening xo'jalik bilan shug'ullanishingni istamayman. To'yimizdan so'ng boshqaruvchi yollashing ksrak. Axir o'zing o'ylab

ko'r: ish butun vaqtini olib qo'yadi! Kuni bilan uyda bo'lmasan. Men esa yolg'iz o'tirishni istamayman. Xo'p degin, Nik,

boshqaruvchi yollaysan-a?

- Allaqachon yollab qo'rganman, - deya kulib javob berdi Nikodim.

- Rostdan-a?

- Bo'lmasam-chi.

- Shundaymi? Juda yaxshi qilibsiz.

- Bir necha oy Vårshavada turadigan bo'lganimizdan keyin xo'jalikka kimdir qarab turishi kerak-ku axir. Bo'lmasa, butun

Koborovoni talon-toroj qilib yuborishadi.

- Sultonim kimni taklif qildi?

- Kshepitskiy degan bir odamni. Sen uni taniysan shekilli?

- Kimni? Zizyani-ya? Pshelenskayaning ad'yutanti Zizya Kshepitskiyini-ya?

- Xuddi o'shani.

- Juda qiziq yigit. Bir vaqtlar menga xushomad qilib yurardi. Lekin o'sha paytlarda uning uncha obro'si yo'q edi.

- Ochig'ini aytsam, u haqda biror yomon gap eshitganim yo'q. Banka tashkil qilinganidan buyon menda sektar' bo'lib ishlaydi.

- Uning ishidan xursandmisan?

- Yomon ishlamaydi. Yo sen uning bu yerda ishlashini istamaysanmi?

- Yo'g'-e, nega endi! Ishlar meni sira ham qiziqitirmaydi, azizim. Bu sohada hech nima tushunmayman.

Xizmatkor kirib, chaqirilgan odamlar to'plana boshlaganini xabar qildi.

Nikodimning kabineti yoniga joylashgan kenggina idorada yigirma chog'lik odam yig'ilgan edi. Allanima to'g'risida ohista

gaplashib o'tirgan xizmatchilar Dizma kirib kelgach, o'rnilaridan turib ta'zim qilishdi.

Dizma javoban bosh irg'adi-da, hech kimni o'tirishga taklif qilmay, yozuv stoli yoniga borib o'tirdi.

- Sizlarni bu yerga to'plashimdan maqsad, - deya gap boshladi u barmoqlari bilan stolga yozilgan movutni chertib, - Koborovo

bekasi pani Nina Kunitskaya eridan ajralishib, undan vakolatnomani qaytarib olayotganini xabar qilib qo'yishdir. U barcha ishlarni

boshqarishni menga topshirdi. Ogohlantirib qo'yay: men pachakilashib o'tirmayman. G'alla bankasi qanday puxta ishlayotganini

gazetalardan o'qigan bo'lsangiz kerak. Gap shundaki, men bankada qattiq intizom o'rnatganman. Qaytaraman - men pachakilashib

o'tirishni yomon ko'raman,

Uz gaplaridan qizishib ketgan Nikodim borgan sayin avjiga chiqa boshladi.

- Qisqasi, ish o'yinchoq emas. Mening qo'limda ishlagan odam mehnat qilishi kerak, yalqovlarga pul to'lamayman.

Tushundilaringmi? Tekinxo'rlarni rasvosini chiqarib haydayman. Agar, xudo saqlasin, birontangizning firibgarligingizni, qo'lingiz

egriligini sezib qolsam, sira ayab o'tirmayman - darhol turmaga tiqamay! Men bilan hazillashib bo'lmaydi! Tushunarlimi?

Shunday deya Nikodim stolga musht tushirdi. Xizmatchilar hayratdan dong qotib turishardi.

- Yaqinda bu yerga pan Kshepitskiy degan odam keladi, men uni boshqaruvchi qilib tayinladim. Uning hamma gapiga quloq

solishingiz lozim. Lekin hozirgi zamonda tug'ishgan akangga ham ishonib bo'lmaydi. Shuning uchun ham men bunday yo'l

tutmoqchiman: mabodo birontangiz biror qalloblikni sezib qolib, menga xabar qilsangiz, besh ming zlotiy beraman va

maoshingizni oshiraman. Hech kimni xafa qilmayman, sizlarga otangiz kabi muruvvat ko'rsataman, ammo o'zimni aldashlariga yo'l

qo'ymayman. Gap tamom. Endi ishingizga boringlar.

Xizmatchilardan biri, aroq zavodining direktori, munkaygan, nuroniy chol oldinga o'tib, Dizmaga murojaat qildi:

- Pan rais...

- Xo'sh, nima gap?

- Siz aytdingizki...

- Aytgan gapimni tushundingizmi?

- Tushundim, ammo...

- Hammasini tushundingizmi?  
- Hammasini. Xuddi shuning uchun ham...  
- U holda gap tamom. Men sizlarni bu yerga valaqlashish uchun to'plaganim yo'q. Agar gaplarim birontaga yoqmagan bo'lsa - marhamat, to'rt tomoni qibla! Tuyog'ini shiqillataversin! Hech kimni etagidan tutib turmayman. Faqat o'ylab ko'rishni maslahat beraman. Hozir ish topish oson emas. Shunday guvohnoma yozib beramanki, asti qo'yaverasiz! Tanish-bilishlarim haqida-yu, gapirib o'tirmayman. Pol'shada bironta ham odam menga dushman bo'lmagani ma'qul. Xayr.  
U shunday deya eshikni qarsillatib yopdi-da, chiqib ketdi.  
Hamma bir minutcha indamay turdi.  
- Ana xolos! - dedi nihoyat xizmatchilardan biri.  
- Qanday yaramaslik! - dedi chidab turolmay aroq zavodining direktori. - U bizlarni josus qilib qo'yomoqchi.  
- Gaplarini qarang-a!  
- Men ishdan bo'shah haqida ariza beraman.  
- Bizlarga xuddi to'pori soldatlarday muomala qildi-ya.  
- Tilini aytmaymizmi! Sharmanda! Go'yo biz ziyoli odamlar tilini tushunmaydigandek, allaqanday jargonda gapirdi.  
- Axir haqorat-ku bu!  
- Faqat bitta choramiz qoldi: hammamiz baravariga ishdan bo'shahimiz kerak.  
- Ha, xuddi shunday qilishimiz lozim.  
Biroq hamma ham shu fikrda emasdi. Yoshi o'ttiz beshlarda bo'lgan agronom Tanevskiy gap qotdi:  
- Ogohlantirib qo'yay: mendan umid qilmanglar.  
- Mendan ham, - deya qo'shimcha qildi veterinar. Hammasi g'azablanib, ularga ta'na qila boshladi. Tanevskiy yelkasini qisdi.  
- Xo'sh, nega xafa bo'lyapsizlar? Ko'nglingizdagiday gapirmadimi? Menimcha, bularning hammasi arzimagan narsa, Rais Dizma - ulug' odam, uning Vatan oldida xizmatlari katta: u davlat ishlarini hal qilishi kerak. Shu boisdan bu yerda Versaldagidek diplomatiya qilib o'tirmaganining ajablanarli joyi yo'q. Nihoyat, bu yer kibarlar saloni ham emas, bu yer ish...  
- Bizlarga chaqimchilik qilishni taklif qilyapti! Uyaling, pan Tanevskiy, men sizni, bunchalik yumshoq ko'ngil deb o'ylamagandim, - dedi g'azab bilan bosh buxalter.  
- Kechirasizu, lekin u hech kimni chaqimchilik qilishga majbur etgani yo'q.  
- Shunaqami? Chaqimchilik uchun belgilangan mukofot-chi?  
- Kim sizga mukofot so'rasin deydiki? - dedi zardasi qaynab Tanevskiy. - O'zimni aytay... Agar o'g'rilik qilishayotganini ko'rsam, bu haqda xo'jayinga ma'lum qilib qo'yishni o'z burchim deb hisoblayman. Nima? Yo gapim noto'g'rimi? Pan rais o'zining, to'g'rirog'i, unga vakolat bergan bekaning mulkini suiiste'mol qilinishidan saqlashga urinishi mutlaqo o'rinni. U oqilona ish qilyapti, xolos. Faqat ahmoq odamgina o'z mulkini talon-toroj qilishga yo'l qo'yadi. Agar u bankada ham o'g'rilikka yo'l qo'yganda hozirgiday butun dunyoga dong taratmagan bo'lardi. Xo'sh, yo'l qo'yganida bir necha oy ichida mamlakatning moliyaviy hayotini yaxshilay olarmidi?.. Yo'q, albatta! Bizdan ongli ravishda halol ishlashni talab qilar ekan, u haq. Shunday emasmi? A?..  
Tanevskiy e'tiroz bildirishlarini kuta boshladi. Biroq hamma jim turardi.  
- Hayotda ko'ngilchanlik qilib bo'lmaydi. Biz polyaklar esa, sal izzat-nafsimizga tegishdimi, bas, darhol terslik qila boshlaymiz. Keyin ishdan quvib yuborishadi! Shu izzat-nafsimiz bilan birovlardan ish so'rab, yalinib yuraylik bo'lmasam. Ko'pni ko'rgan odamman, meni aldab bo'lmaydi. Ochig'ini aytсам, xafa bo'lishingiz mutlaqo o'rinsiz. Nimayam derdimъ Ъ” pan Dizma mashhur davlat arbobi, atoqli iqtisodchi, biz esa - meni kechirasizlaru - shunchaki chakana odamlarmiz. Kim hayotga yengil qarasa, o'zicha "xulosa" chiqaraversin, men esa ishdan bo'shamayman. Rais - puxta odam, ishning ko'zini biladi. U bizni oldimizdan xushlab, ortimizdan mushtlamay, ochig'ini aytdi-qo'ydi. Bunga uning haqi bor. Gap tamom.  
Oraga jimlik tushdi.  
- Ha, u haq albatta, - dedi kimdir.  
Mana ikkinchi, uchinchi, o'ninchi odam ham agronomning fikriga qo'shiladi...  
- Albatta haq, - dedi Tanevskiy ilgakdan mo'yna pal'tosini olar ekan.  
Aroq zavodining direktori qo'llarini yozdi.  
- Bilganingizpi qilinglar, menga esa bunaqa ish to'g'ri kelmaydi.  
Barcha, hali hammasi yaxshi bo'lib ketadi, hozirgi naytda yangi ish topish qiyin, deb uni bu fikrdan qaytarishga urina boshladi. Chol boshini chayqab dedi:  
- Yo'q, janoblar. Ish topish qiyinligini bilaman, lekin men bunday ishlashga ko'nikmaganman. Bunaqasi menga to'g'ri kelmaydi. Ehtimol sizlar haqdirsizlar, biroq men qarib qoldim, urushdan avval qanday o'ylagan bo'lsam, hozir ham shunday o'ylayman. Qo'limdan kelmaydi...  
Ular birin-ketin tarqalisha boshlashdi. Nihoyat, so'nggi xizmatchi ham idoradan chiqib ketdi. Bo'yalmagan taxta polning u yer-bu yeri xalqob bo'lib qoldi, O'sha kuni ho'l qor yoqqan edi.

## 17-bob

Pshelenskayaning kvartirasidagi eng yaxshi ikki xona qadrli Ninusya uchun ajratib berildi. Bu xonalar ikki ulkan gulzorni eslatardi. Har kuni xizmatkor bilan oqsoch qiz panenka janobi oliyalarining (Pshelenskaya Ninani shunday atashni buyurgan edi) nafaslarini qaytmasligi uchun gul o'tkazilgan tuvaklarni xonadan bufetga tashib chiqishardi.  
Har kuni peshindan so'ng kibarlar jamiyatining deyarli yarmi mavsumda shov-shuvga sabab bo'lgan Ninani ko'rishga kelardi. Bu hol bir hafta davom etib katta tantana bilan yakunlandi: Pshelenskaya xonim jamiyatga o'zining sevimli jiyanini tanitish uchun bal uyushtirdi.  
Balga hatto knyaz' va knyaginya Rostotskiylar ham qadam ranjida qilishdi. Pshelenskaya ularni hayajondan qip-qizarib qarshi oldi. Knyaz' bilan knyaginya rais Nikodim Dizmaning mehri tushgan uyga qadam qo'yganlaridan g'oyat xursand ekanliklarini izhor etishdi.  
Mehmonxonada Nikodimning Ninaga unashishi haqida ochiqdan-ochiq gapirishmoqda edi; bu unashuv Ninaning oldingi nikohi bekor qilingach, rasman e'lon qilinishi lozim edi.  
Barcha faqat bir narsadan: Kunitskiyga nima bo'lganini bilolmaganidan xijolat chekardi. Dunyodagi barcha narsadan xabardor bo'lishga o'rganib qolgan xonimlar shuni o'ylab, kechalari uxlamay chiqishardi.

Cholning chet elga jo'nagani va nikohni bekor qilishga rozi bo'lgani ma'lum edi, xolos. Xo'sh, nega?.. Nima sababdan u yer-mulkini Ninaga qoldirib ketdi?..

Bu savolga bir nechta odamgina javob bera olardi. Biroq bu haqida so'rashganida Kshepitskiy jilmayib qo'ya qolar, Pshelenskaya esa, agar o'zi shuni istamasa, biror narsani og'zidan gullaydigan ayollar sirasidan emasdi. Ninaning o'zidan so'rash noqulay bo'lib, Dizmadan so'rashga esa hech kim jur'at etmasdi.

Uchrangli Yulduz lojasidagi yaqinligidan foydalanib, Dizmadan Kunitskiy haqida so'rab ko'rgan Lyalya Konespol'skaya hech nimani bilolmay, keyinchalik shikoyat qilib yurdi:

- Tasavvur qiling-a, u menga, shundan boshqa tashvishingiz yo'qmi, dedi-ya!

Qabul marosimi juda ko'ngildagidek o'tdi. Ammo bal malikasi xijolatda ekanini yashirolmay qolgandi: Nina hozirgi ahvolidan uyalardi. U go'yo qizlik paytiga qaytgandek bo'lib qolganini o'ylab, o'zini noqulay his etardi.

Varshavada Nina izzat-ikrom bilan yashamoqda edi. Darvoqe, bu izzat-ikromga ma'lum darajada sinchkovlik va ehtirom tuyg'ulari ham aralashib ketgandi. Bunga esa Nikodimning shuhrati sabab bo'lgandi.

Nina bilan gaplashgan har bir odam albatta Dizmani eslardi va uni ko'klarga ko'tarib maqtardi. Nina bu gaplarni eshitar ekan, doim hayratga tushardi. Nikodimning mashhur odam, yirik davlat arbobi, serfazilat kishi ekanligi ilgari ham ma'lum edi, albatta.

Lekin Koborovoda Nina uning bunchalik ulug'ligini bilmagan ekan. Endi barcha uni ko'klarga ko'tarib maqtayvergach, Nina ilgari uning qadriga unchalik yetmaganini fahmladi va ichida qallig'iga nisbatan qandaydir jur'atsizlik his eta boshladi.

Ninaning hayoti rang-barangligiga qaramay, yoki xuddi shu rang-baranglik uchunmi, ishqilib, bir maromda o'tib borardi.

Ertalablari u yo xolasi bilan sayrga chiqardi, yo magazinlarni aylanib, turli-tuman narsalar xarid qilardi. Soat birda uyiga qaytar ekan, uni albatta uch-to'rtta sinchkov mehmon kutib o'tirgan bo'lardi. So'ngra peshinga ovqatga o'tirishardi. U ba'zan uyda, ba'zan tanishlarinikida, ba'zan esa Nikodimning taklifiga muvofiq restoranda ovqatlanardi. Soat yettida Nikodimning o'zi kelardi-da, ular ikkovlashib teatr yoki kinoga borishardi. Teatrda borgan kunlari Nikodim uni mashinasida uyigacha olib kelib qo'yar va ular darvoza oldida xayrlashishardi. Kino esa teatrga qaraganda ancha erta tugardi, shu sababdan Dizma u bilan birga ovqatlanish uchun Pshelenskayanikiga kelardi.

Nikodim Ninadan o'z kvartirasiga borishni juda ko'p iltimos qildi, biroq juvon kundan-kun bu ishni paysalga solib kelardi.

O'sha kuni ular kinoda qandaydir odobsizroq komediya ko'rishdi. Shundan so'ng Dizma Ninaning o'jarligini yengishga ahd qildi.

Ular Pshelenskayaning uyiga yetib kelishgach, Nikodim avtomobilga javob berib yubordi.

- Piyoda ketaman. Bu yerdan uzoq emas, - dedi u shoferga.

Nina qo'ng'iroq tugmasini bosmoqchi bo'lgan edi, Dizma uning qo'lidan tutdi.

- Yo'q, Ninochka, menikiga boramiz.

- Yo'q, senikiga bormayman.

- Borasan!

- Buning iloji yo'q! Xolam nima deydilar axir?

- Nima desa deyaversin. Bu bilan nima ishing bor?

- Yo'q, yo'q! - deya o'jarlik qildi Nina.

- Xo'p degin, yarim soatgagina borib kelaylik, - iltimos qilishda davom etdi Nikodim. - Yo meni sevmaysanmi?

Nina uning pinjiga tiqilib, shivirladi:

- Yaxshi, lekin bugun emas.

- Bugun.

- Yo'q. Ertaga. Kinoga ketdik deymiz.

Dizma achchig'lana boshladi. U yana qistamoqchi bo'ldi, biroq Nina qo'ng'iroq tugmasini bosgan edi, darvozaxonada darbonning qadam tovushi eshilib qoldi.

Nina shoshilib Dizmani o'pdi-da, ichkariga kirib ketdi.

Havo juda sovuq edi, Nikodim pal'tosining yoqasini ko'tarib oldi. U uyi tomon bir oz yurdi-da, so'ng birdan fikridan qaytib, Kruchaya ko'chasiga burildi. Iyerusalim xiyobonida hali sayr qiluvchilar ko'p edi, Yangi Svyatda esa odam qaynardi.

Nikodim mayxonaga kirib, bir necha qadah aroq ichdi-da, ko'k no'xat bilan bir talay dudlangan cho'chqa go'shtidan yedi...

Peshtaxta ortida oq xalat kiygan durkungina bir qiz ishlamoqda edi.

"Ketvorgan xotin ekan-da" - deya xayolidan o'tkazdi Dizma. Shu tobda uning miyasiga hozir ko'chaga chiqib, istaganimga imo qilishim mumkin, degan fikr keldi.

U aroqning haqini to'ladi-da, odatiga xilof ravishda qaytimini sanab o'tirmay ko'chaga chiqdi.

Chindan ham "xonimchalar" juda serob edi. Bir necha minutdan so'ng u bittasini tanladi. Nikodim avval uni uyiga boshlab bormoqchi bo'ldi, biroq keyin mehmonxonaga olib borganim ma'qul, degan qarorga keldi. Ayol uni Xmel'naya ko'chasidagi allaqanday bir uyga boshlab bordi.

Nikodim o'rnidan turib, kiyina boshlaganida soat kechasi to'rt bo'lgan edi. U cho'ntagidan yigirma zlotiy chiqarib, stol ustiga qo'ydi-da, "xayr", deya to'ng'illaganicha xiragina lampochka bilan yoritilgan iflos koridorga chiqdi.

Mehmonxona bekasi semiz kampir yangi "jazmanlarni" boshlab o'tdi, koridorning narigi chetidagi xonadan kimdir chiqdi.

Nikodim odati bo'yicha papiros olish uchun qo'lini cho'ntagiga tiqqan edi, portsigarini topa olmadi. U yugurganicha xonaga qaytib kirdi.

Ayol to'shakda chordana qurib, tishi singan taroq bilan sochlarini taramoqda edi.

- Portsigarini ber, alvasti!

- Qanaqa portsigar?

- Qanaqa deydi-ya? Qanaqaligini ko'rsatib qo'yaman senga! Yaxshisi, darrov ber, bo'lmasam o'zim topib olaman-da, tumshug'ingga solaman.

- Muncha baqirasan? Odamlar to'planadiku?! Eshikni yopish shuncha qiyinmi?!

Dizma orqasiga o'girilib qaradi. Chindan ham qorong'i koridorda kimdir turgan ekan. U eshikni yopmoqchi bo'lib o'girilgan edi, yuziga chiroq nuri tushdi. Koridorda kimdir asta qichqirib yubordi-da, o'zini chetga oldi.

Nikodim eshikni qulflab, kalitni cho'ntagiga tiqdi pa karavot yoniga keldi. Ayol go'yo hech nima bo'lmaganday sochini tarayverdi.

Dizma taroqni uning qo'lidan yulib oldi-da, burchakka qarab otdi.

- Muncha siltaysan, olifta? - dedi ayol do'rillagan tovush bilan.



- Portsigarni ber, eshityapsanmi!

- Olganim yo'q portsigaringni, - deya yelkasini qisdi ayol.

Dizma uning yuziga bir shapaloq tushirgan edi, ayol yiqilib boshi devorga urildi.

- Ber deya, mo'chag'ar! - shunday deya u yana qo'lini ko'tardi.

Ayol yuzini tirsagi bilan pana qildi. Dizma uning sumkasini titkilay boshladi. Sumkadan bir nechta arzimasi mayda-chuydalar bilan g'ijimlangan pul va iflos dastro'mol chiqdi. Ayol unga indamay qarab turardi.

- Ha... gazanda!

Dizma ayolning ostidan yostiqli tortib oldi-da, polga uloqtirdi. Yostiqli bilan polga to'qillab portsigar ham tushdi. Nikodim uni olib, ko'zdan kechirdi-da, cho'ntagiga soldi.

- O'g'ri, - deya to'ng'illadi u, - yaramas!

- Uni u yerga o'zing qo'yganding!

- Yolg'on! - deya baqirdi Dizma.

Ayol indamadi. Dizma eshikni ochib, koridorga chiqdi. Ko'chaning u yer-bu yerida fonarlar yoqib qo'yilgandi. Izvoshlar ko'rinmasdi. Uyga piyoda ketishga to'g'ri keldi. Sovuq kuchayib, oyoq ostidagi qor g'arch-g'urch qilardi. Ahyon-ahyondagina biror o'tkinchi ko'zga tashlanib qolardi. Nikodim shoshilib borar ekan, Marshalovskayaning muyulishiga yetganida orqasiga o'girilib qaradi. Ko'chaning narigi betida uning ortidan qandaydir bir qiz kelmoqda edi.

"Bunisi ham haligidaqalardan bo'lsa kerak, - deya hayolidan o'tkazdi Nikodim, - yo'q, meni aldayolmaysanlar!"

U qadamini tezlatdi, biroq qiz ham undan qolmay kelaverdi. Chamasi, u ortda qolib ketmaslikka ahd qilgandi, chunki Dizma Novogrodskaya ko'chasining muyulishiga yetgach, yana unga ko'zi tushdi. Nikodim to'xtagan edi, faqirona kiyingan qora shlyapali qiz ham to'xtab, allaqanday magazinning yoritilmagan vitrinasini tomosha qila boshladi.

Nikodim bir tupurdi-da, yo'lida davom etib, Vspul'naya tomon burildi. Bir necha minutdan so'ng u darvoza oldiga yetib bordi.

Darbon eshikni ochib, ta'zim qildi.

- Shofer soat nechada keldi? - deya so'radi o'z odamlarini nazorat qilib yurishni yaxshi ko'radigan Dizma.

- Soat o'n birlarda, pan janobi oliylari.

- Garajning tomini tuzatishdimi?

- Tuzatishdi, pan janobi oliylari.

Dizma bosh iring'adi-da, zinadan yuqori ko'tarildi. Panjara ortidan ularni kuzatib turgan qizni na u, na darbon sezdi.

Notanish qizning yuragi gupillab ura boshladi.

U boshini ko'tarib, imorat peshtoqiga qaradi-da, ikkinchi qavatning bo'g'otidagi qora harflarga ko'zi tushdi:

"Davlat G'alla Bankasi"

- Banka!..

Birdan hammasi unga ayon bo'ldi. Nikodim, uning Nikodimi katta ish boshlamoqchi. Garchi Nikodim undan yuz o'girgan bo'lsa-da, qiz uni sira unuta olmay hamon yaxshi ko'rardi. Yer ostidan yo'l kovlab xazinani o'marmoqchi bo'lsa kerak!.. Harqalay darbon bilan tili bir ekan: darbon unga eshikni ochib bergani va ular allanima to'g'risida kelishib olishganini qiz o'z ko'zi bilan ko'rdi.

Davlat g'alla bankasi!

Balki u yerga xat tashuvchi bo'lib joylashib olgandir? Unday bo'lsa, nega kechasi keldi?

Qizning yuragi hamon gupillab urardi.

U ko'chaning narigi betiga o'tib, kuta boshladi.

Ehtimol, hozir qo'ng'iroq chalinib, muyulishdan politsiya chiqib qolar? U holda qiz nima qilish lozimligini biladi: u qo'ng'iroq chalib, darbonni ogohlantirib qo'yadi... To'g'ri, Nikodim uni unutdi, qaytib kelaman, dedi-yu, ammo aldab ketdi, biroq endi, albatta uning yoniga qaytadi, Ishi yomon emasga o'xshaydi - chiroyli pal'to kiyib yuribdi. Anavi safar ajoyib mashinada o'tdi... U Lutskayada, ularning uyida yashagan kezlari qiz Dizmaning bunday jasur yigit ekanligini xayoliga ham keltirmagan edi...

U ketishga jazm etganida past suzayotgan qop-qora bulutlar orasidan tong nuri tusha boshlagan edi. Sovuq uning suyak-suyagidan o'tib ketdi. Lutskayadagi uyiga yetib borgach, qiz darvozaning ochib qo'yilganini ko'rdi - yigirma tiyin yoniga qoladigan bo'ldi.

Ertalab Man'ka yana Vspul'naya tomon yo'l oldi. Qiz, bankani politsiya o'rab olgan bo'lsa kerak, deb o'ylardi. Nikodim qo'lga tushgan bo'lsa-ya?! Ehtimol, qochib ham ketgandir.

Man'ka yengil tortib, tin oldi. Banka eshigi tinimsiz ochilib yopilar, u yerga mijozlar kirib-chiqib, darvoza oldiga avtomobillar kelib-ketib turardi.

Ehtimol, Nikodim yer ostidan yo'l ochmoqchi yoki devorni teshmoqchidir... Bu ish bir necha kunga cho'ziladi.

Nihoyat, Man'ka uni qidirib topdi! Endi Nikodim undan qochib qutulolmaydi! Man'ka uni bu yerda kunduz kuni uchratmasligi, Nikodim bu yerga kechqurun kelishiga shubha qilmasdi. U Dizmani kutadi va albatta yuzma-yuz uchrashadi.

Man'ka kechqurun yana banka yoniga keldi.

Soat o'n bo'ldi, o'n bir... Man'ka asabiylashib, ko'chaning narigi betida u yoqdan-bu yoqqa yura boshladi. Pag'a-pag'a qor yog'moqda edi. Agar fonar' ostiga turib, yuqori qaralsa, qor zarrachalari qoramtir bo'lib ko'rinadi. Ikki marta o'tkinchi erkaklar uni gapga solmoqchi bo'lishdi. Bir yigit ancha puldor ko'rindi, biroq Man'ka uning taklifiga javoban bosh chayqab qo'ya qoldi.

U, Nikodim bugun kelmasa-ya, deya bezovta bo'la boshladi.

Lekin Man'ka baribir kutadi! Kutadi dedimi, kutadi!.. Erkaklar o'zi shunaqa bo'lishadi: ko'zdan yo'qoldimi - unutishadi qo'yishadi.

Malla Vladek ham axiyri Zosyaning oldiga qaytib keldi-ku...

Man'ka shu yo'sinda goh Marshalkovskaya, goh qarshi tomonga qarab, chidam bilan kutib turaverdi. Birdan darvozaning sharaqlab ochilgani uning diqqatini bankaga jalb etdi. U yerdan bashang kiyingan bir xonim bilan Nikodim chiqib keldi. Ular nimadandir kulishardi.

Mai'ka o'zini devor panasiga oldi. Ular ko'chani kesib o'tishdi. Trotuar g'oyat tor bo'lib, ular yonidan o'tib ketishayotganida Man'ka qo'lini cho'zsa, bemalol yetardi. Shundoq yonginasidan Dizmaning tovushi eshitildi:

- Agar istasang, jonginam Ninochka, men...

Uning keyingi so'zlarini ko'chadan o'tayotgan taksining gudogi bosib ketdi. Man'ka Nikodim haligi xonimning qo'ltig'idan olganini ko'rib qoldi.

- Hali shunaqami! - dedi Man'ka va xayolga cho'mdi.

So'ng ularning ortidan yurdi.

U raqibasi borligidan ajablanmadi. Nikodim xotinsiz turolmaydi, albatta. Biroq Man'kani bu xonimning go'zalligi cho'chitib qo'ydi.

"Nikodim uni sevadi... Sevishi aniq... Lekin nega bo'lmasam, deya uning dilida umid uchqunlandi yana, - kecha tunda u mehmonxonada boshqa xotin bilan bo'ldi?.."

Bu yerda qandaydir sir bor edi. Agar shu narsa bo'lmaganida Man'ka hozir ularga yetib olib, Nikodim meniki, men uni sevaman, deya o'sha xonimning betiga baqirgan bo'lardi.

"U oldimga qaytib keladi, albatta qaytadi. Unga, kutaverib, ko'zlarim to'rt bo'lgani, hamma dugonalarimning jazmani borligi, garchi eng yaxshi yigitlar osilishgan bo'lsa-da, mening hech kimim yo'qligini aytaman... Qaytishi kerak".

Nikodim Ninani uyigacha kuzatib qo'ydi-da orqasiga qaytdi. Yo'l-yo'lakay u butun Liskovda xotinlarning ko'nglini olishga mohirligi bilan nom chiqargan Yurchak, faqat qora soch ayollargina serehtiros bo'ladi, deb bekor aytgan ekan, deya o'ylab keldi. Nogahon kimdir uni chaqirib qoldi.

Nikodim o'girilib qaradi. Uning qarshisida Man'ka turardi.

- Nikodim, - deya ohista shivirladi qiz.

- E, senmisan? - to'ng'illadi Dizma ta'bi xira bo'lganini yashirmay.

- Meni unutmadingmi?

- Senga nima kerak?

Man'ka nima deyishini ham bilmay, baqrayib unga qarab turardi.

- Xo'sh nima deysan! - deya so'radi Dizma jahli chiqib.

- Hali meni shunday kutib olyapsanmi! Seiga nima yomonlik qildim, Nikodim?

- Yomonlik ham qilganing yo'q, yaxshilik ham! Boshimni ko'p qotirma. Ayt, nima kerak senga?

Man'ka indamay turaverdi.

- Gapirsang-chi, jin ursin seni!

Man'ka hamon indamasdi.

Dizma bir so'kinib qo'ydi-da, ketmoqchi bo'ldi. Biroq qiz uning yengidan tutib qoldi.

- Qo'yvor!

- Qo'yvormayman! Sen gapimni eshitishing kerak.

- Bo'lmasa gapirgin-da, jin ursin seni! Xo'sh nima gaping bor?

- Seni qanchalik qo'msaganimni bilmasang ham kerak, Nikodim. Mening hatto o'ynashim yo'q. Nuqul seni kutdim... Seni qidirdim, meni unutmagandir, qaytib kelar axir, deb o'yladim.

Nikodim yelkasini qisdi.

- Oramizda eslaydigan, unutadigan nima bor ekan o'zi?

- Qaytib kelaman deganding-ku axir.

- Aytsam nima qilibdi. Nima, sen bilan nikohdan o'tibmanmi?

- Bilasanmi... men seni sevaman.

Dizma xaxolab kulib yubordi.

- Anavini gapini-ya! Sen har kechasi bironta erkakni sevasan.

- Sen buni yuzimga solma! O'zimga qolsa shunday bo'lishni istarmidim? Ochlik majbur qildi. Jirkanmaydi, deb o'ylaysanmi.

- Bo'пти, bo'пти, faqat yol'g'on gapirma.

- Rost aytyapman. Mening boshimga tushgan kun hech kimning boshiga tushmasin. Itga ham ravo ko'rmayman uni!

- Xo'sh, bu bilan meni nima ishim bor?

- Yonimga qaytib kel!

- Hojati yo'q.

- Biznikida tekinga yashayverasan. Sening uchun o'zim pul to'layman.

Dizma piqillab kulib yubordi. Man'ka unga bezovtalanib qarab qo'ydi.

- Nega kulyapsan?

- Ahmoq ekansan, shuning uchun kulyapman. Bu bo'lmag'ur gapni miyangdan chiqarib tashla.

- Nega unday deyapsan? Nahot endi senga yoqmay qolgan bo'lsam?

- Yaxshilikcha borib, ishingni qil, Man'ka.

- O'shanda, qaytaman, degan eding-ku.

- Tupurdim o'sha gapga! Tushundingmi? Endi men uylanyapman, duch kelgan fohishaning boshimni qotirishiga yo'l qo'ymayman.

Endi men boshqacha ayollar bilan gaplashyapman.

- Hozir men ko'rgan ayolga uylanmoqchimisan?

- Ungami, boshqasigami - birovning ishiga tumshug'ingni suqma.

- Bilaman, o'shanga uylanmoqchisan. - Mai'kaning tovushi nafrat bilan jarangladi.

- Bu bilan sening nima ishing bor?

- Chunki seni yaxshi ko'raman! - deya qichqirdi Man'ka alam bilan.

- Sekinroq, muncha baqirasan! Sevsang sevaver, menga nima! Bo'пти, bor endi, sen bilan gaplashishga vaqtim yo'q.

Qiz yana uning yengidan tutdi.

- Yana bir minut sabr qil.

- Xo'sh?

- Yur, mehmonxonaga boramiz...

U hamon Nikodimni o'ziga og'dirib, raqibasidan chalg'itishga umid qilar edi. Dizma uni itarib yubordi.

- Yo'qol.

- Nikodim!..

Man'kaning ko'zlari jiqqa yoshga to'ldi.

- Yig'lashga balo bormi! Vaqtim yo'q, dedim-ku senga. Mabodo istagan taqdirimda ham bugun borolmayman.

- Nega endi?

- Ishim bor.

- Shunday degin! - Man'ka bosh irg'adi. Uning qiyofasi jiddiylashdi. Ha, albatta, bankani o'marishning o'zi bo'lmaydi - buni qiz tan oladi. Bunday ish oldida Man'ka kim bo'пти.

- Unda boshqa gal, - deya rozi bo'ldi Man'ka, - boshqa gal borasan, xo'pmi...

- Ehtimol, borarman. Xo'p xayr.

Dizma ketmoqchi bo'lgan edi, biroq Man'ka unga yopishib oldi.

- Nikodim, meni o'pmay ketaverasanmi?

- He, jin ursin! Jonga tegding-da o'ziyam!

U engashib qizning yuziga labini tekkizdi. Biroq Man'ka bundai ko'ngli to'lmay, Dizmaning bo'ynidan quchdi-da, uning lablaridan o'pdi.

Qizning do'rdoq lablari sovuqdan muzdekkina edi.

- Bo'ldi, bo'ldi, - deya uni o'zidan chetlatdi Nikodim.

- Qayt! Oldimga qayt! - shivirladi Man'ka.

- Obbo, juda yopishib olding-ku! Ehtimol, keyin qaytarman. Xayr.

Man'ka iidamay bosh irg'adi.

U Nikodimnang ortidan uzoq tikilib turdi. Dizma muyulishdan o'tib, ko'zdan g'oyib bo'lgach, Man'ka ro'molining uchi bilan ko'zini artdi-da, boshqa tomonga ravona bo'ldi..

Nikodimning g'oyat jahli chiqqan edi. Bu Man'ka qayoqdan paydo bo'ldi o'zi... Dizma uni allaqachon unutgan edi... Umuman, qizning unga tirg'ilishga nima haqi bor?! To'g'ri - yaxshi ko'radi... Aslida o'zi yomon qiz emas... Ammo bu uning ortidan ilakishib yurishi mumkin degan gap emas-ku...

"Hali, meni sharmanda qilib qo'yiyi mumkin yoki Ninaga biror narsa deb valdirasa-ya? E, jin ursin!"

Nikodim, qiz yana tirg'iladigan bo'lsa, ikkinchi oldiga kelmaydigan qilib ta'zirini berishga jazm etdi.

Qvartirani Nina surtgan atir-upaning hidi tutib ketgan edi. Nikodim yechinib, o'zini to'shakka tashlamoqchi bo'ldi-yu, biroq ertaga ertalab Kshepitskiyning Koborovoga jo'nashini va o'zi unga ba'zi qog'ozlarni to'g'rilab berishi lozimligini esladi. Nikodim yarim soatcha shu ish bilan ovora bo'lib o'tirdi; u hujjatlarni hozirlab, endi o'rmidan turgan ham ediki, telefon jiringlab qoldi.

Vareda qo'ng'iroq qilmoqda edi. Barcha ulfatlar yig'ilishib, barda o'tirishganmish, shu boisdan. Nikodimni ham chaqirishga qaror qilishibdi.

- Nina kelgandan beri, - deya shikoyat qila boshladi polkovnik, - butunlay qorangni ko'rsatmay qo'yding. Albatta kel.

Biroq Dizma charchagani va uyqusi kelayotganini bahona qilib, ularning oldiga borishdan bosh tortdi.

Nikodim umuman pivoxonalarni yoqtirmasdi. Ba'zi-ba'zida ichishning zarari yo'q, ammo pivohonada soatlab o'tirib, g'irt mast bo'lgunga qadar ichish - yo'q, bunaqasi unga to'g'ri kelmaydi. Agar ilgari Dizma Vareda, Ulyanitskiy va ularning do'stlari bilan ichishgan bo'lsa, tanish bilish orttirish uchungina shunday qalgan. Endi esa u faqat Koborovoda tinchgina yashashni orzu qilardi. Ninaning avvaligi nikohini bekor qilish masalasi hal bo'lay deb qolgandi. Kunitskiy birovning familiyasini o'zlashtirib olgani masalani yanada osonlashtirmoqda edi. Qolganini pul bilan bir yoqli qilsa bo'lardi. Nikodimning esa endi puldan kamchilign yo'q edi.

Kunlar ketidan kunlar bir maromda o'tib borardi.

Dizma Kshepitskiyning yo'qligini har qadamda his etardi.

Garchi Nikodim bankani boshqarishni uncha-muncha o'rganib, u yoki bu ish yuzasidan qanday yo'l tutish lozimligini bilib olgan bo'lsa-da, ba'zan u hal qila olmaydigan masalalar ham uchrab qolmoqda edi. Shunaqa paytlarda bod kasali uning joniga ora kirardi.

Shu ehtiyot choralariga qaramay u bir nechta xatoga yo'l qo'ygan edi, ammo buni oshiq raisning parishonxayoliligiga yo'yishdi.

Bo'lajak to'y ancha mish-mishlarga sabab bo'lgandi. Bu gaplarni har kuni pan raisning qayliqlari kvartirasiga savat-savat gul olib boradigan Ignatij topib kelardi.

Nina Nikodimnikiga haftada bir necha bor kelib ketardi.

Bundan mutlaqo bexabar pani Pshelenskaya barchaga Ninaning kundan-kun kayfiyati yaxshilanib, husni ochilayotganini shodlanib hikoya qilardi.

- Sevish va sevilish, jonginam, - derdi Ninaga xolasi, - bu ayol kishi uchun eng yaxshi kosmetika. Sen shundoq ko'z o'ngimizda gul-gul ochilib ketyapsan.

Nina Nikodimga bu gapni kula-kula aytib berdi.

U erini deyarli eslamay qo'ygandi. Darvoqe, cholni eslashga uning vaqti ham yo'q edi. Kiborlar hayoti uni o'z girdobiga tortgandi.

Nina u yerda katta obro' qozongandi. Yoshu qari erkaklar unga biri olib, biri qo'yib xushomad qilishardi, har bir salonda uni darhol muxlislar qurshab olishardi.

Muxlislar orasida bir odam Dizmani tashvishga solib qo'ydi.

Nikodimni bu odamning yurish-turishlaridan ko'ra ham Ninaniig unga munosabati ko'proq bezovta qila boshladi. Nina uni boshqalardan afzal ko'rib, u bilan ko'proq tansa tushar, uzoq-uzoq suhbatlashardi.

Qirqlarga kirgan, baland bo'yli, xushqomat, malla sochlari oftobda oqargan bu odamning qayoqdan paydo bo'lgani noma'lum edi.

U yer kurrasining deyarli hamma burchaklariga borib kelgan bo'lib, Avstraliya, Peru va Grelandiya haqida, go'yo Konstantin yoki Milyanuv to'g'risida so'z yuritgandek, bemalol gapiraverardi. Uning ismi sharifi Xell', Oskaya-Xell' edi. O'zining aytishicha, u Rossiyada tug'ilgan ekan; Dizma Oksford universitetida o'qiganini eshitgach, Xell' uni kasbdosh deb atay boshladi. Uning o'zi Kembridjga o'qigan ekan. U o'nga yaqin tilni yaxshi bilgani kabi, polyak tilida ham bemalol gaplashaverardi. Undan millatini so'rashgan paytlarda Xell', o'zim ham bilmayman, degandek yoqimtoylik bilan yelkasini qisardi.

Ninada u birinchi uchrashuvdayoq kuchli taassurot qoldirgandi. Juvon bu odamga bo'lgan moyilligini yashirmasdi ham. Nikodim buni darhol payqadi, albatta,

Ahvolki juda ham tahlikali deb bo'lmasdi, biroq Dizma kundan kun ko'proq tashvishlana boshladi. Boz ustiga uning yonida har qanday mushkul ishning ham chorasini topishga usta bo'lgan Kshepitskiy yo'q edi. Nikodim Kshepitskiyga xat yozib yubordi, biroq undan hali javob kelmagandi.

Bu orada Oskar Xell' Varshavada o'rnashib oldi. U qisqa vaqt ichida barcha bilan tanishib chiqdi va bironta ham bal, yig'in, tansa kechasini kanda qilmay qatnashib yurdi. Xell' biror ish bilan shug'ullanmasa-da, pulga zoriqmas va shu boisdan ham badavlat odam, kuyov qilsa arziydigan kishi sifatida nom chiqardi. Pol'shaga uni to'ng'iz oviga taklif qilib, graf Pomyalovskiy olib kelgan

edi. Grafning o'zi Xell' haqida biror aniq gap aytolmasdi, chunki u bilan Kanar orollariga ekskursiyaga ketayotgan paytida, Italiya paroxodi palubasida tanishgan edi.

Nikodim Ninani bu muttahaarning ta'siridan qutqarish uchun butun ustomonligini ishga soldi. Biroq oralariga sovuqlik tushishidan cho'chib, masalani ko'ndalang qo'yishga jur'at etmasdi.

Agar Xell' bir kuni Nina bilan suhbatda Kasya Kunitskayaning nomini tilga olmaganida, ehtimol, bu ahvol anchaga cho'zilib ketgan bo'lardi.

Xell' Kasya bilan Davos, Kann va Jenevada uchrashgan bo'lib, uni yaxshi tanir ekan. Ular hatto ba'zi-ba'zida bir-birlariga xat ham yozisharkan, chunki ikkovi ham telepatiyaga qiziqib, kuzatuvlari haqida xabarlashib turishar ekan.

Nina buni eshitib, hayajonlanib ketdi. U nihoyat o'zi juda yaxshn ko'radigan Kasya to'g'risida xabar topgan edi. Buning ustiga Kasya bilan uni birga o'tkazgan kunlari haqidagi xotiralar bog'lab turardi.

Nina Nikodim bilan uchrashgan zahoti unga shu haqda aytdi:

- Buni qara-ya, pan Xell' Kasyani yaxshi bilar ekan! Kasya bilan chet elda uchrashgan bo'lib, ular hatto bir-birlariga hat ham yozishib turisharkan! Bechora Kasya! Yolg'iz o'zi... Unga achinaman.
- Balki, o'sha Xell' yolg'on gapirayotgandir?
- Nikus! Uyalmaysanmi shunday deyishga! - dedi zardasi qaynab Nina. - Oskar haqiqiy jentl'men!

Bu suhbat Dizmaga qattiq ta'sir qildi. U darhol biror chora ko'rishga jazm etdi. Avval Vareda bilan maslahatlashib olmoq lozim edi. U polkovnikka qo'ng'iroq qilib kechqurun restoranda birga ovqatlanishga kelishib oldi.

Bir qadahdan aroq ichishgach, Nikodim maqsadga ko'chdi:

- Bilasanmi, Vatsus'.. Sen anovi Xellni taniysan-a?
- Taniyman. Quvnoq yigit.
- Quvnoqmi, quvnoq emasmi, bu bilan ishim yo'q, lekin bilasanmi, u mening jig'imga tegib yuribdi.
- Qanday qilib?
- Qaylig'imni tortib olyapti.
- Tumshug'iga sol, agar g'idi-bidi deydigan bo'lsa bir juft pistolet olib, masalani hal qil-qo'y.
- Duelga chaqir demoqchimisani? - deya basharasini bujmaytirdi Dizma.
- Albatta! Men senga aytsam, Nikus' bunaqa paytda cho'zib o'tirmaslik kerak: paq-paq, gap tamom.
- Bilasanmi... Muhimi bu emas. Gap xotin kishi haqida ketyapti. Agar men uni yarador qilsam, Nina unga ko'proq talpina boshlaydi.
- Xo'sh, nima qilmoqchisan bo'lmasa?

Dizma iyagini qashib qo'ydi.

- Balki, uni qamoqqa olish mumkindir... Kimligi, qayoqdan kelgani noma'lum-ku axir...
- Hm... Ochig'ini aytsam, buning uchun hech qanday asos yo'q.
- Ehtimol, u josusdir? - dedi taraddudlanib Dizma.
- Nega endi josus bo'larkan?
- Balki josusdir, balki josus emasdir. Hech kim, hech nima bilmaydi. Lekin shuncha pulni qayoqdan olyapti u? Nimaning evaziga bunday yallo qilib yuribdi?
- Hm...
- Muttaham. Chet el fuqarosi...
- Ha, uning hujjatlarini tekshirib ko'rish mumkin, albatta, - dedi xayolga cho'mib Vareda. - Hatto bexosdan borib, mehmonxonadagi nomerini tintib ham ko'rish mumkin. Biroq hujjatlari joyida bo'lib chiqsa, xijolatpazlik bo'ladi. Yo'q, unday qilish mumkin emas.

Vareda yana bir qadah aroq ichdi-da, birdan stolni shapatiladi.

- Yo'li bor. Men senga aytsam - qoyilmaqom yo'l...
- Xo'sh?
- Gap Xellni qamatish haqida emas, balki uni uzoqlashtirish haqida ketyapti, shunday emasmi?
- Uzoqlashtirish deganing nimasi?
- Ninadan uzoqlashtirishni aytyapman-da.
- Ha, albatta.
- Ana shuning yo'li bor. Uni qamoqqa olishadi, nomerini tintib, bu haqda gazetada xabar bosishadi-da, so'ng kechirim so'rab, qo'yib yuborishadi.
- Bundan nima foyda?
- "Nima foyda" deysanmi? Tushunmayapsanmi?
- Yo'q.
- Buni tushunish juda oson-ku. Nima, Nina josuslikda shubha qiling'an odamga iltifot ko'rsatadi, deb o'ylayapsanmi?

Dizma bir oz o'ylanib turgach, dedi:

- Iltifot ko'rsatmasa kerak.
- Bu gapdan so'ng, umuman, uni jamiyatda qabul qilisharmikin?.. Ha, oshna, bunaqa g'avg'odan so'ng u lash-lushini ko'tarib jo'nab qolishga majbur bo'ladi.
- Hm... Lekin... u bu gaplarning hammasi anglashilmovchilik ekanligini tushuntirib qo'yishi mumkin, - deya gap qotdi Nikodim.
- Bizga esa, - dedi e'tiroz bildirib Vareda, - uning juda ayyor ekanligi va hujjatlarni o'z vaqtida yoqib yubortanligini shama qilishimiz. mumkin.

Dizma polkovnikning fikriga qo'shilishga majbur bo'ldi. Reja tayyor edi. Vareda ishni paysalga solib o'tirmay shtabning ikkinchi bo'limi boshlig'i polkovnik Yarsga qo'ng'iroq qildi.

Ertasiga kechqurun ular endi uchovlon uchrashishdi. Nikodim polkovnikka sirni oshkor qilgisi kelmaganidan Dizma bilan Vareda Yarsga barcha tafsilotlarni aytib o'tirishmadi. U ham surishtirmadi. Yars uchun rais Dizma Pol'shada hech qanday mavqega ega bo'lmagan bir chet ellikni josus deb hisoblab, uning obro'sini to'kmoqchi ekanligining o'zi kifoya edi... Buning ustiga restorandagi ziyofat ham juda zo'r bo'lgan edi. Ular ertaga azondan harakat qilishga kelishishdi.

Ertasiga Dizma xuddi oyog'i kuygan tovuqday bir yerda o'tirolmadi. U kunduzi gazetlar chiqqan-chiqmaganligini bilib kelish



uchun Ignatiyni minut sayin pastga tushirardi.

Nihoyat, xizmatkor uch dona gazeta ko'tarib keldi.

Dizma ularni shosha-pisha ko'zdan kechira boshladi. Ikki gazetada Xell' to'g'risida hech nima yozilmagan edi. Ammo uchinchisining sahifasida "Yangi josuslar tashkiloti izidan. Hashamatli mehmonxonada kiborlar jamiyatiga mansub josus qo'lga tushdi" degan sarlavha ostida yo'g'on harflar bilan terilgan xabar bosilgan edi.

Ilgari kelishib olinganiga muvofiq xabarda Xellning familiyasi to'la ko'rsatilmagan edi. Unda qandaydir janob "X" haqida so'z yuritilgandi. Biroq faktlar shunday bayon etilgandiki, Xellni taiydigan odamlarning birontasida ham gap u to'g'risida ketayotganiga shubha qolmasdi.

Dizma xursandligidan qo'llarini bir-biriga ishqaladi.

U ko'ngli joyiga tushib, xizmatga doir qog'ozlarni ko'zdan kechirdi-da, imzo chekish lozim bo'lgan hujjatlarni keltirishni buyurib, sekretar' ayolga tegishib ham qo'ydi. So'ng ta'zimlarga jilmayib javob qilganicha bo'limlarni aylanib chiqdi va, nihoyat, xatlarni o'qishga o'tirdi. Ular orasida Kshepitskiyning xati ham bor ekan. Kshepitskiy quyidagilarni yozgan edi:

"Hurmatli pan rais!

Bu yerda hamma ish joyida. Na oppozitsiya bor, na sabotaj. Ishlarni bir oz tushunib qoldim. Sizni tabriklayman. Koborovoni oltin kon desa bo'ladi. Bir oydan so'ng men bu yerda har bir tosh, har bir butoqni bilib olaman. Bu yerda sizdan juda qo'rqishar ekan! Hatto bankada ham sizdan bunchalik hayiqishmaydi. Ikki marta Grodnoda - moliya boshqarmasida bo'ldim. Rabinovich donasiga 700 zlotiydan beryapti. 30 dona buzoq olmoqchi, lekin haqini Belostokdagi Kugel' bankasi hisobida bo'lgan "Natan Gol'der va KB o'" firmasi veksellar bilan to'layman, deyapti. Bitimni rasmiylashtirishga rozi bo'lsangiz, telegraf orqali xabar qilishingizni so'rayman. Kasperskiyning aytishiga ko'ra, bu veksellarga ishonsa bo'larmish.

Siz xatingizda tilga olgan Xellni tanimayman, u haqida hech nima eshitmaganman. Menimcha, bezovta bo'lishga asos bo'lmasa kerak. Lekin ehtiyotkorlik hech qachon halal bergan emas. Shu boisdan ham, yaxshisi, Ninaga, Xellning tanosil kasalligi bor ekan, deb ayting. Shundan so'ng qaylig'ingiz unga iltifot ko'rsatishdan cho'chib qoladi.

Ikki marta Jorj Ponimirskiyning pavil'onida bo'ldim. U qattiq betob ekan. Doktorning aytishicha, zotiljam bo'lganmish. Isitmasi juda baland, meni mutlaqo tanimadi, nuqul alahlaydi. O'lib qolmasa deb qo'rqaman. Kunitskiyning asfalasofilinga ketganini eshitgach, xursandligidan pal'tosini kiymay parkka yugurib chiqqan ekan. Parkda u yoqdan-bu yoqqa yugurib, allanimalar deb qichqiribdi. Bechoraga rahmim keladi!"

Keyin Kshepitskiy daromad va xarajatlar haqida hisobot berib, Nikodimdan shpal sotish masalasini bir yoqli qilishni so'ragan va tezda bir-ikki kunga Varshavaga kelajagini xabar qilgan edi.

Nikodim xursand edi. U mashinistkaga telegramma tekstini yozdirib, Kshepitskiyning o'zi ishonar ekan, veksellarni olaverishni buyurdi. So'ng Pshelenskayaga telefon qilib, peshinda unikiga borib ovqatlanajagini aytib qo'ydi.

Pshelenskayanikida Dizma bekaning o'zi va Ninadan tashqari Nikodim ilgari uchratgan, lekin hozir familiyalarini unutib qo'ygan ikki yigit bilan Mariyetta Charskayaga duch keldi.

Nikodim odatdagi salom-alikdan so'ng so'radi:

- Qamoqqa olish haqidagi gapni eshitdingizmi?

- Qanaqa qamoq?

- Bilmaymiz.

- Kimni qamoqqa olishibdi?

- Hozirgi zamonda hech kimga ishonib bo'lmaydi, - dedi bosh chayqab Dizma. - Bo'lmasam durustgina odamga o'xshab ko'ringan edi-ya!

- Kimni atyapsiz? - so'radi ortiq chidayolmay Pshelenskaya.

- Kimni bo'lardi? Anovi Oskar Xellni-da.

- Kimni dedingiz? - deya qayta so'radi bezovtlanib Nina.

- Xellni, - takrorladi Dizma uning yuziga tikilib.

- Bo'lishi mumkin emas! Oskarni-ya?!

Dizma shoshilmay cho'ntagidan gazetani oldi-da, qizil qalam bilan chizib qo'yilgan joyni ko'rsatib, uni Pshelenskayaga uzatdi.

Xonim xabarni tovush chiqarib o'qib chiqdi. So'ng xo'rsinib xitob qildi:

- Buni qarang-a! Yo parvardigor!

Nina gazetani olib, haligi joyga ko'z yugurtirdi. Uning juda ruhi tushib ketgan edi.

- Endi hech kimga ishonib bo'lmaydi! - dedi ibratomuz ohangda Pshelenskaya.

- Qanday qabohat! - dedi ichidan xo'rsinib Nina. - Odamlarning bari razil, qayoqqa qarama qabohatni ko'rsan!

- Judayam olib qochmaslik kerak, - deya vazminlik bilan e'tiroz bildirdi Dizma.

Shundan so'ng Xell haqida suhbat boshlanib, deyarli hammasi uning xatti-harakatlari ilgari ham shubhali tuyulganini gapira ketishdi.

Nina ularning' gapiga quloq solmay qo'ygandi. U faqat bu foni dunyoning jaholatga ko'milganlig'i va o'zining hamma yoqdan berilishi mumkin bo'lgan zarbalar oldida qanchalik ojiz ekanligini o'ylab azob chekardi. So'ngra u Dizmaga tikilib qaray boshladi. Sochlari xiyol jingalak, yuzi to'rt burchak, burni bir oz puchuq, og'zi kichkina, pastki jag'i yaxlit Nikodim ancha novcha ko'rinardi. U odatda qadamini keng tashlab, chayqalib yurardi.

"Bunday qaraganda, oddiy odam, - deya o'ylardi Nina, - biroq ana shu qiyofa zamirida cheksiz kuch, ko'z ilg'amas qudrat yashiringan. U bu kuch-qudratni qachon va qayerda sarflashni juda yaxshi biladi. Nik... mening Nikodimim..."

Atrofidagi odamlarni suhbatiga jilmayib quloq solayotgan bu odam, unga bir zum begona bo'lyb ko'ringan bu davlat arbobi, bu ulug' iqtisodchi aslida o'zining Nikodimi ekanligini o'ylab Nina hatto hayratta tushdi; ha, Nikodim uning qallig'i, ko'p o'tmay eri bo'ladi... Uning taqdiri shu odamning qo'lida bo'ladi, uni o'z qanoti ostiga olib, ofatlardan muhofaza etadi... Nikodim bu vazifani hammadan yaxshi bajaradi. U sahrodagi ehromga o'xshaydi, uni hech qanday to'fon ag'dara olmaydi... Xell' ham chinakam erkak edi, biroq...

U Xellni o'ylamaslikka urindi.

Xizmatkor ovqat tayyor ekanligini xabar qildi. Dasturxon ustida ular u yoq-bu yoqdan gaplashib o'tirishdi. Ovqatdan so'ng Dizma bilan yolg'iz qolgach, Nina uning qulog'iga shivirladi.

- Sevaman, juda sevaman.

Nikodim uning qo'lini o'pdi.

- Nik... Bugun senikiga boramizmi?
- O'zing shuni istaysanmi? - deya so'radi quvlik bilan Dizma.

Nina labini tishlab, unga ko'zini suzib qaradi-da, shivirladi:

- Judayam, judayam, judayam...

Uning rangi oqara boshladi, Nikodim buning sababini yaxshi bilardi.

- Uch kundan beri birga bo'lganimiz yo'q.
- Yaxshi, - bosh iring'adi Nikodim, ichida esa: "U-ho', ish zo'r bo'ladiganga o'xshaydi-ku!" - deb qo'ydi.

Ular soat sakkizlarga yaqin uydan chiqishdi. Nina xolasiga, operaga boramiz, deb aytdi-da, so'ng Nikodimga kula-kula nima uchun xuddi operani tanlaganini tushuntirdi - bugun "Afrikalik ayol" qo'yilayotgan bo'lib, u yarim kechadan oshganida tugardi.

- Ninochkang juda ayyor-a, to'g'rimi?

- Xo-xo!..

Nikodim darvozaxonada Ninaning qadam tovushi tingunicha kutib turdi-da, so'ng cho'ntagidan soatini chiqarib qaradi. Soat o'n ikkidan oshgan edi. U uyga qaytishga jazm qildi.

Bankaga yigirma qadamcha qolganida u Man'kani ko'rib qoldi. Qiz, chamasi uni kutayotgan bo'lsa kerak, fonar' ustuniga suyanib turardi.

Nikodim qovog'ini soldi. U Man'kani ko'rmagan kishi bo'lib o'tib ketmoqchi edi, qiz uning yo'lini to'sdi.

- Xo'sh, nima kerak senga? - deya to'ng'illadi Dizma.

- Nikodim...

- Nima kerak, deya pman?!

- Nikodim... Jahling chiqmasin... Sensiz yashayolmayman.

- Aravangni tortsang-chi! Tupurdim senga! Qo'p tirg'ilaverma, moxag'ar. Naq tumshug'ingga solaman!

Man'ka unga qo'rquvdan javdirab qaradi.

- Nega endi, Nikodim? Senga nima yomonlik qildim?

- Jonimga tegding.

- Seni sevaman axir, o'zing va'da qilgan eding...

- Tupurdim o'sha va'daga, bildingmi?! Sengayam tupurdim! U yog'ini so'rasang fohisha, yana yopishishiga balo bormi! La'nati!

- Nikodim!

- Yo'qol, moxag'ar!

Shunday deya Dizma Man'kani itarib yuborgan edi, qiz gandaraklab, iflos qorga niqildi.

Qiz o'rnidai turmadi. U banka tomon yo'l olgan Nikodimning ortidan indamay qarab turardi.

- Hali shunaqami?!

Man'ka sovuqdan qotib qolgan qo'llari bilan yuzini yopib, ho'ng-ho'ng yig'lay boshladi.

- Fohisha... moxag'ar... lan'ati dedi-ya...

So'ng u o'rnidan sakrab turdi-da, Dizmaning ortidan musht o'qtaldi.

- Hali qarab tur!

Shunday deya Man'ka pal'tosidagi qorni qoqib tashlab, Marshalkovskaya tomon yugurib ketdi.

- Ko'rasan hali, qarab tur!.. Meniki bo'lmas ekansan, unga ham nasib qilmaysan. Endi ko'rasan mendan!

Uning a'zoyi badanini intiqom tuyg'usi qamrab olgandi.

Eshik oldida turgan politsiyachi undan, senga nima kerak, deb so'raganida Man'ka sira ham ikkilanib o'tirmadi.

- Bir nusxaning jinoyati to'g'risida xabar qilmoqchiman.

- Xabar qilmoqchiman deysanmi? Mayli, navbatchining oldiga bor. Huv anovi eshikdan kirasan.

O'rtasidan panjara bilan ajratilgan kenggina xonaga kirgach, Man'ka stol yonida o'tirgan amaldor oldiga yugurib bordi.

- Nima gap? - deb so'radi navbatchi. U yozishda davom etarkan, boshini ko'tarib Man'kaga qaramadi ham.

- Bir nusxaning jinoyati to'g'risida xabar qilmoqchiman.

- Xo'sh? - pinagini buzmay to'ng'illadi navbatchi.

- U may oyidayoq bir juhudni gumdon qilgan edi. Anchagina pul o'margandi. O'shanda pulni o'zi menga maqtanib ko'rsatgan edi.

Endi Vspul'nayadagi bankani urmoqchi.

Politsiyachi qo'lidagi qalamni bir chetga qo'yib, Man'kaga durustroq qaradi.

- Banka deysanmi?.. Kim ekan u?

- Dizma. Nikodim Dizma.

- Buni qayoqdan bilasan?

- Bilaman-da.

- Oting nima?

- Man'ka Bartik.

- Qayerda turasan?

- Lutskaya ko'chasi, o'ttiz olti.

- Nima ish qilasan?

- Ko'cha qiziman, - deya javob qildi Man'ka bir oz ikkilanib turgach.

- Nega uni chaqyapsan!

- Bu yog'i mening ishim.

Politsiyachi uning familiyasi bilan adresini yozib oldi.

- Vspul'nayadagi bankani urib ketmoqchi deysanmi?

- Ha.

Politsiyachi telefon trubkasini olib nomerni aytdi.

- Bunaqa ishda hazil qilib bo'lmasligini bilasanmi? Agar yolg'on gapirgan bo'lsang, seni qamashadi.

- Bilaman.

Politsiyachi Man'kaga diqqat bilan tikildi. Qiz lablari qimtib, xotirjam qarab turardi. Shu boisdan u qizning yolg'on

gapirmayotganiga ishonch hosil qildi.

- O'sha Dizmang hozir qayerda?

- Bankada.

- Nima?!

- Uning bankaga kirib ketayotganini o'z ko'zim bilan ko'rdim. Darbon uni ichkariga kiritib yubordi.

- Pan komissar uydamlar?.. Iltimos, uyg'oting. Muhim ish bor. Navbatchi Kasparskiy gapiryapti.

Tezda trubkani komissar oldi. Politsiyachi unga Man'kaning gapini xabar qildi.

- Qizni tutib turing, - deya buyurdi komissar. - Hozir borib, uni o'zim so'roq qilaman.

Navbatchi trubkani joyiga qo'ydi-da, Man'kaga devor oldidagi skameykani ko'rsatdi. - Kutib tur.

- Yaxshi.

Man'ka skameykaga o'tirdi. Hali qarab tursin, ko'rsatib qo'yadi unga!

Bu orada Nikodim o'rnida cho'zilib, gazeta o'qib yotardi. Telefon jiringlab qoldi.

Nikodim so'kinib qo'ydi-da, o'rnidan turmaslikka ahd qildi. Biroq telefon tinmay jiringlayverdi.

- Kim ekan, jin urgur?!

Dizma karavotdan sakrab turdi-da shippagini ham kiymay kabinetga o'tib, qorong'ida stulga qoqilib ketdi.

- Allo!

- Pan rais Dizma bilan gaplashsam bo'ladimi?

- Bu menman. Kimsiz o'zingiz?..

- Komissar Yaskul'skiyman.. Salomatmisiz, pan rais. ...

- Salom. Xo'sh, nima gap?

- Bevaqt bezovta qilganim uchun meni kechirasiz, pan rais. Muhim ish chiqib qoldi.

- Qulog'im sizda....

- Komissariatga Bartik familiyasi bir fohisha murojaat qildi. Uning aytishicha, siz g'alla bankasini o'marib ketmoqchi emishsiz.

- Nima?

Komissar kulib yubordi.

- Telbaga o'xshamaydi, gapida qattiq turib olyapti. Siz uni taniysizmi?

- Yo'g'-e, nimalar deyaapsiz

- Tushunarli... Uni tutib turishni buyurdim. Avvaliga mast deb o'yladim, yo'q, mast emas ekan. U sizning raisligingizni bilmas ekan. Buni unga aytdim, biroq u gapini qaytib olmadi. Negadir sizdan xafaga o'xshaydi... Siz chindan ham bir vaqtlar Lutskeya ko'chasida istiqomat qilganmisiz?

- Xudo saqlasin! U yerda xech kachon turgan emasman.

- O'zim ham shundaydir deb o'ylovdim, - deya uning gapini ilib ketdi komissar. - Siz kulyapsizu, lekin uning aytishicha, may oyida allaqanday yahudiyni o'ldirib, pulini olgan emishsiz. U hatto siz unga o'g'irlik iulni ko'rsatgan mehmonxonani ham aytdi.

- Nima balo, miyasini yeb qo'yibdimi!

- Men ham shuni aytyapman-da, pan rais. Uni nima qilishni bilmay qoldim.

- Quvib yuboring.

- U gapida qattiq turib olib, protokol yozishni talab qilyapti. Agar ishga rasman yondashilsa, men uning iltimosini qondirishim kerak.

- Nima keragi bor? - deya shoshilib e'tiroz bildirdi Dizma. - Protokol yozishning hojati yo'q.

- Tushunaman, pan rais. Protokol yozib, keyin soxta guvohlik bergani uchun javobgarlikka tortish mumkin.

- Hojati bormikin?

- Uch oycha o'tirib chiqadi.

- Keragi yo'q. Unga ayting - xohlagan tomoniga ketsin.

- Rozi bo'lmaydi. Juda qaysar ekan, la'nati!

- Hammasi sizning qanday maslahat berishingizga bog'liq.

- Tushunmadim, pan rais.

- Siz politsiyachilarning o'z usullaringiz bor-ku axir...

- E-ha! - deya javob qildi komissar. - Hammasini to'g'rilaymiz, pan rais. Salomat bo'ling! Bezovta qilganim uchun yana bir bor kechirasiz.

- Hechqisi yo'q! Sizdan g'oyat minnatdorman. O'rni kelib qolganda sizni unutmayman, komissar.

Komissar tilyog'lamalik bilan minnatdorchilik izhor qila boshladi. So'ng trubkani joyiga qo'yib, ko'ng'iroq tugmasini bosdi.

Eshikda politsiyachi paydo bo'ldi.

- Uni bu yoqqa olib kir!

- Ana ko'rdingmi, gaplaringni hammasi g'irt yolg'on ekan. Seni qamaymiz.

Komissar qizning javobini kutdi, biroq Man'ka indamay turaverdi.

- Senga achinaman. Hali yosh ekansan. Yaxshilikcha aytyapman, guvohligingni qaytarib ol.

- Qaytarib olmayman, - sira tap tortmay javob qildi Man'ka. - Mayli, qamalsam kamala qolay.

Komissar o'rnidan sapchib turib, stolni mushtlaganicha qichqirdi:

- Ha, lan'ati! Qaytarib olasan! Men qaytarib olasan dedimmi, demak, qaytarib olasan.

Qomissar g'azabi qaynab, xonada u yoqdan bu yoqqa yura boshladi. So'ng Man'kaning oldiga kelib to'xtadi.

- Xo'sh? Qaytarib olasanmi?

- Yo'q, - javob qildi Man'ka labini tishlab

- Valyasek, - deya politsiyachini chaqirdi komissar, - uni orqa xonaga olib boringlarda, nufuzli chinovniklar ustidan soxta guvohlik berishning qanaqa bo'lishini tushuntirib qo'yinglar.

- Xo'p bo'ladi, pan komissar.

Politsiyachi qizning qo'ltig'idan tutib, koridorga olib chiqdi.

U uzoq, juda uzoq surgalib yurdi. Quyosh allaqachon ko'tarilgan bo'lib, ko'chalar borgan sayin gavjumlashmoqda edi. Man'ka qoqila-suqila gandaraklab borardi. Yo'lovchilar uning ortidan qarab qolishardi.. Yoshi o'tib qolgan qandaydir xonim nafrat bilan

dedi:

- Tuf-e! Behayo! Ichib olganini qarang-a!. Man'ka indamay ketaverdi.

18-bob

Jiddiylik va bashanglik, yaxshi did va nafosat - bu fazilatlarining bari advokatning hasham bilan jihozlangan kabinetida mujassamlashgan edi. Kabinet soqoli to'rt burchak qilib qaychilangan, sochiga oq oralagan, qo'ydi-chiqdi ishlarining piri sifatida nom chiqargan, shahar munitsipal kengashi a'zosi, hazrati oliylari kamergerining xususiyatlarini xuddi ko'zguday yorqin aks ettirib turardi.

Yozuv stoli yonida xo'jayinning qarshisida o'tirgan Nikodim uning har bir so'ziga diqqat bilan quloq solmoqda edi. Kabinet egasi esa tinmay gapirardi. Uning xotirjam va ohista gaplari tinchgina oqayotgan daryoni eslatardi.

Advokatning tepasida keng zarhal romda rim papasining katta portreti osig'liq turardi.

Advokat stol tortmasini ochib, qandaydir papkani oldi-da, bir zum ham gapirishdan to'xtamay, undan pergamentga yozilgan to'rt buklog'lik hujjat chiqardi.

Hujjatga shohi tizimcha bilan ikki dona katta-katta mum muhr osib qo'yilgandi. Advokat ulardan birini ixlos bilan o'pdi-da, hujjatni Dizmaga uzatdi.

Hujjat lotin tilidan yozilgan edi, ammo shunga qaramay Dizma unda nimalar yozilganini yaxshi bilardi.

Bu Ninaning nikohi bekor qilingani to'g'risidagi guvoynoma edi.

Endi qog'oz qo'lga tekkach, Dizma bu ishlar o'ziga ancha qimmatga tushgani to'g'risida o'ylanib qoldi.

"Qiziq, advokat eidi qancha so'rarkin?" deya xayolidan o'tkazdi u.

Advokat go'yo uning savoliga javob berganidek, papkadan bir varaq qog'oz oldi-da, tilla suvi yugurtirilgan qalam bilan allaqanday raqamlarni yozib, dedi:

- Mening gonorarim to'rt ming ikki yuz zlotiy.

Dizma hatto o'tirgan joyida sapchib tushdi.

- Qancha dedingiz?

- To'rt ming ikki yuz zlotiy, pan rais.

- Hazillashyapsiz chog'i?! Men nari borsa ikki ming zlotiy bo'lsa kerak, deb o'ylovdim!..

- Pan rais, mening odatda oladigan gonorarimni to'lashingiz va bundan tashqari, qo'shimcha xarajatlarni qoplashingiz sharti bilangina bu ishga qo'l urishimni sizga boshidayoq aytib qo'ygan edim.

- Ammo to'rt ming zlotiy juda ko'plik qiladi! Jami bo'lib bu ish menga oltmish mingga tushyapti axir!

- Bir narsani unutmang, pan rais, boshqa bironta ham advokat bu sharoitda nikohni bekor qildirsa olmagan bo'lardi. Men guvohlarning qo'shimcha ma'lumoti uchun ancha pul sarflashga majbur bo'ldim.

- Lekin u guvohlar allaqachon o'lib ketgan-ku!

Advokat ensasi qotib iljaydi.

- Bu gapingiz to'g'ri. Lekin marhumlarning guvohligi tiriklikidan arzonroq turadi deb o'ylaysizmi?..

Nikodim gapini tushundi.

- Demak? - deya so'radi u.

- Demak, - dedi gapni ilib advokat, - shundan boshqa chora yo'q edi.

Nikodim cho'ntagidan bir dasta pul oldi-da, kerakli aqchani sanab berib, o'rnidan turdi.

Mijozini dahlizga qadar kuzatib chiqqan advokat unga yana qanday rasmiyatchiliklarni bajarib, grajdanlik holati kitobiga qanday o'zgarishlar kiritish lozimligi haqida uzoq gapirdi-da, so'ng sipolik bilan ta'zim qilib xayrlashdi.

Advokatning uyidan chiqqach, Nikodim to'g'ri Ninaning oldiga ravona bo'ldi.

Uning dimog'i chog' edi. So'nggi kunlarda uning ishlari juda yurishib ketgandi. Man'ka ko'cha-ko'yda ko'rinmay qolgandi. Dizma avvaliga, la'nati qiz yana politsiya yoki prokurorga borib chaqmasa go'rga edi, deya bezovta bo'lib yurdi. Ammo, baxtiga Man'ka damidan tushib qolganga o'xshaydi.

Endi Nikodimning qo'lida Ninaga uylanib, Varshavadan jo'nab ketishga imkon beradigan hujjat bor edi.

Bugun ertalab u telegramma oldi: unda Kshepitskiy shaharga kelishini xabar qilgan edi. Hozir Kshepitskiy Nikodim uchun juda zarur edi, chunki chorshanba kuni Ministrlar Soveti qoshidagi iqtisodiy komitetning majlisi bo'lishi kerak edi. Kun tartibiga muhim bir masala qo'yilgan bo'lib, majlisda moliya ministri g'alla zapasini chet elga sotishni talab qilmoqchi edi. Nikodim ham majlisda so'zga chiqib, yo o'sha talabni qo'llab-quvvatlashi yoki uni rad etishi lozim edi. Ammo qanday yo'l tutishni o'zi bilmasdi. Shu boisdan ham Kshepitskiyning kelishi unga juda qo'l kelardi.

So'nggi paytlarda Nikodim gazetalar bahslashayotgan u yoki bu masala xususida o'z fikrini aytishga jur'at eta boshlagan edi.

Odatda u o'ziga to'g'ri bo'lib ko'ringan fikrlarga qo'shilardi-da, so'ng o'ni o'ziniki qilib ko'rsatardi. Biroq endi bo'lajak ish mutlaqo sir tutilishi lozim edi.

Pani Pshelenskaya xonadoni notinch edi. Bekaning yuzi ko'pchib ketgandi, Ninaning rangi esa oppoq edi.

- Nima gap? - so'radi ajablanib Nikodim.

- Eh, pan rais, - bidirlyay ketdi Pshelenskaya, - uni qarangki Xellni qamoqdan chiqarib yuborishibdi.

- Uni anglashilmovchilik sababli qamashgan ekan, - deya shoshilib qo'shimcha qildi Nina. - Undan kechirim so'rashibdi. Sira aybi yo'q ekan.

Dizma hurpayib, qovog'ini soldi.

- Yuragim tars yorilib ketadi deb o'ylovdim, - deya davom etdi qo'llarini silkitib pani Pshelenskaya. - Tavba, yarim soat burun menga Yanek Karchevskiy qo'ng'iroq qildi. Uni taniysiz, tennischi. Xell' Karchevskiyga telefon qilib, bu anglashilmovchilik oqibati ekanini, bu haqda bizga, Charskiylarga va, umuman, hammaga aytib qo'yishni so'rabdi. Bu ham yetmaganday, u Yanekka biznikiga kelib, ahvolni shaxsan tushuntirib qo'ymoqchi ekanini ham aytibdi. Bunisiga nima deysiz?! Nima qilishni bilmay qoldim... Shunday odamni qabul qilish mumkinmikin? Axir u josuslikda ayblanib, qamalib chiqqan-ku!

- Ha, lekin aybnoma yolg'on bo'lib chiqdi-ku, - hayiqibgina e'tiroz bildirdi Nina.

- Nima qilsak ekan?! Pan rais, siz nima deysiz? Bu ish haqida biron narsa eshitgandirsiz axir?

Nikodim o'zini jiddiy qilib ko'rsatishga urindi.

- Menda aniq ma'lumot bor. Xellni barcha dalillarni o'z vaqtida yo'qotib yuborgani uchungina qo'yib yuborishyapti.



- Nimalar deyaapsiz, pan rais!

- Ha, ha. Menga bu gapni shtabdagi ikkinchi bo'limning boshlig'i aytdi. Xell' bol'shevik josuslari to'dasining boshlig'i ekan. Uni uzoq kuzatishibdi. Mehmonxonadagi nomerini tintishganida uning aybini isbotlovchi hujjatlar o'rnida bir hovuch kul topishibdi. Shundan so'ng undan kechirim so'rab, xo'jako'rsinga qamoqdan chiqarib yuborishga to'g'ri kelibdi. Keyin uni butunlay qo'lga olisharmish. Ikkinchi bo'limning boshlig'i menga va davlat sirlaridan voqif bo'lgan boshqa kishilarga maxsus qo'ng'iroq qilib, o'sha nusxadan ehtiyot bo'lish kerakligini tayinladi.

- Unday bo'lsa qamma gap ravshan, - dedi Pshelenskaya.

Nina indamay o'tirardi.

Birdan qo'ng'iroq chalinib qoldi. Pshelenskaya shosha-pisha o'rnidan turib, har ehtimolga qarshi dahlizdan mehmonxonaga o'tadigan eshikni yopib qo'ydi.

Shu payt xizmatkor kirib:

- Pan Oskar Xell' keldi, - deb xabar qildi.

Shunda Pshelenskaya dahlizda ham eshitilishi uchun baland ovoz bilan dona-dona qilib dedi:

- Unga bizning uyda yo'qligimizni aytib qo'y. Bunday janoblar uchun biz hech qachon uyda bo'lmaymiz.

Eshikning taraqlab yopilgani eshitildi.

- Odamlar qanday yovuz bo'lishadi-ya! - dedi xo'rsinib Nina.

Nikodim servantdagi qaqir-quqirlarni tomosha qilayotgan kishi bo'lib, teskari qaradi. Servant oynasida u o'zining iljayib turgai basharasini ko'rib, yanada battarroq tirjaydi.

Kshepitskiy moliya ministrining mashinkada olti varaq qog'ozga yozilgan taklifini diqqat bilan o'qib chiqib, Pol'sha va chet el g'alla birjalari byulletenlarini ko'zdan kechirdi-da, yelkasini qisdi.

- Hm... Bu gaplar haqida o'zingiz qanday fikrdasiz, pan rais?

Nikodim peshanasini tirishtirdi.

- Qanday fikrdasiz, deysizmi?... Hm. Menimcha, bu eng yaxshi chora bo'lmasa kerak.

- Eng yomon chora bu. Bu o'zini o'zi o'ldirish bilan barobar. Hozirgi sharoitda g'allani chetga solish! Bu ishda biz o'ttiz protsentdan qirq irotsentgacha zarar ko'rishimiz avvaldan ma'lum-ku axir! Bu g'irt telbalik! Nihoyat, shuncha g'allani xorijiy bozorga chiqarib sotish - uning narxini tushirish degan gap. Demak, bizda ham g'allaning bahosi tushib ketadi. Buyam mayli-ya! Shundan so'ng g'alla obligatsiyalari sariq chaqagayam arzimay qoladi.

Nikodim bosh irg'adi.

- Men ham kecha Yashunskiyga xuddi shu gapii aytdim. Unga, bu taklifga qat'iy qarshi chiqaman, dedim.

- To'g'ri qilibsiz. Siz mutlaqo haqsiz, pan rais.

- Lekin men sizning fikringizni bilmoqchi edim. Fikrimiz bir joydan chiqqanidan xursandman. Bo'пти, Kshepitskiy, mashinistkani chaqiring-da, o'sha loyihaga nisbatan e'tirozlarimizni yozdiring. Ularning bir adabini berib qo'yay!

Ikki soatdan so'ng qog'oz tayyor bo'ldi. Iqtisodiy komitetning majlisi soat yettiga belgilangan bo'lib, Dizma bilan Kshepitskiyning ixtiyorida hali bir soat vaqt bor edi. Ular Koborovo ishlari, Nikodimning to'yi haqida gaplashib o'tirishdi.

Nikodim hammasidan ham to'ydan so'ng Jorj Ponimirskiyi nima qilishini o'ylab, garang edi. U Nina akasini pavil'ondan uyga ko'chirib o'tkazishni albatta talab qilishini yaxshi bilardi.

Juvon bu haqda unga bir necha bor aytgan edi. Aslida, Dizma bunga qarshi emasdi: Jorj Tvorki ga jo'natadigan darajada emasdi, albatta. Biroq Nikodim uning Oksford masalasida valdirab qo'yishidan cho'chirdi.

Turgan gap, u o'z hadigini Kshepitskiyga aytmedi. Sekretar' esa, o'z navbatida, Ninaning iltimosini inobatga olish lozim, deb hisoblardi. Agar Jorj chidab bo'lmaydigan darajaga yetsa, keyinchalik uni bironta sanatoriyga joylashtirish mumkin. Ular shunga kelishishdi. Kshepitskiy Dizmani Ministrlar Sovetiga o'lib borib qo'ydi-da, o'zi Pshelenskayanikiga jo'nadi.

Uzun stol yoniga kelib o'tirgach, Nikodim raislik joyiga o'rtnashib olgan bosh mnistrnga nutqini boshlab yuborgan moliya ministri va boshqa arkoni davlatlarga zimdan ko'z yugurtirib chiqdi. Chetdagi kichkina stol yonida ikki stenografist ayol o'tirardi.

Moliya ministri qisqacha qilib o'z taklifini asoslab berdi. Uning aytishicha, byudjetdagi defitsitni faqat zapasdagi g'allani sotish yo'li bilangina qoplash mumkin ekai. Bu orada xalqaro ahvol yaxshilanib, chet davlatlardan qarz olish imkoniyati tug'ilishi mumkin emish. Nutqining oxirida ministr ma'lumoti bo'yicha filolog bo'lib, iqtisodiy hayotnn faqat so'nggi yillarda orttirgan tajribasi tufayligina tushunajagini aytdi. Ministrlk kreslosiga uni majbur qilib o'tkazishgan ekan. Lekin u qo'g'irchoq ministr bo'lishni istamas emish va shu boisdan, agar taklifini rad etishsa, darhol iste'foga chiqarmish.

Shundan so'ng bosh ministr so'zga chiqib, moliya ministriai uning xizmatlari g'oyat yuqori baholanishiga va taklifi albatta qabul qilinajagiga ishontirdi.

Hamma tomondan ma'qullagan ovozlari eshitildi.

Majlis paytida barcha ministrlar dam-badam Dizmaga qarab qo'yishardi. Biroq Nikodim indamay o'tiraverdi. Undan biror ajoyib gap chiqishshsh kutib o'tirgan majlis ahli yanglishmadi. Bosh ministr jilmayganicha undan o'z fikrini aytishni iltimos qilgan edi, Nikodim o'rnidan turib gapini boshladi:

- Meni kechirasizlar, gapga chechan emasman. Qisqacha qilib aytaman. Bu yerda so'z biz haqimizda emas - davlatimiz farovonligi to'g'risida ketyapti, safsata sotib o'tirishga vaqt yo'q. Bu yerda aytilgan gaplarning bari sariq chaqaga ham arzimaydi. Men o'z deklaratsiyamni o'qib beraman.

Shunday deb u Kshepitskiy tayyorlab bergan tekstni olib, o'qishga tushdi.

Zal bir zum harakatga keldi. Nikodim tekstni o'qib bo'lgan zahoti moliya ministri o'rnidan sapchib turib, qo'llarini g'azab bilan silkitganicha norozilik bildira boshladi.

G'ala-g'ovur ko'tarilib, majlisda ishtirok etayotgan kishilar bir-birlari bilan bahslasha ketishdi. Biroq bosh ministr asta-sekin ularni tinchitishga muvaffaq bo'ldi. Shundan so'ng odatdagi munozara boshlandi.

Yashunskiy Dizmaga qarab zarda bilan dedi:

- Nega bugun to'ningizni bunday teskari kiyib oldingiz? Axir o'tgan kuni menga o'zingiz bu taklifga qarshi emasligingizni aytgan edingiz-ku.

Dizma qizarib ketdi.

- Hecham shunday deganim yo'q!

- Ehtimol, shu yaxshi chora bo'lib chiqar degandingiz.

- Yolg'on.

- Yo'q, men emas, siz yolg'on gapiryapsiz! - dedi qizishib Yashunskiy. - Balki, o'shanda boshqacharoq iboralar qo'llagandirsiz, biroq har holda bu loyihaga qarshi emasdingiz.

- Nahot tushunmasangiz, kasbdosh, - dedi istehzo bilan moliya ministri. - Pan Dizma bizni g'aflatda qoldirish uchungina shunday qilgan.

Nikodim o'rnidan turdi.

- Mening ortiq gapiradigan gapim yo'q. Aytishim lozim bo'lgan gapni aytib bo'ldim. Siz esa, janoblar, qanday istasangiz, shunday yo'l tutaveringlar.

Ministrlarning taklifi qabul qilindi.

- Menga baribir, - dedi Nikodim o'sha kuni kechqurun Dshepitskiyga, ular Pshelenskayanikidan birga qaytishar ekan, - baribir iste'foga chiqaman.

- Bankaga achinadi odam!

Dizma yelkasini qisdi.

- Sizning rejangiz va mehnatingiz samarasi edi u!

- He, jin ursin hammasini!

- Ertaga rosa g'ala-g'ovur ko'tariladigan bo'ldi-da.

- Qanaqa g'ala-g'ovur?

- Matbuotni aytyapman-da. Axir bu g'irt tentaklik-ku. Ko'pgina gazetalar siz tomoningizni olishsa kerak.

- Olishsa olishar, menga nima?

- To'g'ri, foydasi, yo'q, ammo ertaga... Pan rais, menda bir fikr tug'ilib qoldi.

- Xo'sh?

- Ertaga iste'foga chiqish to'g'risida ariza berishingiz uchun ajoyib imkoniyat tug'ildi.

- Hojati bormikin? Men to'ydandan oldin ariza bermoqchiydim. Bir necha ming zlotiyni yo'qotishdan nima foyda?

- Agar o'rningizga darhol odam topisha olganida gapingiz to'g'ri bo'lardi. Ular sizdek bir odamga darrov javob berib yuborishni istamaydi, albatta. Bu masala anchaga cho'ziladi. Ma'naviy jihatdan yutishingiz turgan gap.

- Xo'sh, men nima qilishim kerak?

- Buni amalga oshirish juda oson. Siz sababini ko'rsatmay iste'foga chiqayotganingizni aytasiz. Shunda g'alla bankasini nobud qilayotgan hukumatning qarori uchun javobgarlikni zimmangizga olishni istamasligingiz hammaga ayon bo'ladi.

- To'g'ri!

- Ana ko'rdingizmi, pan rais. Jamoatchilik fikri siz tomonda bo'ladi.

Nikodim kulib, Kshepitskiyning yelkasiga qoqib qo'ydi.

- Juda quvsiz-da, Kshepitskiy!

- Doim xizmatigingizga hozirman, pan rais.

## 19-bob

Kshepitskiyning bashorati to'g'ri chiqdi. Ertasiga ertalab ko'pgina gazetalarda ba'zi bir dudmol gaplar aytilib, iqtisodiy komitetning qarori haqida rasmiy xabar bosildi. Oppozitsiya matbuoti darhol bu qarorni qattiq tanqid ostiga oldi.

O'sha kuni Nikodim bu voqeaning naqadar muhimligini ta'kidlash uchun yoniga Kshepitskiyni olib, bosh ministr huzuriga bordi va iste'foga chiqish to'g'risida ariza topshirdi.

Bosh ministr arizani o'qib chiqqach, dovdirab qoldi. U Dizmadan vaziyatni keskinlashtirmay, arizasini qaytarib olishni iltimos qila boshladi. Biroq Nikodim o'z gapida qattiq turib, qarori qat'iy ekanligini aytdi. U o'rniga odam tayinlanguniga qadar vazifasini ado etib turishga rozi bo'ldi-yu, ammo bosh ministrga ahddidan sira ham qaytmasligini aytib, ogohlantirib qo'ydi.

Ministrlar Soveti saroyidagi chiqayotganda Kshepitskiy tomonidan pan raisning iste'foga chiqish haqida ogohlantirilgan uchta gazetaning reportyori Nikodimni bir necha marta rasmga oldi.

Bu voqea soat birlarga yaqin sodir bo'ldi, soat ikkida esa bankaga ministr Yashunskiy keldi. U g'oyat xafa bo'lib, qo'llari qaltirab turardi. U har gapda:

- Xudo haqqi, o'tinaman, bu ishni qilmang, - deb takrorlardi.

Yashunskiy bu ishning vatanparvarlikka xilof ekanligi, uning iste'foga chiqishi sanoat va qishloq xo'jaligi doiralarida sarosima tug'dirishi; siyosiy xarakterga ega bo'lgan keskinlik yuzaga kelishi, kabinetning mavqeiga putur yetishi mumkinligini aytib, ming xil bahona, dalil-isbot keltirdi. Nihoyat, ministr do'stligini o'rtaga solib, o'zi ya'ni Yashunskiy va uning xodimlarini halokatdan qutqarib qolishni iltimos qila boshladi.

Dizma unga javob berishga ulgurmasdanoq, moliya ministri kelganini xabar qilishdi. Moliya ministridan so'ng deputat Levandovski, keyin polkoviik Vareda, so'ngra Ulyanitskiy, rais Xirshman, knyaz' Rostotskiylar kelishdi. Shu payt telefon jiringlab qoldi: Dizmadan soat beshda Qasrga yetib kelishni iltimos qilishdi.

Nikodimni hatto iqtisodiy komitetning qarorni bekor qilib bo'lsa ham, iste'foga chiqish haqidagi ahddidan qaytarish uchun barcha safarbar qilingan edi. Biroq Dizma:

- Hech qachon ahddimdan qaytgan emasman, - deya o'z gapida qattiq turib oldi.

Qabulxonada muxbirlar to'planishgan edi. Dizma bir minutga ularning oldiga chiqdi.

- Gap nimadalgini bilmoqchimisizlar? Bo'lmasam, bilib qo'yinglar: men iste'foga chiqyapman.

- Nima sababga ko'ra, pan rais?

- Ma'lum sababga ko'ra. Aytishim mumkin bo'lgan gap shu.

- Qaroringiz qat'iymi?

- Qat'iy bo'lganda qandoq.

Dizma muxbirlar bilan bosh irg'ab xayrlashdi-da, chiqib ketdi.

- Metin odam-da, - dedi muxbirlardan biri.

- Judaya-ya-yam dono siyosatchi! - qo'shimcha qildi boshqasi. - Nima qilishni juda yaxshi biladi u.

Ertalabki gazetalar shov-shuvga sabab bo'ladigan sarlavhalar bilan chiqdi. Siyosiy doiralarda to's-to'polon ko'tarildi. Moliya ministrining ishdan ketish va hatto butun kabinetning iste'foga chiqishi to'g'risida mish-mishlar tarqaldi. Kshepitskiy bashorat

qilganidek, barcha rais Dizmaning iste'foga chiqishiga iqtisodiy komitetning qarori sabab bo'ldi, deb hisoblardi. Allaqayerdan uning deklaratsiyasini qidirib topib gazetada e'lon qilishgan edi, u jamoatchilikda kuchli taassurot qoldirdi. Ayrim gazetalarni hisobga olmaganda, barcha gazetarlar Dizmaning tarafini olib, uning bilimi, aqli va qattiqqo'lligini ko'klarga ko'tarib maqtay boshlashdi. Ular Nikodimning sirkda aytgan gapini ham eslab, tarjimai holi va fotosuratlarini bosib chiqarishdi. Suratlar tagiga taxminan shunday so'zlar yozilgan edi:

"Mamlakatni iqtisodiy krizisda qutqarib qolgan mashhur iqtisodchi Nikodim Dizma iste'foga chiqish to'g'risida ariza berganidan so'ng shaxsiy sekretari pan Kshepitskiy hamrohligida Ministrlar Soveti saroyini tark etayapti. Bu arizani kabinetning o'z ildiziga bolta urish siyosatiga qarshn atoqli davlat arbobining noroziligi deb tushunmoq lozim".

Hatto yaqin kunlarda Dizmaga qarshi bo'lib yurgan oppozitsion gazetarlar ham endi uni og'iz ko'pirtirib maqtashar va hukumatga hujum qilish uchun uning nomidan foydalanishar edi.

Nina barcha gazetalarni o'qib chiqdi. Uning yuziga qon tepib, hayajondan nafasi tomog'iga tiqildi. Yo parvardigor! Axir bu uning Nikodimi-ku! U qanday buyuk odam-a! Nina shu vaqtga qadar uning naqadar ulug'ligini tushuna olmagani uchun o'zidan xafa edi. U qallig'i bilan faxrlana boshladi.

Nikodimdan bankadagi ishingni tashla, deb o'zi iltimos qilgan edi. U Dizmani faqat o'zi uchun yashashini istardi. Biroq endi Nina davlat, sevimli Vatan shunday o'tkir odamdan ajrab katta zarar ko'rishini anglagach, qallig'idan iste'foga chiqish haqidagi arizasini qaytarib olishini iltimos qilmoqchi bo'ldi.

Nina dahlizga yugurib chiqdi. U bu og'ir damda Nikodimni Vatan taqdirini o'ylab chuqur xayolga cho'mgan, qalbidagi muhabbat va burch o'rtnasidagi kurashdan toliqqan, ulkan javobgarlikdan qaddi bukilgan davlat arbobi qiyofasida ko'raman, deb o'ylagan edi. Biroq u Dizmaning quvnoq basharasini ko'rib, og'zi ochilib qoldi. Shunda Nina, u meni xafa qilmaslik uchungina qayg'usini tabassum bilan niqoblayapti, deb o'yladi.

U Nikodimni yuz-ko'zidan o'pib, o'z xonasiga boshlab kirdi. So'ng, o'zi nimadan yuz o'girayotganini yaxshi tushunsa ham, Vatan manfaati shuni taqozo etar ekan, Koborovodan voz kechib, Varshavaga ko'chib o'tishga rozi ekanligini aytdi. Ehtimol, biron yildan so'ng Nikodimning o'rniga bironta boshqa odam topilar, ana o'shanda...

- Endi gapirishga hojat yo'q, - deya uning so'zini bo'ldi Nikodim, - men Qasrga borgandim, u yerda iste'foga chiqishimga rozi bo'lishdi.

- Lekin shunga qaramay, sen ishingda qolsang, ularning boshi osmong'a yetadi.

- Bo'lmasam-chi.

- Mamlakatimiz uchun ham yaxshi bo'ladi.

- Turgan gap.

- Demak.

- Siyosatda hech nima tushunmas ekansan, Ninochka. Men to'g'ri yo'l tutdim. Buning ustiga seni juda sevaman, sen bilan Koborovoda yashashni istayman. Buning uchun mendan xafa bo'lmasanmi?

Nina Nikodimning bo'ynidan quchdi.

- Jonginam, azizim, unday bo'lsa...

Shu payt eshik tiqillab qoldi.

Xonaga Pshelenskaya kirib keldi. U zavq-shavq bilan tinmay bidirladi. Xolasi gapining oxirida hayajon bilan dedi:

- Jonginam, Ninusya, senga shunday odam uchrab qolganidai qanday baxtiyor ekanligingni hatto o'zing ham bilmasang kerak!

Ular bo'lajak to'yni muhokama qila boshlashdi.

Nina Koborovo qavmining kichkinagina ibodatxonasida nikohdan o'tib, so'ngra bahorni Jazoir yoki Misrda o'tkazsak, deb aytdi.

Pani Pshelenskaya Ninaning keyingi niyatini ma'qulladi-yu, ammo avvadisiga qat'iy qarshi chiqdi: - Ninusya, to'yni yashiriqcha o'tkazish bo'lmag'ur gap. Hatto undan ham battar. Bu odobsizlik!

- Nima qilay, xolajon? Rahmatlik dadamlar, ayollarni yetmish protsenti odob degan narsani bilmaydi, deguchi edilar. Men ham oddiy bir ayolman-da.

- Pan rais sening bu niyatingni ma'qullamasalar kerak deb o'ylayman.. Bunday qilish mumkin emas axir! Senning to'yingni Varshavada dabdaba bilan o'tkazishimiz lozim. Sening do'stlaring ham, pan raisning do'stlari ham ishtirok qilishlari kerak bu to'yda. Mon Dleul! Kimsan, grafinya Ponimirskeya atoqli davlat arbobiga turmushga chiqyapti axir! Buning nimasini yashirasan? Agar sizlar boshqacha yo'l tutadigan bo'lsanglar, men kuyib, kasal bo'lib qolishim mumkin. Pan rais, o'zingiz aytning axir...

Nikodim pastki labini cho'chchaytirib, qoshlarini chimirdi.

- O'zim ham o'ylab qoldim: nega endi to'yni Varshavada o'tkazmasligimiz kerak ekan?

- Ofarin, ofarin, - dedi boshi osmonga yetib Pshelenskaya, - mana bu dono odamning gapi! Ko'rdingmi, Ninusya, pan rais mening tarafimni olishlarini avvaldan bilardim. Biz katta bazm uyushtiramiz... Sen qallig'ingning oddiy odam emasligini unutmashing kerak, Ninochka...

- Endi u oddiy odam, - deya gap qotdi Nina.

- Endi, endi! Endi deganing nimasi? Varshavada hamma, ko'z ochib-yumguncha u ministr qilib tayinlansa kerak, deb gapiryapti!

- Qayoqda, - deya qo'l siltadi Dizma, - juda oshirib yubordingiz. Lekin pani Pshelenskaya to'g'ri aytyaptilar: bazm uyushtirish kerak, albatta.

Nina itoatgo'ylik bilan rozi bo'ldi. Nik shuni istar ekan, demak hozir aytgisi kelmay turgan biror sabab bo'lsa kerak. Nina ichimdagini top deyidigan bu odamning qalbidagini tushunib yetishga, uning qanchalik teranligini anglashga ortiq urinmay qo'ygandi. U ayollik tuyg'usi bilan bu odamning irodasi mustahkam ekanligini his etardi xolos.

- Sayohat masalasiga kelsak, - deya gap boshladi yana Nikodim, - menimcha, hech qayerga bormaganimiz ma'qul.

Nikodim peshanasini tirishtirganicha qo'lini qo'lga ishqay boshladi. U chet tillarni bilmasligi darhol ayon bo'lib qolishini o'ylab biror xorijiy mamlakatga borishdan o'lgudek qo'rqardi. Axir u yerda esida qolgan yigirmaga yaqin nemis so'zlari bilan biror ish qilib bo'lmasdi-da.

- Chamasi, siz pulni chet elga borib sarflash vatanparvarlikka to'g'ri kelmaydi, deb o'ylasangiz kerak-da? - dedi xushomad bilan Pshelenskaya. - Lekin ko'pchilik shunday qiladi-ku.

- Ana shundan xafaman-da! Juda bo'lmag'ur ish bu! "Xorijga ketgan har bir tiyin pul - Vatan hamyoniga zarardir butkul", - deya takrorladi Nikodim yaqinda bir plakatda o'qigan shiorini. - G'oyat bo'lmag'ur ish bu!

- Ammo sizning Vatan oldida xizmatlaringiz katta-ku axir!

- Xuddi shuning uchun ham men boshqalarga ibrat ko'rsatmog'im lozim. Biz o'z mamlakatimizda ham sayohat qilaverishimiz mumkin.

- To'g'ri aytasan, Nik. Chet elni o'ylab bekor qilgan ekanman. Biz Zakopane, Krinitza, Beskidiga borishimiz mumkin. Shu payt ostonada xizmatkor paydo bo'ldi-da, Ninaga murojaat qilib dedi:

- Panna janobi oliyalari, sizni qandaydir pani so'rayapti.

- Meni-ya? Kim ekan u?

- Kimligini aytmadi. Sizni mehmonxonada kutyapti.

- Kechirasizlar, - dedi Nina. - Chiqib qaray-chi, kim ekan.

U yemakxona va buduarni kesib o'tib, mehmonxonada eshigini ochdi-yu, qichqirib yubordi: uning ro'parasida Kasya turardi.

Kaltagina po'stin va mo'yna qalpoq kiyib, labiga papiros qistirgan Kasya negadir yubka kiyib olgan yigitchaga o'xshardi.

- Salom, Nina, - degan tanish ovoz eshitildi. Ninaning yuziga qon tepdi. U nima qilarini bilmay qolgan edi. Kasyaning kelishi uni sarosimaga solib qo'ygandi; ayol ko'nglining bir chetida xursand ham edi. U o'zini ham, atrofdagilarni ham barcha gaplarni unutganiga ishonirib yurgan edi, biroq endi hammasi yodida ekanligi ma'lum bo'lib qoldi. Axir bunday narsani unutib bo'larmishmi?

- Men bilan so'rashging kelmayaptimi? - Kasya bir necha qadam olg'a yurib, Ninaning yoniga kelib to'xtadi. - Ehtimol, kelganimdan xafadirsan?

Nina hushiga keldi.

- Yo'q Kasya, sirayam xafa emasman... Aksincha, juda xursandman.

Kasya uning qo'lidan tutib, ohista o'ziga tortdi.

- Yo'q, sen bilan bunday so'rasha olmayman. Shunday deya u Ninaning bo'ynidan quchib, labidan qattiq o'pdi.

Bu hodisa shu qadar kutilmaganda sodir bo'ldiki, Nina shoshib qoldi. U faqat bir minutlardan so'ng Kasyaping quchog'idan chiqib, ta'naomuz shivirladi:

- Kasya!..

Kasya uning ko'ziga tikilganicha sekin dedi:

- Kechirasan. Lablaring o'sha paytdagidan ham totliroq bo'lib ketibdi... Xo'sh, o'tir ham demaysan?

- Kasya!

Nina unga kreslo surib berdi-da, so'ng o'zi ham o'tirdi.

Kasya po'stinining cho'ntagidan katta oltin portsigar chiqarib, yana papiros tutatdi va indamay Niiaga razm sola boshladi.

- Ko'p chekadigan bo'lib qolibsana, - dedi Nina.

- Qayoqdan kelganimni bilishni istamaysanmi?

- Adresimni senga Koborovoda berishdimi?

- Yo'q, sen haqingda menga Oskar Xell' yozgan edi. Sen uni taniysan shekilli?

- Bechora.

- Nega bechora bo'lar ekan? Bilishimcha, u juda badavlat va o'z turmushidan xursand-ku, - deya ajablendi Kasya.

- Bilmadim, eshitganmikin... Bu yerda u josuslikda ayblanib, qamoqqa olingan edi.

Kasya yelkasini qisib qo'ydi.

- Ehtimol. Bu bilan mening ishim yo'q. Sening haqingda ba'zi narsalarni xabar qilgani uchun undan minnatdorman, xolos... Sen anovi qari ablah bilan ajralishyapsanmi?

- Kasya, nahot sen o'z otang haqida shunday gapirsang?

- Bu gapni qo'y. Demak, ajralishyapsan?

- Ha. To'g'rirog'i, ajralishib bo'ldim. Bizning nikohimiz bekor deb topildi.

- Juda oqilona ish qilibsana. Xellning yozishicha, muhtaram dadamiz Koborovoni senga qoldirib ketibdi. Buni sira tushunolmay qoldim. Nechuk bu maxluq bunchalik olijanoblik qilibdi? Lekin gap bunda emas. Men seni olib ketgani keldim. Buning senga nafi tegadi. Hozir Sitsiliyada ayni bahor.

Nina jilmaydi.

Nina jilmaydi.

- Yo'q, Kasya, borolmayman...

- Bu yerning ob-havosni kishini ezib yuboradi, u yerniki esa odamning jonini kiritadi.

- Bir oydan so'ng to'yim bo'ladi, - dedi ohista Nina.

Kasya o'rnidan sapchib turib, palirosini kuldonda ezg'iladi.

- Ha-ha, demak, bu gap rost ekan-da.

Nina indamadi.

- Eh, bechora cho'rilar, kishansiz, jilovsiz turolmaydigai bo'lib qolibsizlar. Sen o'sha Dizmag'a tegyapsanmi?

- Men uni sevaman.

- Jin ursin, - dedi toqati toq bo'lib Kasya qo'lqopini g'ijimlar ekan. - Nina, Nina! - dedi u so'ngra yolvorib. - Sen bunday qilmasliging kerak! Menga nima bo'layotganini sira tushunasanmi? Nina? Nahotki meni sira ham sevmasang?! O'ylab ko'r. axir!.

- Meni qiynama, Kasya, seni qanday yaxshi ko'rishimni o'zing bilasan. Lekin senga aytib qo'yay... senga ochig'ini aytib qo'yishni o'z burchim deb hisoblayman... Men unga ham, o'zingga ham sen bilan ortiq birga bo'lmaslikka so'z berganman...

- Nina, o'tinaman, to'yni kechiktir, menga rahm qil!.. Yarim yilga, hech bo'lmasa uch oyga kechiktir to'yni... Ehtimol, shunda bu ishing xatoligini o'zing ham tushunib qolarsan! Nina, iltijo qilaman sendan, balki u senga munosib emasligini payqarsan... To'yni bir oz kechiktirsang, bas - sendan yagona iltimosim shu!..

Nina jilmayib, bosh chayqadi.

- Yanglishyapsan, unga men munosib emasman. Sen uni yaxshi bilmaysan; darvoqe sen chet elda yashading, uning mamlakatimiz, jamiyatimiz oldidagi ulkan xizmatlaridan xabaring yo'q. Uning naqadar...

- Eh, bunisi bilan mening nima ishim bor! - deya uning gapini bo'ldi Kasya. - Meni faqat sen, sening baxting, o'zimming baxtim qiziqtiradi! Nina, Nina, iltimos qilaman sendan... Nina... Nina...

U Ninaning oyog'iga yiqildi-da, uning qo'lidan tutib, o'pa boshladi.

- To'yni bir oz kechiktir... O'tinaman...

- Kasya, tinchlan, nima qilyapsan axir?



Qo'shni xonadan qadam tovushi eshitildi. Kasya bo'shshib o'rnidan turdi va sekin qo'lqopini oldi.

- Men boray, bo'lmasam,

- Xayr, - deya javob qildi Nina, - men to'g'rimda yomon xayollarga borib yurma...

Kasya indamay bosh irg'adi. U Ninaga tikilganicha bir zum to'xtab qoldi. Birdan eshik ochilib, xonaga Nikodim kirdi. U avval hayratdan dong qotib qoldi, biroq darrov es-hushini yig'ib, qo'llarini cho'ntagiga tiqdi-da, ijirg'anib so'radi:

- Sizga bu yerda nima kerak?

Kasya nafrat bilan uning boshidan-oyog'igacha razm solib chiqdi.

Ninaning rangi oqarib turganini ko'rgan Dizma bu srda qandaydir gap o'tganini payqadi. Uning g'azabi qaynab ketdi.

- Sizdan so'rayapman, mening qaylig'imdan nima istaysiz? Xo'sh!

- Nik! - deya uni tinchitmoqchi bo'ldi Nina.

- Bu yerda pishirib qo'yibdimi sizga? Ko'rishni istamayman sizni...

U gapini tugatishga ulgurmasdi: Kasya istehzo bilan kuldi-da, teskari burilib eshikni sharaqlatib yopganicha chiqib ketdi.

- Senda nima ishi bor ekan? - so'radi bir oz jim turgach Nikodim.

Nina yig'lab yubordi. Dizma undan bir og'iz ham so'z eshitmay, g'azabidan stullarni tepganicha mehmonxonada u yoqdan-bu yoqqa yura boshladi.

Shu payt pani Pshelenskaya kelib qoldi, lekin kelin bilan kuyov arazlashib qolishibdi shekilli, degan xayolga borib, darhol mehmonxonadan chiqib ketdi.

Oradan bir oz vaqt o'tgach, Nina tinchib qoldi, biroq qallig'iga hech nima aytmasdi. U faqat Nikodimga, senga sodiqligimga ishonaver, Kasya ham endi sira qaytib kelmaydi dedi, xolos.

"Ana endi, kerak bo'lsa tushunib olaver, - deya o'ylardi boshi qotib Dizma. - Chindan ham bu xotinlarning miyasi aynib qolgan ko'rinadi".

## 20-bob

Hamma hayajonda edi. Stol va stullar chiqarib tashlangan majlislar zaliga bankaning butun xodimlari yig'ilgandi.

Oldinda direktor, uining ortida ikki o'rinbosari, so'ngra bo'lim boshliqlari va nihoyat - boshqa xizmatchilar turishardi. Ular ohista gaplashishmoqda edi. Bir payt eshik ochilib, rais kirib keldi.

Boshliqning dilidan nimalar kechayotganini tushunmoqchi bo'lgan yuzlab ko'zlar unga tikildi, biroq, Dizmaning bezday qotib qolgan yuzidan hech nimani bilib bo'lmasdi.

Rais bir yo'talib oldi-da, gap boshladi:

- Muhtaram janoblar, men sizlarni bu yerga xayrlashish uchun taklif qildim. O'z lavozimingizda qoling, deb iltimos qilishayotgan bo'lishsa-da, men ketyapman. Ehtimol, buning sababini bilarsizlar, ehtimol, bilmassizlar, lekin buning ahamiyatni yo'q. Ishdan ketar ekanman, doim sidqidildan mehnat qilib o'z burchingizni yaxshi bajarganingiz va mazkur bankaning asoschisiga - menga ishlarni ibrat oladigan darajada boshqarib borishimga ko'maklashgainingiz uchun sizlarga o'z minnatdorchiligimni izhor qilmoqchiman. O'ylaymanki, meni yaxshilik bilan eslab yurasizlar, sizlarga otalarcha mehribonlik qildim va - maqtanmasdan aytishim mumkin, - ko'pchiligingiz mening rahbarligimda anchagina narsalarni o'rganib oldingiz. O'rnimga kim tayinlanishini hali bilmayman. Lekin bir narsani aytib qo'yay: sizlar meni qanday izzat qilgan bo'lsangiz, uni ham shunday hurmat qilishingiz lozim. Boshliqlarni doim hurmat qilish kerak. Darvoqe, u odam mashhur davlat arbobi bo'lmasligi ham mumkin; ehtimol, u men yaratgan narsani barbod etar. Biroq boshliq doim boshliqligicha qoladi. Sevimli Vatanimiz ravnaqi yo'lida mehnat qilishni davom ettiravering. Davlat sizlarga haq to'lar ekan, u haqqa yarasha unga foyda keltiring. Sizlarni tashlab ketayotganimdan g'oyat afsuslanayapman. Chamasi, ancha qattiqqo'llik qildim, nima qilay, fe'l-atvorimning o'zi shunaqa, lekin sizlarni chin ko'nglimdan yaxshi ko'rib qoldim.

Nikodim dastro'molini olib, burnini qoqdi.

So'ngra direktor so'zga chiqib, uzundan-uzoq gapirdi, rais Nikodim Dizmaning xizmatlari, uning tashkilotchilik qobiliyati, qo'l ostidagi odamlarga doimiy xayrixohligini, ko'klarga ko'tarib maqtadi. Gapining oxirida, u shaxsan o'zi va zalga yig'ilgan barcha xizmatchilar nomidan shunday dono rahbardan ajralayotganliklari uchun juda afsuslanayotganlarini aytdi. So'ng u kuchli "vivat" sadolari ostida raisga yozuv stoli uchun oltin suvi yugurtirilgan ajoyib charm byuvar topshirdi. Byuvarning muqovasiga kattagina kumush taxtacha yopishtirilgandi. Taxtachaning yuqori qismiga Nikodimning portreti, pastiga banka binosining rasmi solingan bo'lib, o'rtasiga adres yozilgan edi:

Davlat G'alla Bankasining Asoschisi,  
Tashkilotchisi Va Uning Birinchi Raisi,  
Mashhur Ekonomist Nikodim Dizma Pan  
Janobi Oliylariga Minnatdor

## Xodimlaridan

Adres tagiga ko'plab imzolar chekilgan edi.

Butun tantana davomida pan raisning shaxsiy sekretari aytilgan gaplar mazmunini yozib bordi. So'ngra hali adresni ko'chirib oldi-da, chinovniklardan biriga gazetalarga yuborish uchun kerakli nusxada mashinkalatisini buyurdi.

Uning o'zi juda shoshilib turgandi, chunki hali u Dizma bilan birga frak kiyib, Ministrlar Sovetining raisi Nikodim sharafiga berayotgan xayrlashuv ziyofatiga yetib borishi lozim edi.

Bu orada Dizma xodimlarning har biri bilan qo'l berib xayrlashdi.

Saroyda Nikodimga xushxabar aytishdi: ziyofatdan oldin unga orden topshirilar ekan.

Ziyofat paytida Nikodimning nomiga juda ko'p maqtov gaplar aytildi, chunki jamoatchilik oldida Dizmaning iste'foga chiqishini bir oz pardalash lozim edi.

Ziyofat oxirida Ulyanitskiy o'rnidan turib, hazil-mutoyiba bilan bugungi tantananing qahramoni grafinya Nina Ponimirskaya bilan nikohdan o'tajagini majlis ahliga ma'lum qilib qo'yish o'ziga topshirilganligini aytib, barchani ushbu bazmi jamshidga taklif qilish sharafiga muyassar ekanligini e'lon qildi.

Bu taklif olqishlar bilan qarshi olindi: hazil-huzul gaplar, savollar eshitila boshladi; bo'lajak to'y hech kimga yangilik emasdi. Ziyofatdan so'ng yana tantanali majlis bo'lib, unga tag'in ancha-muncha mehmon keldi.

Barcha suhbatlar rais Dizmaning iste'foga chiqishi va buning oqibati nima bo'lishi mumkinligi haqida borardi. Birjada g'alla bankasi obligatsiyalarining narxi tushib ketgani haqidagi tashvishli xabar odamlarning e'tiborini o'ziga tortardi. Optimistlar, bu shunchaki Dizmaning iste'foga chiqishi natijasida yuzaga kelgan asabiylashish, obligatsiyalarining narhi hali yana ko'tariladi, deyishar, biroq pessimistlar, hammasi barbod bo'lmasa go'rga edi, deya tashvishlanishardi. Bu masala yuzasidai Dizmaning o'ziga murojaat qilishgan edi, u yelkasini qisib, dedi:

- Hukumat o'z istagicha yo'l tanladi. Buning oqibati nima bo'lishini bilmayman.

Turgan gap, odamlar buni, krizisni bashorat qilish, deb tushunishdi. So'nggi oylarda busiz ham vaziyat ancha keskinlashib, iqtisodiy muvaffaqiyatsizliklar sodir bo'lib turgan edi. Shu boisdan ham hukumatning qulashi ehtimoldan uzoq emasdi. Bu sharoitda mashhur tashkilotchi, kuchli iroda sohibi, hukumatning choralari bilan kelisha olmagan tufayli ijtimoiy hayotdan chetlashayotgan rais Dizma barchaning diqqatini o'ziga jalb etgan edi.

Muxbirlardan biri Dizmadan, agar kabinet qulasa, siz yangi hukumat sostavida biror ministrlilik lavozimini egallashga rozi bo'larmidingiz, deya so'ragan edi, Nikodim qat'iy javob qildi.

- Yo'q. Men qishloqqa borib, xo'jalik ishlari bilan shug'ullanaman.

Bu javob darhol barcha salonlarga tarqaldi, biroq shunga qaramay hech kim Dizmaga ishonmadi.

## 21-bob

Kostyol oldidagi maydon va qo'shni ko'chalarni olomon bosib ketdi. Yigirma ikki kareta, yuzdak ortiq avtomobil' ham shu yaqin o'rtada edi. Tramvaylar to'xtab qoldi. Ikki qator bo'lib saf tortgan politsiyachilar hangamatalab kishilarni arang to'sib turishardi. Kostyol eshigi oldidagi zinaga qizil gilamdan poyandoz solingandi. Kiraverishda politsiyachilar taklifnomalarni tskshirib turishardi. Ochiq eshikdan kostyolning yuzlab chproqlar shu'lasiga cho'mgan va behisob guldastalarga burkangan ichki jihozlari ko'rinib turardi..

Biror avtomobil' yoki kareta poyandoz oldiga kelib to'xtagan zahoti olomon kelgan odamni darhol tanir va g'ovur-g'uvur qilganicha:

- Knyaz' Rostotskiy... Italiya elchisi... Ministr Yashunskiy... - uning nomini takrorlardi.

Bashang kiyingan xonimlar, yaltiroq mundir yoki frak kiygan erkaklar birin-ketin kostyolga kirib borishardi. Hamma yoqni atirupa, gul va benzinning hidi tutib ketgan edi.

Kostyol odamga to'lib ketganiga qaramay, mashinalar hamon kelib turardi.

Mana, poyandoz oldiga ajoyib limuzin kelib to'xtadi. Undan Nikodim Dizma tushdi.

- Kuyov, qaranglar, kuyov keldi, rais Dizma... Gazetalarda uning rasmlarini ko'rgan odamlar Dizmani darhol tanishdi. Uzoqdan kimdir:

- Yashasin rais Dizma! - deb qichqirdi.

- Yashasin rais Dizma! Yashasin rais Dizma! - deya takrorlay boshladi olomon.

Odamlar boshlaridan shlyapalarini olib silkitarkan:

- Yashasin!.. Yashasin Dizma! - deya qichqirishardi. Nikodim zinapoyada to'xtab, silindrini silkitib qo'ydi.

Uning jiddiy yuziga yoqimli tabassum yugurdi.

Olomon uni zavq-shavq bilan olqishlay boshladi. Shu payt Ninaning karetsi yetib keldi. Qaylig'i sharafiga chalinayotgan gulduros qarsaklarni eshitib, keliining ko'ziga yosh keldi.

- Ko'rdingmi, - deya shivirladi uning qulog'iga pani Pshelenskaya, - polyaklar ulug' odamlarning xizmatini qadrlay bilishadi.

Nikodim qaylig'ining oldiga tushib, olomonning qiyqirig'i ostida uni mehrob tomon boshladi. Organ sadolari yangradi.

Varshavada anchadan beri shunday dabdabali to'yni ko'rishmagan edi.

Nikoh marosimi tugagach, kelin-kuyov sharafiga yana olqishlar eshitildi. Kareta an'anaga binoan Iyerusalim xiyobonini aylanib chiqdi. Turna qator bo'lib borayotgan mashina va kareta Yevropa mehmonxonasi oldiga borib to'xtashdi. Bu yerda ikki yuz qirq knshiga dasturxon yasatilgan edi.

Mehmonxona oldida ham ularni sinchkov odamlar to'dasi kutib turgan ekan. Bu yerda ham: "Yashasin Dizma!" - degan xitoblar eshitildi.

Nikodimning og'zi qulog'ida edi. Ninaning chehrasi tabassumdan porlab turardi.

Ular behisob mehmonlarning tabriklarini qabul qila boshlashdi. Bazm mahali ham tabrik so'zlarning keti uzilmadi. Tabrik telegrammalarini o'qishning o'zn bir soat vaqtni oldi, shu boisdan ham bal faqat soat o'n birda boshlandi. Kuyov shu qadar berilib tansa tushdiki, uning bir vaqtlar Liskovda qozongan muvaffaqiyatlaridan bexabar mehmonlar o'zaro taxminan shunday gaplarni aytishardi:

- Rais Dizmani shu qadar hazilkash odam, deb kim o'ylabdi deysiz!

yoki:

- Kuyov to'raning bir oz kayfi oshibdi, mana endi, xursandchilik qilyapti.

- U xursandchilik qilmay, kim xursandchilik qilsin? Xotini qo'g'irchoqdakgina, Koborovo esa har qanday magnatga ham, nasib qilavermaydigan joy.

Hamma ishga bosh-qosh bo'lib turgan Kshepitskiy balni tugatishga ishora qilganida oppoq tong otgan edi. Soat sakkizdan yigirma minut o'tganida kelin-kuyov Koborovoga jo'nashi lozim bo'lgan poyezd yo'lga chiqardi.

Mehmonlarning ko'pchiligi ularni vokzalga kuzatib chiqdi. Temir yo'l ministri ularning ixtiyoriga ajratib bergan salon-vagon gulga to'lib ketgandi. So'nggi tabriklar, xitoblar yangragach, poyezd bir hushtak chaldi-da, asta joyidan qo'zg'aldi.

Nina bilan Nikodim ochiq derazalar oldida ko'llarini silkitib turishardi. Perronda behisob dastro'mol va shlyapalar lipillay boshladi. Nihoyat, parovoz tezligini oshirgach perron shaharni chulg'agan kul rang tutun ichida ko'rinmay qoldi.

Nina erining bo'ynidan quchdi.

- Yo parvardigor, qanday baxtliman-a! Nik, ayt-chi, meni bunday baxtga, senga yetkazgan narsa nima o'zi?!

- Hm... Nima yetkazdi, deysanmi?..

- Ha, Nik, qanday qilib senday buyuk, dono, shunday izzat-ikromga sazovor bo'lgan odamning xotini bo'lib qoldim? Ayt, Nik, qanday qilib, a?..

Dizma xayolga cho'mib, iyagini qashib qo'ydi. Ha deganda javob topa olmagach, uning zardasi qaynab ketdi.

- Xotinim bo'lsang nima qilibdi, - deya to'ng'illa-di u. - Shundan boshqa tashvishing yo'qmi?

Ularning lablari bir-biriga tutashdi.

Stansiyadan uyga qadar yo'lga otquloq yaproqlari to'shalgan bo'lib, uning ikki chetiga yosh qayinlar o'tkazilgan edi. Stansiya binosi ham yashil gulchambarlar bilan bezatilgan edi. Perron Koborovo korxonalarining ishchi va xizmatchilari hamda tevarak-atrofdagi qishloqlardai kelgan hangamatalab kishilar bilan to'lib ketgandi. Ularning ko'pchiligi kecha radio orqali berilgan reportajni: mashhur solistlar, xor va organ ijro etgan "Veni Greater" gimni va kuyov sharafiga aytilgan "vivat" xitoblarini eshitishgan edi.

Shu boisdan ham ularning perronga to'planishganiga ajablanmasa bo'lardi.

Uzoqdan poyezd ko'ringanida, gangir-gungir gaplar tinib, havaskor muzikachilardan iborat orkestr marsh chalib yubordi.

Tantanali damlar yaqinlashib qolgandi.

Birinchi qatorda yuqori lavozimdagi xizmatchilar saf tortishdida, qo'lida dala gullaridan iborat guldasta tutgan oppoq ko'ylakli qizchani oldinga chiqarishdi. Bu bug' tegirmoni direktorining qizi edi.

Afsus! Mashinistning e'tiborsizligi tufayli salon-vagon perrondan ancha narida, g'alla ombori bilan hojatxona o'rtasida to'xtadi.

Shundan so'ng koborovolik "kiborlar" kelin bilan kuyovning vagondan tushishiga yetib borish uchun lo'kkilab yugurishga majbur bo'ldilar. Harqalay, ular vaqtida yetib borishdi, qizcha Ninaga guldastani topshirdi. U she'r ham o'qib berishi kerak edi, biroq o'zini yo'qotib qo'ygan qizaloq, aytib turishlariga qaramay, og'zini ocholmay qoldi. Nina uning yuz-ko'zlaridan o'pdi. Dizma tabrik so'zlarini vagon zinasida turib eshitdi. So'ngra u quyidagilarni aytishni lozim topdi:

- Chin qalbmizdan minnatdormiz! Men va xotinim bizni shunday ochiq ko'ngil bilan kutib olganingizni sira ham unutmaymiz.

To'yimiz munosabati bilan sizlarga mukofot berishlarini buyuraman... Koborovoda ishlaydigan odamlarning barchasi

mukofotlanadi. Nimayam derdim... Men xarajat qilishdan qo'rqmayman...

Uning so'zlari kuchli "vivat" sadolariga ko'milib ketdi. Orkestr gumburladi.

Qo'shni vagondagi yo'lovchilar bu manzarani qiziqib tomosha qilishardi, ba'zilar esa, yerdagilarga qo'shilib, allanimalar deya qichqirishardi.

Ayniqsa, uchinchi klass vagoni derazasidan boshini chiqarib, o'zi ham nimaligini bilmay bor ovozi bilan "Vivayt! Vivayt!" deya qichqirayotgan ozg'in yahudiy hammadan ham oshirib yuborayotgan edi:

Uydagi xizmatkorlar ularni non-tuz bilan kutib olishdi.

Nikodim patnisga ikkita besh yuztalik qo'ydi-da!

- O'zinglar bo'lishib olinglar, - dedi.

Kshepitskiy uylarni ancha-muncha o'zgartirib yuboribdi.

Yuqorini, Ninaning avvalgi xonalarini u mehmonxonaga qilib bekaning yotoqxonasini Nikodimning xonasi yoniga ko'chiribdi.

Yotoqxonalarning ikki tomonida vanna bo'lmalari jihozlanibdi. Uyning butun chap qanoti Jorj Ponimirskiyga ajratilibdi. Parkdagi pavil'onda esa Kshepitskiyning o'zi turadigan bo'libdi.

To'y va yo'l kelin-kuyovni ancha toliqtirib qo'ygan edi. Ular darhol uxlagani yotishdi. Nina bilan Nikodim kechqurunog, ertaga ertalab Jorjning pavil'oniga borib, uni uyga ko'chib o'tishni taklif qilamiz, deb kelishib qo'yishdi.

Dizma o'rinda cho'zilib yotar ekan, bu uchrashuv haqida aicha o'yladi va Ponimirskiyning oldiga Nina bilan birga bormaganim ma'qul, degan fikrga keldi. Kim bilsin, bu telba yana qanday nag'ma ko'rsatadi?

"Jinniligi tutib, sirimni oshkor qilib qo'yishi mumkin, axir!"

Shu boisdan ham u xizmatkorga o'zini soat yettida uyg'otishni buyurdi. Nikodim yanglishmagan ekan: u o'rnidan turgach, xotining yotoqxonasiga kirgan edi, Ninaning hamon uxlab yotganini ko'rdi. Darvoqe, Nina hech qachon vaqtli turmasdi.

Nikodim darrov kiyinib xizmatkorga beka bilan nonushta qilajagini aytdi-da, parkka jo'nadi.

U Jorj bilan nima to'g'risida gaplashishni oldindan o'ylab qo'ygan edi. Lekin shunga qaramay, pavil'onga yaqinlashgach, Nikodim yuragi po'killayotganini sezdi. U faqat Ponimirskiy bilan uchrashgan kezlaridagina ana shunaqa cho'chirdi. Agar Jorjning telbaligi, uning g'aroyib qiliqlari nazarda tutilsa, buning sira ajablanarli joyi yo'q edi, albatta.

Nikodim kirib borganida, graf o'rinda chordona qurib, hushtak chalganicha shirguruch yeb o'tirgan edi. Ko'rpa ustida yotgai it goho-goho erinibgina egasining tarelkasini yalab qo'yardi.

Ponimirskiy Dizmani xizmatkor uning ortidan eshikni yopganidan keyingina ko'rib qoldi.

- Salom! - dedi Nikodim.

- A! - dedi kulib graf - Hurmatli kasbdosh! Manavi la'nati bo'tqani olib qo'ying, kasbdosh!

Nikodim itoatgo'ylik bilai buyruqni bajardi-da, karavot yonidagi stulga o'tirdi. Ponimirskiy unga istehzoli jilmayib qarab turardi.

Uning kasalmand bolanikidek qonsiz yuzidagi katta-katta ko'zlari, qirra burnn, doim qimirlab turadigan yupqa lablari - xullas, butun basharasidan mamnunligi sezilib turardi.

- Sog'lig'ingiz qalay? - deya gap boshladi Dizma. - Eshitishimga qaraganda, ancha betob bo'lganmishsiz?

- Rahmat. Tashvishlanmang, kasbdosh.

- Men kasbdosh sifatida emas, - dedi birdan Dizma, - kuyov sifatida tashvishlanyapman.

- Nima-a-a-a?..

- Sizning kuyovingiz sifatida, deyapman, - deya takrorladi, dadilroq bo'lish uchun ovozini balandlatib Dizma.

- Bu nima deganingiz? - o'shqirdi graf.

- Bumi, bu siz bilan qaynag'a-kuyov bo'ldik deganim; men singlingizga uylandim.

Ponimirskiy ko'rpani bir chetga otib, pushti pijamasida ro'yirost o'rnidan turdi-da, Nikodim tomon egildi:

- Yolg'on! Yolg'on gapiryapsan, ahmoq!

Dizma quturib ketdi. Olomonning olqishlariga sazovor bo'lgan, arkoni davlatlar bilan oshnachilik qilib yurgan ulug' Dizmani allaqanday odam haqorat qilib o'tirsa-ya! Nikodim sapchib o'rnidan turdi-da, Jorjni tirsagidan tutib, to'shakka uloqtirdi.

Ponimirskiy og'riqning zo'ridan ingrab yubordi. It jon-jahdi bilan akillay boshladi.

- He... Iblis! - deb yubordi Dizma. Eshik ochilib, kasal boquvchi ayol bilan xizmatkor paydo bo'ldi.

- Mazangiz qochdimi, janobi oliylari? Ehtimol, yordam kerakdir? - deya so'radi ayol.

- Qorangni o'chir! Yo'qol! - o'shqirdi Dizma. Xizmatkorlar g'oyib bo'lishdi.

Nikodim papiros tutatdi-da, Ponimirskiyga ham portsigarni tutdi. Jorj bir oz ikkilanib turgach, bir dona papiros oldi.

- Ana ko'rdingizmi, graf men bilan hazillashib bo'lmaydi. Shunday qilib, men synglingizga uylandim. O'tgan kuni to'yimiz bo'ldi.  
Xo'sh, bunga nima deysiz?  
- Sharmandalik!  
- Nega endi sharmandalik bo'larkan?  
- Kimsan grafinya Ponimirskaya sizdek bir tuban, to'pori odamga tegib o'tirsa-ya! Pan... pan... familiyangiz nimaydi?  
- Dizma, - deya eslatdi Nikodim.  
- Kulgili familiya, - dedi yelkasini qisib Ponimirskiy.  
- Demak, siz singlingizning jinoyatchi Kunikka xotin bo'lib qolishini afzal ko'rar ekansiz-da? A?  
- Yo'q... Harqalay. Menimcha, siz g'oyat yaramas odam bo'lsangiz-da, Kunikchalik firibgar bo'lmasangiz kerak? Darvoqe, bunday firibgar bo'lish uchun sizda aql yetishmaydi, chunki...  
- Og'zingizga qarab gapirsangaz bo'lardi, janobi oliylari, - deya qovog'in soldi Dizma.  
Ponimirskiy jimib qoldi.  
- Siz meni haqorat qilgandan ko'ra, xudoga shukur qiling.  
- Rostdan-a?!  
- Ha, xudoga shukur qiling. Men oldingi kuyovingizga o'xshab sizni tahqirlamayman. Siz uyga ko'chib o'tasiz va butunlay erkin yuraverasiz. Biz birga yashaymiz, uchovlon ovqatlanamiz, mehmonga boramiz, mehmon qabul qilamiz....  
Ponimirskiyga jon kirdi.  
- Rostdan gapiryapsizmi?  
- Bo'lmasam-chi.  
- Minishga ot ham berishadimi?  
- Istagan narsangiz muhayyo, bo'ladi. Mayda harajatlar uchun pul ham olasiz. Qarzlaringizni bo'lsa to'lab qo'ydim. Lekin mening ham o'z shartlarim bor.  
- Qanaqa shartlar ekan? - so'radi bezovtalanib Ponimirskiy.  
- Avvalo - tilingizni tiyib yurasiz. Oksford bilai Kurlyandiya sizning uydirmangiz ekanligini hech kim bilmasligi kerak.  
Jorj kulib yubordi.  
- Demak, odamlar bu safsataga ishonishibdi-da?  
- Nega ishonishmas ekan?  
- Axir basharangizga bir qarashning o'zi kifoya-ku!  
Dizma qovog'ini soldi.  
- Bu yog'i bilan ishingiz bo'lmasin. Tilni tiyish lozimligini unutmang. Ikkinchidan esa, hech kimga bildirmay menga ingliz tilini o'rgatasiz.  
- Men-a? - dedi g'azabi qaynab Ponimirskiy. - Men sizdek tuban odamni o'qitishim kerakmi? Qanday surbetlik!  
- O'chir ovozingni, maymun! - deya o'shqirdi Dizma. - Ikkitadan bittasini tanla: yo mening taklifimni qabul qilasan, yo seni darhol Tvorkiga jo'nataman.  
Ponimirskiy labini tishlab, yig'lab yubordi.  
- Brut, Brut, - deya ho'ngardi u itini silab, - Eshityapsanmi? Xo'jayiningni yana jinnixonaga tiqishmoqchi... Brut!  
Uning qonsiz yuzidan katta-katta yosh tomchilari oqib tushardi. Buni ko'rib Dizma hatto ajablanib ham qo'ydi.  
- Xo'sh, - deya so'radi u, - qay birini tanlaysan?  
- Meni senlab gapirmang, - deya norozilik bildirdi Ponimirskiy va darhol tinchib qoldi.  
- Nega endi senlamas ekanman? Qaynag'a-kuyov bo'lganimizdan keyin... Biz bir-birimiz bilan sensirab gaplashishimiz kerak.  
Odamlar nima deyishadi? Kasbdosh bo'lsak, qaynag'a-kuyov bo'lsagu bir-birimizni "pan" deb chaqirsak?  
- Qiziq! - istehzo aralash jilmaydi Ponimirskiy. - Nahotki oramizdagi farqni tushunmasangiz?  
- "Farq" deganing nimasi? Unday desam, to'g'ri, bitta farq bor: men aqli raso odamman, sen esa - telbasan! Xullas, xohlaganingni tanla. Qaytaga manmen bilan hazillashib bulmasligini unutmang! Tumshug'ingga shunday solamanki, og'zingdagi tishlaringdan bitta qolmaydi!  
Shunday deya u Ponimirskiyning ko'zi oldida mushtini do'laytirdi. Uning dag'dag'asiga qaramay Ponimirskiy xursand bo'lib ketdi.  
- Rostdan-a? Qiziq. Shunday zarb bo'lishi mumkinligi haqida eshitgandim-ku, ammo o'z ko'zim bnlan ko'rmagan edim. Bilasizmi? Hozir Antoniyni chaqiraman, siz uni urib, o'sha zarbingizni ko'rsatasiz. Xo'pmi?  
Graf qo'lini qo'ng'iroq tomon cho'zgan edi. Dizma uni to'xtatdi.  
- O'zingni go'llikka solma? Men Antoniyning emas, sening tumshug'nngga solaman. G'ing deb ko'r-chi. Xo'sh? Rozimisan?  
Ponimirskiy qo'llarini bukib, og'ir xo'rsindi.  
- Qanday xo'rlik, qanday isnod! Men ana shu tuban, ana shu to'pori odam bilan sensirab gaplashishim va bu ham yetmaganday, shu zehni past nusxaga ingliz tilini o'rgatishim kerak! Uning kalla suyagini qarang, axir bu maymunning kalla suyagi-ku!  
Dizma o'rnidan turdi-da, soatiga qarab, dedi:  
- Hay mayli, salomat bo'!  
- Ketyapsizmi?.. Yana birpas o'tiring, bo'lmasam yolg'iz o'zim zerikib ketaman.  
- Endi yolg'iz qolib zerikmaysan. Seni shu bugunoq Tvorkiga jo'nataman.  
Ponimirskiy karavotdan sakrab turdi-da, qalt-qalt titraganicha Nikodimning yoniga yugurib keldi. - Yo'q, yo'q! Men hammasiga roziman.  
- Rozimisan?  
- Ha.  
- Tilingni tiyib yurasanmi?  
- Ha.  
- Menga ingliz tilini o'rgatasaimi?  
- O'rgataman.  
- Mana bu boshqa gap. Endi meni ismimnn aytib chaqiraver.  
- Isming esimda yo'q!.. Qandaydir ahmoqona ism edi.  
- Nikodim;



- Xo'p yaxshi... Nikodim.
- Demak, biz endi oshnamiz-a?
- Nima? Nima?
- Demak, tilimiz bir-a?
- Ha, ha, tilimiz bir.

- Qani, Jorj, qo'lingni ber. Hozircha xayr!

Ular qo'l siqishdi-da, Dizma chiqib ketdi. Ponimirskiy gilamga o'tirib olib, nimagaligini o'zi ham bilmay qotib-qotib kula boshladi. Nihoyat, xizmatkorni chaqirdi:

- Antony! Antony! Antony!

Eshik ochilib, xizmatkor kirib kelgan edi, Ponimirskiy unga musht o'qtalib, qichqira ketdi:

- Nega mendan yashirding?!
- Nimani yashiribman, panich?
- Singlimning erga tegayotganini-da! Qari eshak!.. Qani bo'l, tezroq narsalarni yig'ishtir.
- Yig'ishtir deysizmi? Nega endi, panich?
- Biz ko'chypmiz. ..
- Qayoqqa?
- Uyga.

## 22-bob

Kelin bilan kuyov Koborovoga kelgach, ikki kundan so'ng u yerga Kshepitskiy ham yetib keldi - u o'z boshlig'ining ba'zi ishlari bilan Varshavada tutilib qolgan edi.

Kshepitskiy ishga qizg'in kirishib ketdi: davlatga shpal yetkazib berish lozim bo'lib, bahorgi ishlar ham ko'z-quloq bo'lib turishni talab qilardi. Shu boisdan ham u Nikodim bilan Ninaga uncha ko'p vaqt ajratolmasdi, Darvoqe, ular buning uchun xafa ham emasdi. Nina bilan Nikodim kunlarini vaqtchog'lik bilan o'tkazishmoqda edi: ular qayiqda suzishar, avtomobilda sayr qilishar, ot minib dala kezishar va bil'yard o'ynashar edi.

Nina o'zini juda baxtiyor his etardi. To'g'ri, ba'zan uning dilida gumonsirashga o'xshash bir narsa iaydo bo'lardi, biroq u Nikodimning barcha nuqsonlarinn buyuk odamning tentakligiga yo'yib qo'ya qolardi. Nihoyat, uning eridan minnatdor bo'ladigan tomoni ham ko'n edi! Agar kunduz kuni u ba'zan o'ylanib qolsa, qosh qorayib, tun tushishi bilan hammasini unutardi qo'yardi. Qalbining qa'rida uzoq vaqt mudrab yotgan hissiyot endi Ninaning a'zoyi badaiiga yoyilib, uning asosiy o'y-xayoliga aylangan edi. Kelin bilan kuyov kunlarini shod-xurram o'tkazishardi, shu boisdan ham ularning totuvgina umr kechirishlari o'z-o'zidan ma'lum bo'lib qolgan edi.

Faqat ikki oydan keyingina ular qo'shni pomeschchiklarnikiga borib, ular bilan tanishish va o'z uylarida mehmon qabul qilish haqida o'ylay boshlashdi. Boz ustiga yozda pani Pshelenskaya bilan varshavalik boshqa mehmonlarning kelishi kutilmoqda edi. Nikodim talaygina vaqtini ma'lumotini oshirish uchun mutolaa qilish bilan o'tkazardi: u, yolg'iz o'zi yoki Ponimirskiy bilan birga kutubxonada qamalib olib, kitob o'qirdi. U bu ishni istar-istamas qilsa-da, biroq kitob o'qish va chet tillarni bilishning naqadar foydali ekanligini yaxshi tushunardi.

Kechki ovqat mahali u ba'zan o'rni kelganda o'qigan kitoblari haqida gapirib qo'yardi, so'zlarining suhbatdoshlariga qanday ta'sir qilishini zimdan kuzatib, u yoki bu yozuvchining dunyoqarashi to'g'risida safsata sotardi. Faqat Ninagina emas, hatto Kshepitskiy ham uning gapiga odob bilan quloq solishardi. Ko'p o'tmay Koborovodagilar Nikodim kutubxonaga qamalib olgan paytlarida, pan pomeschchik ilmiy ish bilan shug'ullanyaptilar, deydigan bo'lib qolishdi.

Ora-sira Dizma ekinzor va fabrikalarni borib ko'rardi. Xo'jalikni boshqarish tashvishlari Kshepitskiyning zimmasiga yuklangan edi. Daromadning kundan-kun o'sib borishi yangi boshqaruvchining ishni do'ndirib bajarayotganidan dalolat berib turardi. Jorj Ponimirskiy tez kunda yangi sharoitga ko'nikib ketdi. U Nikodimning norozi bo'lishiga o'rin qoldirmay, o'zini kiroyi odamdek tutardi. To'g'ri, ba'zan biror narsaga shama qilib, istehzo bilan kulib qo'yar, biroq kuyovning bir xo'mrayishi bilan darhol pisib qolardi. Singlisi bilan u deyarli gaplashmasdi. Jorj avvaldan Ninani yoqtirmas edi. Boz ustiga u ayollarning fikrlay olish qobiliyatini tan olmasdi. U uzoq vaqt mahrum bo'lgan erkinlikdan lazzatlanib yurardi: ot minib sayr qilar, hatto avtomobil' ham haydar edi. Dizma dilida, zora biror falokatga yo'liqib gumdon bo'lsa, degan umid bilan uning mashina haydashiga ruxsat bergan edi.

Biroq doim tentaklik qilib yuradigan Jorj o'z jonini saqlash masalasiga kelganda juda ehtiyotkor bo'lib qolardi. Uning beozor telbaligi tez kunda tevarak-atrofdagi qishloqlarda anchagina latifalar to'qilishiga sabab bo'ldi.

Jorj Kshepitskiy bilan doim gerdayib muomala qilardi. U boshqaruvchi bilan ikki barmog'ini uzatib salomlashar va agar Kshepitskiy unga "janob oliylari", deya murojaat qilmasa, savoliga mutlaqo javob bermay qo'ya qolardi. Kshepitskiy uning bu qiligidan kulib, Jorjdan sira xafa bo'lmasdi.

- G'alati yigit, - derdi u, - qiliqlarini ko'rsam, doim kulgim qistaydi. Qishloqda shunaqa ermak ham kerak bo'larkan. Ilgari qirollar nima sababdan saroyda masxaraboz saqlashganini endi tushundim.

- Jin ursin uni! - deya to'ng'illardi Dizma.

Bu orada Varshavadagi eski do'stlardan tashvishli xabarlar kela boshladi.

Iqtisodiy krizis kundan-kun zo'rayib borardi. Tez kunda u Koborovoga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Qog'oz fabrikasi va taxta tilish zavodi faqat davlat buyurtmalari bilan ishlamoqda edi. Iqtisodiy inqiroz Dizmaning manfaatlariga ham yomon ta'sir qildi. Biroq baxtiga Kshepitskiyning uddaburonligi va davlat buyurtmalari tufayli hamon durustgina daromad olinayotgandi. Qo'shni pomeschchiklarga nisbat qilinganda Dizma Qorundek badavlat ko'rinaradi. Boyoqishlarning ishlari kundan-kun chappasiga ketmoqda edi. Ahvol shu darajaga borib yetdiki, o'ttizga yaqin yer-mulk kim oshdi savdosiga qo'yib sotilishi e'lon qilindi.

Darvoqe, boshqa yoqlarda ham ish bundan yaxshi emasdi. Ziroatchilar sun'iy o'g'itlar ishlatmay qo'yishdi, sarf-xarajatlarini juda cheklashdi. Boz ustiga har tarafdan, ko'pgina pomeschchiklar omborlardagi davlat bankasining mulki hisoblangan g'allani sota boshlaganligi haqida mish-mishlar tarqala boshladi. Shu boisdan banka obligatsiyalarining narxi juda tushib ketdi. Obligatsiya egalari orasida vahima ko'tarildi. Savdo va birjadagi turg'unlik, sanoatdagi inqiroz soliq to'lovchilarning qurbsizligi dahshatli xavfga aylandi. Gazetalar sinish, korxonalarining yopilishi, ish tashlash, bud-shudidan, ishidan ayrilgan ko'plab kishilarning o'z-

o'zini o'ldirishi haqidagi xabarlariga to'lib ketgan edi.

Mamlakatda norozilik avjiga chiqqan boshladi.

Hokimiyatni o'z qo'liga olib, inqirozni bartaraf qilishga qodir bo'lgan kuchli odam haqida borgan sayin ko'proq gaplasha boshlashdi.

Bu orada o'rim mavsumi yaqinlashib qolgan bo'lib, mamlakatda yana mo'l hosil xavfi tug'ildi. Nikodim gazetalarni o'qir ekan, bosh chayqardi.

- Jin ursin! Endi nima bo'larkin?

## 23-bob

Koborovoda anchadan buyon hosil bayrami bunday xursaidchilik bilan o'tkazilmagan edi.

Yangi pomeshchik pulni ayamay sarfladi. Chamasi, uning o'zi ham g'ubordan chiqmoqchi edi shekilli. Tumonat mehmon yig'ildi.

Birinchi bo'lib bir talay chamadonlari bilan pani Pshelenskaya yetib keldi; o'sha kuni kechqurunoq polkovnik Vareda bilan opa-singil grafinya Charskayalar kelishdi. Ertasiga Koborovodaga ikki avtomobil' va ikki izvosh kuni bilan stansiyadan odam tashidi.

Xotini va o'g'lini olib voyevoda Sheymont, oqsoqol Tishko, ministr Yashunskiyning xotini, baron Rel'f rafiqasi bilan, Ushinkiy singlisi bilan, ikki ad'yutantini olib harbiy okrug komendanti general Chakovich, Ulyanitskiy, Xol'shitskiy, Kojes ordinatining xotini va yigirmaga yaqin qo'shnilar hozir bo'lishdi.

Uyni mehmonlar bosib ketdi. Hamma xonalardan kulgi va gangir-gungir gap eshitalardi.

Kiborlar hayotini yaxshi ko'radigan Ninaning boshi osmonda edi. Butun o'tgan hafta davomida u Kshepitskiy bilan birga sayr-tomoshga programmasini tuzib, omborxonadagi oziq-ovqat va yerto'ladagi ichimliklar zapasini qayta-qayta hisoblab chiqqan va yangi xizmatkorlar yollab, mehmonlar uchun xonalar hozirlagan edi. Xullas, u qarindoshlar, yoru do'st va tanish-bilishlarni munosib kutib olish uchun qo'lidan kelgan hamma choralarini ko'rib qo'ygandi.

Jorj ham juda ilhomlanib ketgandi. U mehmonlar orasida o'ralashib yurar, xonimlarning ko'nglini xush etib, erkaklarga otxonalarni ko'rsatar va, umuman, hammaning e'tiborini o'ziga jalb qilishga urinardi. U, go'yo Koborovoning egasi boshqa odam ekanligini unutib qo'ygandek, o'zini yana to'ra deb his etardi. Kshepitskiy bilan pani Pshelenskaya Jorjning ruhan xastaligini mehmonlarga shiphitib qo'yishgandi, shu sababdan mehmonlar uning ra'yiga qarab, bironta ham gapini qaytarishmas edi.

Nikodim barchani iltifot bilan kutib olayotgan bo'lsa-da, biroq o'zini juda sipo tutardi; shu boisdan ham mehmonlarning unga nisbatan hurmati yanada oshib ketdi. Behisob mehmonlar kelganiga qaramay, u kutubxonaga kirib, ichidan qulflab olish odatini tashlamadi. Bu narsa atrofdagilarning ko'z o'ngida uning obro'sini yanada oshirib yubordi.

Kechqurunlari parkda Varshavadan taklif qilingan orkestr muzika chalar, shunda barcha mehmonlar kechki salqinda huzur qilib sayr etishar, fonarlar bilan yoritilgan maysazorda tansa tushishar edi. Ba'zan ot minib izvoshlarga o'tirib, o'rmonga borishardi.

Nina ostida sayr qilishni juda yaxshi ko'rardi.

Ertalabdan barcha tennis o'yiniga berilib ketardi. Peshingi ovqatga qadar ikkala kortdan odam arimasdi. Darvoqe kechgacha har bir odam ko'ngli tusagan ishni qilib yuraverardi. Yoshi kattaroq kishilar fabrika va ekinzorlarni qiziqib tomosha qilishar, yoshlar esa ot minishar, ko'lda cho'milishar, motorli va eshkakli qayiqalarda musobaqalashar edilar.

- Joylaringiz juda chiroyli ekan, - deyishardi mehmonlar Nina bilan Nikodimga. - Koborovoni oltin kon desa bo'ladi.

Barchaning vaqti chog' edi. Kashandalar uchun ajratilgan xonani bridj ishqibozlari egallab olishdi. Ular bir minut ham stol yonidan nari ketmasdi. Yemakxonadagi dasturxonlardan kun bo'yi ichimlik va yegulik arimasdi.

Uchinchi kuni katta bal uyushtirildi. Bu juda ajoyib bazm bo'ldi. Taklif qilingan bir yuz qirq kishi o'rniga bir yuz oltmish uch odam yig'ildi.

Bal kechqurun soat o'nda boshlanib, kunduzi soat birda mazurka bilan tugadi. Mehmonlar molday ichishdi, shu boisdan xizmatkorlarning ishi boshidan oshib ketdi: butalar tagidan g'irt mast mehmonlarni qidirib topib, ularni karavotlarga olib borib yotqizish kerak edi.

Nihoyat, hamma uxlagani tarqaldi, chunki kechqurun hosil bayrami o'tkazilishi lozim edi.

Uy oldidagi maysazorning chor atrofiga, bochkalar qo'yib chiqishdi. Dehqonlar uchun ochiq havoda stollar qo'yilib, mehmonlarga ayvonda dasturxon tuzaldi. Voyevoda Dizmaning eng yaxshi o'roqchi ayol bilan raqs tushishi lozimligini aytib, unga tegishib qo'ydi.

- Mexanizatsiyaning an'analarini yemirishini qarang-a, - deya qo'shimcha qildi u. - Hozirgi kunda hosil bayrami o'z ma'nisini yo'qota boshladi.

- Afsus, an'analarimizga achinadi kishi, - dedi Nina.

- Gapingizga qo'shilaman, lekin ahvol chindan ham shunday.

- Buning oqibati nima bo'larkin? - deya xo'rsindi Dizmaning mulkdor qo'shnisi mo'ysafid pan Roychinskiy. - G'irt tentaklik!

Mashinalar hayotimizni go'zallikdan mahrum qilib, uni xunuklashtirish bilan birga, kishilarning o'rnini egallab olyapti.

- Kimning o'rnini egallabdi? Kimni? - dedi jizzakilik bilan Dizma. - Ko'rib turibsiz-ku, hosil bayrami uyushtirdik, odamlar xursand. Yalangoyoqlarning bir qismi qirilib ketsa hech nima qilmaydi! Mashinalar hayotni farovonroq qiladi, xolos. Ana shunday!

U shartta orqasiga o'girilib, xonadan chiqib ketdi.

- To'ppa-to'g'ri, - deya bosh irg'adi general.

- Bu deyman, u hm... diplomatiyani yig'ishtirib qo'yib, juda ochiqchasiga gapirib yubordi-yu, - dedi hayrat ichida generalga qarab kekxa pomeshchik.

Voyevoda ko'ngilchanlik bilan jilmaydi.

- Azizim, menga ishonib: uning shunday gapirishiga haqi bor. Og'zi qiyshiq bo'lsayam, boyning o'g'li gapirsin, deganlar-ku axir. General Kambronni olsak, ana uni diplomat desa bo'ladi.

Orkestr mashq boshlab yubordi. Uning oldiga dehqonlar yig'ila boshlashdi.

Nihoyat, yiroqda o'roqchilar to'dasi ko'rindi: Ular allaqanday so'zsiz beloruscha kuyni xonish qilib kelishardi. Ularning bu g'amgin, azaliy maqomida hosil quvonchi emas, jang maydonining dahshati ifodalananayotgandek edi. Chamasi, ming yildan buyon kuylanib kelayotgan bu qo'shiqni eshitganida Nina doim ma'yuslanib qolardi. Uning nazarida hindular xuddi shunday xonish qiladigandek edi.

Bu orada o'roqchilar ancha yaqinlashib qolishdi. Oldinda sonlari bo'liqqina, larsillagan ko'kragi yoqasiga kashta tikilgan bo'z

ko'ylagini turtib chiqqan, baland bo'yli bir qiz kelaverdi. Uning kaltagina qizil yubkasi ostidan kelishgan durkin boldiri ko'rinish turardi. Dugonalari ipak paypoq va fransuzcha poshnali amirkon tuflari kiyib olishgan bo'lishsa-da, bu qiz yalang oyoq edi. U boshqa qizlarga qaraganda ancha nochorroq ko'rinar edi. Qiz sulini boshloqlarini dastalab ko'tarib olgandi.

Ponimirskiyning yonida turgan baron Rel'f uning qo'ltig'idan tutib, sekingina dedi:

- Juda zo'r ekanmi! Haqiqiy Pomona-ya. Juda nasldor ko'rinar. Qorni va sonlarining mushaklari juda baquvvat bo'lsa kerak. Nasl masalasida dehqonlar ancha nochor ko'rinar bunday chet joyda shunday ajoyib nusxani uchrataman, deb sira o'ylamagan edim, graf. Unday desam, hammasiyam ko'hlikkina. Jin ursin, hammasi zotdor-a! Vo'ajab!

Jorj monoklini ko'ziga joylab, Rel'fga nafratomuz qarab qo'ydi.

- Aksincha, buning hech ajablanarli joyi yo'q, baron. Ponimirskiylar Koborovoga besh yuz yildan buyon egalik qilib kelishyapti. Bilishimcha, mening muhtaram ajdodlarimdan birontasi ham xalqqa uing ayollari orqali ma'rifat tarqatish vazifasidan o'zini olib qochgan emas.

- Tushunaman, tushunaman, - deya bosh iring'adi baron. - Avom xalq esa doim biz zodagonlar otlar va qora mol naslini yaxshilashdan bo'lak ish bilan shug'ullanmasligimiz haqida gap sotadi. Manovi dehqonlarga bir nazar tashlashning o'zi kifoya: shunda biz eng katta muvaffaqiyatga ana shu sohada erishganimiz darhol ayon bo'ladi qo'yadi.

- Kechirasiz, - deya uning gapini bo'ldi Ponimirskiy, - "biz" deganda kimni nazarda tutyapsiz?

- Biz zodagonlarni-da.

- U holda biz bir-birimizni tushunmabmiz. Men Ponimirskiylar - ya'ni ko'hna zodagonlarni nazarda tutgan edim.

Jorj monoklini cho'ntagiga tiqib, sholg'omday qizarib ketgan baronga orqasini o'girib oldi.

Qo'shiq va raqslardan so'ng bazm boshlandi.

Oqshom ancha salqin bo'lib, xonimlar sovg'atayotganlaridan shikoyat qila boshlashgan edi, mehmonlar ayvondan uyga kirishdi.

Bog'da yolg'iz Dizma qoldi. U mezbonlik burchidan ham ko'ra ko'iroq o'z huzurinn o'ylab o'roqchi ayollar bilan tinmay tansa tushardi. Nikodim hammasidai ham haligi durkun qiz bilan ko'p taysa tushdi. Dizma uning qaylig'i - taxta tilish zavodida ishlaydigan norg'ul yigitning qovoq-tumshug'i osilib ketganiga e'tibor bermay, payt poylab turib qizni parkka olib kirib ketdi. Qiz ham pomeschikning ra'yini qaytarmadi. Qaylig'i esa alamidani o'lguday ichib, g'irt mast bo'lib qoldi.

"Anovi ahmoq Ponimirskiy" bilan qilgan suhbatidan so'ng bir oz o'ziga kelish uchun parkni aylanib qaytayotgan baron Rel'f tasodifan bu voqeaning shohidi bo'ldi. Shundan so'ng u:

"Demak, men haq ekanman: faqat ko'hna zodagonlargina emas, balki yangilari ham dehqonlar naslini yaxshilashning tashvishini tortar ekan", - deya xayolidan o'tkazdi.

Sharq tomonda osmon asta yorishmoqda edi.

## 24-bob

Peshinga yaqin yetib kelgai xabar barchani hayajonga soldi: kabinet nste'foga chiqish haqida ariza beribdi va uning iste'fosi qabul qilinibdi.

Ulyanitskiy darhol shaharga qaytish haqida Varshavadan telegramma oldi.

Kabinetning iste'foga chiqishi Koborovo mehmonlarining ko'pchiligiga shaxsan aloqador voqea bo'lib, ba'zi birovlar, mansablaridan mahrum bo'lishlari mumkin edi. Barcha faqat shu voqea haqida so'zlashardi. Ulyanitskiy vestibyulda u yoqdan-bu yoqqa yurganicha tinmay so'kinardi.

Yashunskaya xabarni eshitgan zahoti Varshavaga jo'nab ketdi.

Voyevoda Sheymont o'z idorasiga telegramma berib, Varshavadagi hukumat krizisi tafsilotlari to'g'risidagi barcha gaplarni o'ziga xabar qilib turishni buyurdi.

Kechqurun gazetalarni olib kelishdi. Gazetalarning barcha sahifalari bu voqea haqidagi xabar va mish-mishlar, vaziyatga berilgan qarama-qarshi baholar, turli taxmin va gumonlar bilan to'lib ketgan edi. Ular faqat bir masalada - kabinet iqtisodiy krizisni bartaraf etolmagani boisidan qulagani va uning o'rniga katta obro'ga ega bo'lgan odam rahbarligida yangi kabinet tuzish lozimligi haqidagi masalada yakdil edilar.

Bosh ministrlilik lavozimiga nomzodlar orasida general Trochinskiyning familiyasi ham ko'zga tashlanib turardi. General kasalxona kassalarining boshqaruvchisi hamda madaniyat va san'at bo'yicha xalqaro kongress delegati sifatida ancha obro' orttirgan bo'lib, "Napoleon I, Aleksandr Makedonskiy va boshqalarning strategik xatolari" nomli broshyurasi bilan o'z mavqeini mustahkamlab olgan edi. Avvalroq u "Yo'qolsin kommunizm!" nomli kitobchasi bilan shuhrat qozongandi. Uning milliy muzey tomonidan sotib olingan bir surati ham juda mashhur edi. Surat moy bo'yoqlar bilan avtoportret janrida chizilgan bo'lib, unda muhtaram general chaqqonlik bilan bahaybat qoplonga nayza sanchayotgan payt tasvirlangandi.

Koborovoda bu nomzod har tomonlama muhokama qilindi. Ochig'ini aytganda, uning bosh ministr bo'lishiga hech kim qarshi emasdi.

Kechki ovqat mahali boyagi suratdagi bo'yoqlarning uyg'unligi haqida munozara boshlanib ketdi.

- Nik, - deya so'radi Nina, - seningcha kim bosh ministr bo'larkin?

- Buni men qayoqdan bilay.

- Har qalay ayt-chi?..

- Hm... Agar Trochinskiy bo'lmasa, ehtimol, Yashunskiy bo'lar...

Kayfi oshib qolgan Vareda stolga musht tushirdi:

- Yo'q, Nikodim, bilasanmi, kim bosh ministr bo'lishi kerak?

- Kim?

- Sen.

Oraga jimlik tushdi. Barcha Dizmaga tikilib qoldi. Vareda hazillashdi, deb o'ylagan Nikodim peshanasini tirishtirib to'ng'illadi:

- Ko'p ichib qo'yibsan, Vatsek. Qo'y bu gapni.

Nina o'rnidan turdi. Shundan so'ng barcha bekaning ishorasi bilan mehmonxonaga o'tdi. Polkovnik o'zini oqlash uchun allanima degan edi, g'ovur-g'uvur ichida uning so'zlari eshitilmay qoldi.

- Qayiq'larga o'tirib, ko'lda sayr qilishni taklif qilaman, - dedi xonimlardan biri. - Hamma yoq sutday oydin!

Barcha bu taklifga bajonudil rozi bo'ldi.

Chindan ham sayr juda ko'ngilli o'tdi. Ko'l ulkan aqiq qatlamiga o'xshardi. Uning sathida yulduzlar mayda dur donalariday aks

etardi, ular orasida esa, voyevoda Sheymontning chamalashiga ko'ra loaqal o'n qiroqlik gavharday keladigai to'lin oy yarqirab turardi. Qayiqalar ohista cho'lpillab qirg'oqdan uzoqlashishi bilan kimdir qo'shiq boshlab yubordi.

- Afsus, - dedi xo'rsinib Nikodim, - qo'limda mandolina yo'q-da.

- Voy, siz hali mandolina chalasizmi? - deya ajablendi opa-singil Charskayalardan biri.

- Ha, chalaman. Ayniqsa, oydin kechalari qayiqda chalishni yaxshi ko'raman. Ilhomim qo'zib ketadi. Tun, osmonda oy yarqiraydi, hamma yoqni ufqning hidi tutib ketadi...

Hamma xaxolab kulib yubordi. Oqsoqol Tishko esa:

- Pan rais shu yerda ham sodda qo'shiqlarimiz ustidan kuldilar-a, - dedi.

Pshelenskaya yelkasini qisib qo'ydi:

- Nahot siz, pan rais shunday arzimagan narsalarga qiziqadi, deb o'ylasangiz?

- Bo'lmasam-chi, - deya uning gapini ilib ketdi oqsoqol. - Axir g'alla bankasini yopish haqidagi qarorni men ham eshitdim.

Shunday bankani-ya! Shunday ishni barbod qilishsa, uning asoschisiga alam qiladi-da... Shunday emasmi, pan rais?

- Xo'sh, o'zingiz qanday o'ylaysiz? - deya savolga savol bilan javob qildi Dizma.

- Buni qarangi, - tinmay davom etdi oqsoqol. - Hamma yoqdayam qanday ish qilinayotgani emas, balki bu ishni kim bajarayotgani katta ahamiyatga ega ekan. Bankaga pan rais rahbarlik qilayotgan paytlarida hammasi joyida edi.

- Balki hali hammasi iziga tushib ketar, - deya gap qotdi Dizma.

- Qayoqda deysiz, - dedi qo'l siltab oqsoqol. - Bir necha oydayoq banka barbod bo'ldi. Hamma gap odamda, ha, faqat odamda.

- Juda to'g'ri aytdingiz, - dedi komil ishonch bilan Pshelenskaya.

- Xello, Nikodim! - deya qichqirdi nariroqdagi qayiqdan Ponimirskiy. - Oksfordda ijro etiladigan eshkakchilar qo'shig'ini aytmaymizmi? A?

- Aytinglar, aytinglar! - deya iltimos qila boshlashdi xonimlar.

- Tovushimning mazasi yo'q, - dedi zardasi qaynab Dizma.

- Yolg'on gapiryapti! Tovushi yaxshi, - deya qichqirdi o'z hazilidan chanoq bo'lib Jorj. - Temzada qanday kuylaganimizni unutingmi? Lord Keledin of N'yudon tovushingni juda...

U gapini tugatishga ulgurmad: Nikodim eshkakni suvga qattiq urib, Ponimirskiy va u bilan birga qayiqda o'tirgan kishilarning ustiga suv sachratib yubordi.

- Kechirasizlar, - dedi so'ng Dizma, - unga faqat sovuq suv kor qiladi.

Ular orqaga qaytishib, bir necha minutdan so'ng parkka kirib borishdi.

Uy oldida kimningdir chang bosgan avtomobili turardi. Shofer motor ustiga engashib, uning allaqayerini tuzatmoqda edi.

- Kim keldi? - deya so'radi Dizma.

- Pan direktor Litvinek.

- Litvinek? - Nikodim ajablanib, qoshini chimirdi.

Chindan ham u Qasrdagi rasmiy qabul marosimlarida prezident idorasining boshlig'i vazifasida ishlaydigan doktor Litvinek bilan tanishgan edi. Biroq ularning orasida do'stona munosabat bo'lmay, Litvinekning tortinmasdan Koborovoga kelishi Nikodimni hayratga soldi.

Mehmonlar uyga kirishdi.

Vestibulda Kshepitskiy qora sochlariga oq oralagan baland bo'yli bir kishi bilan gaplashib turardi. Dizma to'g'ri ularning oldiga borib salomlashdi.

- Xo'sh, hukumat krizisi nima bo'lyapti? - so'radi gap orasida Nikodim.

- Men huzuringizga xuddi shu masala yuzasidan keldim, - deya javob qildi ta'zim bilan doktor Litvinek.

- Shu masala yuzasidan deysizmi?

Barcha nafasini ichiga yutib, quloq sola boshladi. Litvinek portfelidan konvert olib, bir oz sukut qilib turdi-da, so'ng dabdabali ohangda dedi:

- Muhtaram pan rais. Men bu yerga Jecha Pospolita prezidenti topshirig'iga binoan uning nomidan yangi kabinet tuzish vazifasini o'z zimmangizga olishni iltimos qilib keldim. Mana, prezidentning shaxsiy maktubi.

Shunday deya u Nikodimga qo'lidagi koivertni uzatdi.

Dizma qip-qizarganicha angrayib qoldi..

- Nima... Nima?

Gapining qanday ta'sir qilganidan mamnun bo'lgan Litvinek xiyol jilmayib qo'ydi.

- Respublika prezidenti, pan rais, siz yangi kabinet tuzib, unga rahbarlik qilishni o'z zimmangizga olursiz, deb umid qiladi.

Dizma talmovsirab konvertni oldi, undan titroq qo'llari bilan maktubni chiqardi-dz, o'qishga kirishdi, lekin ko'z oldi qorong'ilashib, harflar chaplashib ketdi.

Chindan ham prezidentning shaxsiy maktubida hozirgina Litvinek aytgan gaplar yozilgan edi. Dizma maktubni asta buklab, konvertga soldi. Uning tashvishga tushib qolgani yuzidan sezilib turardi.

- Prezident iltimosini rad qilmasligingizga ishonadi, pan rais. Siyosiy keskinlik va iqtisodiy krizis natijasida mamlakat halokat

yoqasiga borib kolgan shunday bir paytda bu narsa juda katta ahamiyatga eg'a. Bu juda og'ir masala. Biroq shaxsan davlat boshlig'ining o'zi va, umuman, butun jamiyat sizga g'oyat ishonar ekan, faqat sizgina bu masalani muvaffaqiyatli hal etishingizga prezidentning imoni komil. Sizning xalq orasidagi obro'yingiz, bilim va tajribangiz ishning ko'zini biladigan hukumat tuzishingizga, kuchli odamni zoriqib kutayotgan mamlakat farovonligini oshirishingizga kafolot beradi. Bu ishni siz... Faqat siz... bajara olishingizga o'zim ham umidvor ekanligimni izhor etishga ruxsat etgaysiz, pan bosh ministr.

Shunday deya, u chuqur ta'zim qildi-da, indamay qoldi.

Mehmonlarning bari angrayib turishardi.

Litvinek umrida birinchi marta shunday vazifani ado etayotgani uchun hammani qoyil qoldirishga umid qilgan edi. U yangilishmadi.

Barchaning yuzida hayajon aks etardi. Hazilakam ishmi, ularning qo'z o'ngida hokimiyat yangi - kuchli odam qo'lga o'tmoqda edi-da. Rangi dokaday oqarib ketgan Nina kreslo dastasini mahkam ushlab oldi. Varedaning basharasidan u hozir yig'lab yuboradiganday tuyulardi. Kshepitskiy boshini baland ko'tarib, atrofdagilarga mag'rur ko'z yugurtirib chiqdi. Xayratdan ko'k ko'zlarini katta ochgan Jorj Ponimirskiy uning yelkasi osha mehmonlarga qarab turardi.



Hech kim o'tirishga jur'at etmasdi.

Hammadan oldin voyevoda Sheymont es-hushini yig'ib oldi. U Nikodimning yoniga kelib, chuqur ta'zim qildi-da, uning qo'lini qisdi.

- Sizga chin qalbidan katta muvaffaqiyatlar tilayman, pan bosh ministr... Lekin tabriklamayman, chunki bu tarixiy daqiqada sizni emas, balki biz davlat grajdanlari va uning xizmatkorlarini tabriklamog' lozim.

Boshqa mehmonlar ham voyevodadan ibrat olib, Dizmani tabriklay boshladi. Nikodim qovog'ini solganicha tabriklayotgan odamlarning .qo'lini birma-bir qisib chiqdi.

Dizma qanday sharafiga muyassar bo'layotganini juda yaxshi tushunardi. U, liskovlik nochor bir chinovnik Nikodim Dizma, endi katta bir davlatning jilovini o'z qo'liga olishi mumkin edi. U shaxsiy poyezdda yuradi, butun mamlakat, hatto butun dunyo uning nomini tilga oladi.

Lekin... lekin, aslida... unga buning nima keragi bor?

Yana Varshavada tahlikaga tushib yashaydi, yana biror bo'lmag'ur gapni valdirab qo'yishdan cho'chib yuradi.

Ammo buyuk hokimiyat, o'ttiz milliondan ortiq kishiga hukmronlik qilishdan voz kechish osonmi! Bunday hokimiyatga, Ministrlar Sovetining raisi degan nomga hech 60'lmasa bir kungina erishishi uchun hayotini ham ayamaydigan minglab odamlar topiladi! Bosh ministr Dizmaning kabineti... Nikodim Dizmaning hukumati... Armiya chest' beradi, harbiy kemalar to'plardan o'q uzib, olqishlaydi... Bu haqda butun dunyo gazetalari yozadi axir... Hokimiyat, shon-shuhrat...

- Javobingizni kutaman, pan bosh ministr, - dedi yana doktor Litvinek.

Nikodim hushiga kelib, atrofdagi odamlarga ko'z yugurtirib chiqdi. Hammaning ko'zi unda edi. U tomoq qirib, o'rnidan turdi.

- Uylab ko'rish uchun menga yarim soat muhlat bersangiz, - dedi u bo'g'iq tovush bilan. - Pan Kshepitskiy, yuring.

Ular Kshepitskiy bilan birga Nikodimning kabinetiga kirishdi-da, eshikni ichidan qulflab olishdi.

- Nima qilishimniyam bilmay qoldim... - deya gap boshladi Dizma.

- Buning nimasini bilmas ekansiz, pan rais? Hammasi ravshan-ku. Shunday e'tibor! Shunday hokimiyat!

- Ha, albatta, biroq bu juda mas'ul ish. Davlatni boshqarish bankaga rahbarlik qilish degani emas.

- Xo'sh, nima qilibdi?

- Uddalay olmasligim mumkin.

- Uddalaysiz pan rais.

Nikodim lablarini cho'lpillatdi.

- Hozir turli-tuman krizislar ko'payib ketgan, kundan-kun rahbarlik qilish og'irlashib boryapti...

- Biror narsa o'ylab topasiz, pan rais, miyangizga biror yaxshi fikr kelib qoladi. Men bundan tashvish qilmayman. Chunki siz yangilik o'ylab topishga juda mohirsiz... Bir tasavvur qiling-a, pan rais: mana siz hokimiyatni qo'lga oldiingiz, aholi xursand, jamiyatning kayfiyati ko'tarildi, siz bir nechta samarali tadbirlarni amalga oshirasiz. Agar buning ustiga umumiy kon'yuktura yaxshilansa bormi!..

- Yaxshilanmasa-chi?.. Faqat sharmanda bo'lg'ananim qoladi.

- Hech nima qilmaydi! Unda hamma aybni yomon kon'yuktura bilan xalqaro krizisga qo'yish mumkin. Ozmuncha kabinetlar iste'foga chiqqanmi?

Shu payt eshik taqillab qoldi. Kabinetga Nina kirdi.

- Senga xalal bermaymanmi? - deya jur'atsizlik bilan so'radi u ostonadan.

- Yo'q, kiraver.

- Buni qarang-a, - dedi Niiaga qarab umidsizlik bilan Kshepitskiy, - pan rais hamon ikkilanib turibdilar.

- Bilasanmi, Ninochka, bu juda qiyi ish. Qolaversa, menga shu yer - Koborovo yaxshi.

Ninaning chehrasi yorishib ketdi.

- Azizim! Menga juda mehribonsan-da! Lekin, Nik, men Vatanimizga ziyon keltirib bo'lsa ham sepi Koborovoda tutib qoladigan xudbinlardan emasman. O'zing nimani dozim topsang, shuni qil, menimcha, sen mamlakatni qutqarib qolishga qodirsan.

- Sen shunday deb o'ylaysanmi?

- Burching nimani taqozo etsa, shunday yo'l tutaver. Xudo haqqi, meni tantiq deb o'ylama, lekin men Varshavada bosh ministrning rafiqasi bo'lib yurishdan ko'ra, sen bilan shu yerda yashashni afzal ko'raman. Ammo harqalay... Meni sevishing tufayli davlatga rahbarlik qilishdan voz kechayotganingni o'ylasam tashvishga tushyapman...

- Hm... - deya to'ng'illadi Dizma.

Pan rais, - yana gap boshladi Kshepitskiy boshlig'ining taklifini qabul qilishga moyil bo'lib borayotganini ko'rib, - menda bir fikr tug'ilib qoldi: siz hokimiyatni qo'lga olganingizdan so'ng biz tezda Londonga boramiz.

- Nega? - norozi ohangda so'radi Dizma.

- Nega deysizmi? Qarz olish uchun. Boshqa bironta odamga bermasliklari mumkin, ammo sizning oshna-og'aynilaringiz ko'p. Axir Oksforddagi kursdoshlaringizdan ko'pchiligi hozir Angliyada yuqori lavozimlarda ishlayotgan yoki ijtimoiy hayotda muhim rol o'ynayotgan oo'lsa kerak. Balki qarz olishga muvaffaq bo'larmiz?

Kshepitskiy bu so'zlari bilan o'z umidlarini chippakka chiqazganini xayoliga ham keltirmagan edi.

Nikodim qovog'ini solib, unga jim bo'ling, deganday ishora qildi.

"Ha, - deya o'yladi u, - men buni mutlaqo unutibman. Men bosh ministr sifatida turli elchilarni qabul qilishim kerak. Hatto Jenevaga borishga ham to'g'ri kelar. To'g'ri, men tarjimon olishim mumkin, lekin u holda mening polyak tilidan boshqa hech qanday tilni bilmasligim oshkor bo'lib qoladi... Buning ustiga anovi la'nati Oksfordni aytmaysizmi!.. Nihoyat, bu mashmashaning menga nima keragi bor?.."

U o'rnidan turdi, Nina bilan Kshepitskiy unga bezovtalanib qarab turishardi.

- Gap bunday, - dedi qat'iy ohangda Dizma, - men bosh miiistrlik lavozimini qabul qilmayman.

- Pan rais, axir...

- Hech qanday gap-so'zga o'rin yo'q. Qabul qilmayman - vassalom!

Kshepitskiy majolsizlanib stulga o'tirdi. Nina turgan joyida toshday qotib qoldi.

Nikodim sochlarini to'g'riladi va boshini baland ko'tarib, eshikni ochdi...

Vestibiyul' darhol jimib qoldi, barcha o'rnidan turdi.

Dizma eshikni yopmay, to'g'ri direktor Litvinekning oldiga keldi-da, atrofdagilarga bir ko'z yugurtirib chiqqach, ohista dedi:

- Pan Litvinek, marhamat qilib, pan prezidentga aytib qo'ysangiz: menga bildirgan ishonchi uchun undan g'oyat minnatdorman, ammo bosh ministrlilik lavozimini qabul qilolmayman.

- Pan rais!.. - deya xitob qildi voyevoda Sheymont va darhol jimib qoldi.

- Nega endi?! Nega?! - deya qichqirdi asabiylashib Pshelenskaya.

Dizma qovog'ini soldi.

- Shunday deyishga asosim bor, - dedi u shavqsiz ovozd.

- Qaroringiz qat'iymi? - so'radi doktor Litvinek.

- Mening har qanday qarorim ham qat'iy bo'ladi.

- Marhamat qilib, davlat boshlig'iga tegishli javobni yozma ravishda bera olmaysizmi, pan rais?

- Yozib berishim ham mumkin.

Nikodim bosh irg'ab, kabinetga qarab ketdi.

Uning ortidan eshik yopilgan zahoti hamma yoqdan har xil gaplar eshitila boshladi.

- Nega?! Nega endi?! Tushunolmadim!

- Axir bu dahshat-ku! Mamlakat juda nochor - ha, ha, nochor ahvolda! Bilmadim, undan bo'lak bu lavozimni kim egallay olarkin?

Vareda bosh irg'adi.

- U xafa... Ogohlantirishiga qaramay, g'alla bankasining boshiga suv quyishganidan qattiq xafa bo'lsa kerak.

Bir zum jimlik cho'kkan edi, kabinet eshigi ortidan Dizmaning zarda bilan gapirgani eshitildi:

- Yoziq, jin ursin sizni, yoziq dedimmi, yoziq vassalom!

So'ngra yozuv mashinkasi chiqillay boshladi.

- Menimcha, pan raisning bunday qarorga kelishiga sabab, uning jiyanimga bo'lgan muhabbati, his-to'yg'usi bo'lsa kerak, - deya gap boshladi pani Pshelenskaya. - Ular yaqinginada nikohdan o'tishdi axir. Bosh ministrlilik vazifasi kishining vaqtini butunlay olib qo'yadi. Pan Dizma esa, garchi buni o'zi yashirib yursa-da, juda tuyg'un odam. Biz, ayollar bunaqa narsalarni juda yaxshi tushunamiz.

- Ha, albatta, - deya uning gainni tasdiqladi grafinya Charskaya.

Rel'f yelkasini qisib qo'ydi.

- Menimcha, xonimlar ham, polkovnik ham juda yanglishishyapti. Rais Dizmaning faoliyatini kuzatishimga qaraganda, u o'z shaxsiyatini o'ylab ish tutadigan odamga sira o'xshamaydi.

- Haqiqiy davlat arbobi! - dedi voyevoda Sheymont. - Agar u taklifni rad etgan bo'lsa, bunga siyosiy xarakterdagi biron sabab bo'lsa kerak.

- Ammo Vatanimiz halokat yoqasida, turibdi axir!

- Bizga shunday tuyulyapti, - deya jilmaydi voyevoda, - ha, bizga shunday tuyulyapti. Lekin, aslida, ishlar biz o'ylaganchalik yomon emas, ekonomikasi siz bilan bizdan yaxshiroq tushunadigan pan rais xavf-xatar uncha katta bo'lmagani uchun ham shaxsan yordamga oshiqishga hali erta deb o'ylaganiga aminman.

- Lekin u bir marta mamlakatni qutqarib qolgan edi! Qanday zo'r ish qilgan edi-ya o'shanda!

- Ha, u haqiqiy Sinsinnat, - dedi nasihatimiz ohangda voyevoda. - U juda katta xavf tug'ilgandagina omochini qo'yib, yordamga oshiqadi.

- Ha, ha! - dedi xonimlardan biri. - U hali albatta hokimiyatni qo'lga olib, Vatanimizni halokatdan qutqaradi.

- Ajoyib odam! - dedi ma'nodor qilib voyevoda. Kutilmaganda burchakdan qarg'aning cho'zib qag'illashiga o'xshash bo'g'iqlik kulgi eshitildi.

Shu tobgacha hech kim jimib qolgan Jorj Ponimirskiyga e'tibor bermagan va shuning uchun ham uning ensasi qotib o'tirganini sezmagani edi. Jorj anchagacha quloq solib o'tirgach, oxiri chidab turolmadi. U stulda chayqalganicha qotib-qotib kulardi.

- Nimadan kulyapsiz.? - ranjiganday bo'lib so'radi voyevoda.

Jorj kulishdan to'xtab sapchib o'rnidan turdi. U bir necha marta monoklini taqmoqchi bo'ldi-yu, biroq qo'llari qaltirab, sira taqa olmadi. Uning g'azabi g'oyat qaynab ketgan edi.

- Nimadan, deysizmi? Nimadan emas, kimdan, deb so'rang! Sizlardan kulyapman, bildingizmi, sizlardan! Jamiyat ustidan, muhtaram vatandoshlarim ustidan kulyapman!

- Pan Ponimirskiy!

- Jim! - deya o'shqirdi Ponimirskiy. Uning kasalmand bolanikiga o'xshash za'faron yuzi g'azabdan qip-qizarib ketdi. - O'chiring ovozingizni! Sapristi! Sizlardan kulyapman! Sizlardan! Jamiyat ustunlari! Xa-xa-xa... bilib qo'ying, bo'lmasam: o'sha davlat arbobingiz, o'sha Sinsinnat, o'sha buyuk odamingiz, o'sha Nikodim Dizmanov" sizlarni aldab yurgan haqiqiy muttahaq bo'ladi! U

ablak, sulloh, shu bilan birga g'irt ahmoq odam! Ekonomika u yoqda tursin, orfografiyadan ham baloni bilmaydigan esi past u. Mutlaqo tarbiya ko'rmagan razil bir odam. Uning basharasi, o'zini tubanlaracha tutishiga bir qarang: ahmoq, nul! Vijdonim haqi, u

Oksfordda o'qish u yoqda tursin, hatto bironta chet tilini ham bilmaydi. Kisavurga o'xshagan qo'pol, shubhali bir shaxs! Nahot shuni ko'rmasangiz? Boya sizlarni aldab yuribdi, deb noto'g'ri aytgan ekanman: yo'q, sizlarning o'zlaringiz bu maxluqni taxtga

chiqarib qo'ygansiz? Ha, sizlar! Hammangiz miyangizni yeb qo'yibsizlar! Sizlardan kulyapman, ahmoqlar! To'nkalar!..

Nihoyat, u monoklini taqib oldi. U nafrat bilan barchaga birma-bir ko'z yugurtirib chiqdi-da, so'ng eshikni sharaqlatib yopib chiqib ketdi.

Qapalagi uchib ketgan doktor Litvinek odamlarga hayron bo'lib qaradi: barcha xijolat chekib, achinganicha jilmayib turardi.

- Bu nima degan gap?! - deya so'radi nihoyat doktor Litvinek. - Bu janob kim o'zi?

Unga Pshelenskaya javob qildi:

- Kechirasiz, pan direktor, u yigit mening jiyanim - pan raisning qaynag'asi bo'ladi. O'zi beozor. Odatda u jimgina yurardi... Esi sal kirarli-chiqarliroq.

- U telba, - deya tushuntirdi voyevoda.

- Bechora bola, - dedi xo'rsinib grafinya Charskaya.

- Ha-a, - deya jilmaydi Litvinek, - ha, albatta, telbaligi shundoq ko'rinish turibdi.

This is not registered version of TotalDocConverter.

Dunya kuniyotlarida yuliy jamiyatda yozilganing martaba yo'li to'g'risida hikoya qiluvchi asarlar anchagina topiladi. Bu mansabparastlar galereyasida jamiyatda munosib o'rin egallashga loyiq bo'lgan kuchli iroda sohibi bo'lmish kishilar ham bor. Stendalning "Qizil va qora" romanidagi Jyul'en Sorel' shular jumlasidandir. Ammo ular orasida Mopassanning "Aziz0 do'stim" romanidagi Jorj Dyurua kabi ig'vo yo'li bilan maqsadga erishuvchi kishilar ham uchraydi.

Mana endi kitobxonga qisqa davr ichida katta martabaga erishgan yana bir odam haqidagi asar - polyak yozuvchisi Tadeum Dolenga-Mostovichning (1898B.T.1939) "Muttahamping parvozi" romani taqdim qilinmoqda.

Hozirgi zamoi kitobxoniga Nikodim Dizmaning bunday katta mansabga erishishni aql bovar qilmaydigan narsa bo'lib ko'ripadi. Yalqov, to'pori va qashshoq bir odam tasodif tufayli yirik davlat arbobiga aylanadi, uni vatan xalokori, deya ko'klarga ko'tarib maqtashadi, bosh ministr bo'lishga iltimos qilishadi. Hammasi tasodif tufayli sodir bo'layotgandek tuyuladi, biroq Dizmaning bunday yuqori mansabga erishishini o'z mohiyatiga ko'ra tasodif deb bo'lmaydi.

Dolenga-Mostovichning qahramoni bunday muvaffaqiyat uchun o'sha davr Pol'sha hukmron doiralariidan minnatdor bo'lmog'i lozim. Uni yuqoriga qalqitib olib chiqqan va "mamlakat xalokori" deb atagan kishilar o'shalar bo'ladi.

Pol'shada 20B.T.30-yillartshg boshida iqtisodiy va siyosiy krizis keskinlashgan sari mamlakatni qutqarishi mumkin bo'lgan "kuchli odam" haqida ko'proq ayyuhannos sola boshlashdi. "Bizga kuchli odamlar kerak", Nikodim Dizma Yevropa mehmonxonasida Avstriya kansleri sharafiga yozilgan ziyofatga borgan zahoti ana shu gapni eshitadi. Romanning oxirida telba zodagon Jorj Ponimirskiy "Jamiyat ustunlariga" qarata: "Sizlaring o'zlaringiz bu maxluqni taxtga chiqarib qo'ygansiz! Ha, sizlar! Hammangiz miyangizni yeb: qo'yibsizlar!" - deya xitob qiladi.

Dizma avvaliga shon-shuhrat va hokimiyatga sira ham intilmagan edi. Unga ish bo'lmasa-yu, osh bo'lsa - shuning o'zi kifoya edi. Dizma muvaffaqiyatga intilish u yoqda tursin, oqim o'zini qayoqqa olib ketayotganini ham tushunmasdi. "Chamasi" peshanamga mo'tabar odam bo'lib o'lish yozilgan ko'rinadi", - deya mulohaza qilardi o'zicha u.

Dizma qoloq Liskovdan Vårshavaga kelganida bu shaharni zabt etish, katta martabaga erishishni xayoliga ham keltirmagan edi. U o'ziga restoranda tans-boshqaruvchisi kabi oddiygina ish qidirardi. Biroq uni hamma yerdan qobiliyatsizligi va jizzakiligi uchun quvib solishadi. O'ziga juda hush yoqadigan "Fil" qovoqxonasidagi mandalinachilik ishidan mahrum bo'lgach, Dizma boshini suqarga joy topolmay qoladi. Agar "Fil" qovoqxonasi yopilib, Nikodim ishsiz qolmaganida ehtimol, u butun umrini mandolina chalib o'tkazardi.

Dizma biror ishga layoqatsizgina emas, hatto hech nimaga intilmaydi ham! U faqat bir oz pul yig'ib, hech qanday ishga qo'l urmay, sudxo'rlik qilib yashashni orzu qiladi.

Nikodim martaba pog'onasidan yuqori ko'tarilgani sari ko'proq ma'naviy inqirozga uchraydi. U Yevropa mehmonxonasining ostonasidan hatlab o'tganida hali jinoyatchi emasdi. Biroq u asta-sekin insonlik qiyofasini yo'qota boshlaydi. "Bu juldurvoqilarning tanobini tortib qo'yish kerak! - deya qichqiradi u. - Yalangoyoqlarning bir qismi qirilib ketsa hech nima qilmaydi!".

Jamiyatda katta martabaga erishgach, Dizma qotil va o'g'riga aylanadi. Boçekning o'ldirilishi Dizmaning biografiyasida yolg'iz qotillik bo'lib qolmasligini kitobxon yaxshi tushunadi. Romanning oxirida ko'z o'ngimizda hokimiyatni qo'lga olgach, ancha qon to'kadigan jinoyatchi namoyon bo'ladi. Dizmaning hokimiyatni qo'lga olishi esa aniq. Hozircha u "qo'lga tushib qolishdan" cho'chib, bosh ministrlk lavozimiii rad etadi. Lekin bir oz vaqt o'tgach, romandagi kiborlarning tili bilan aytganda "u hali albatta hokimiyatni qo'lga olib, vatanni halokatdan qutqaradi".

Dolenga-Mostovich o'z romanida g'oyat xarakterli voqeani tasvirlaganidan polyak tanqidchiligida nomunosib, iste'dodsiz va kaltabin odamning davlat arbobiga aylanishini ifodalovchi "dizmizm" degan termin paydo bo'ldi.

Dizmaning martaba yo'li, shu qadar tuban odamning hokimiyat tepasiga chiqishiga imkoniyat yaratilishining o'zi dahshatdir. "Dolenga-Mostovichning qahramonlari boshidan kechirgan sarguzashtlar mudhish ertakni eslatadi", - deya yozgan edi 1956 yili "Jiche literatske" gazetasida Stefan Otvinovskiy.

Roman g'oyat katta muvaffaqiyat qozondi. Deyarli barcha qahramonlar hayotda o'z prototiplariga ega edilar. O'ttizinchi yillarning kitobxonlari roman qahramonlari timsolida o'sha davr Pol'sha davlat arboblari osongina tanib olgandilar. Dizmaning tarixi Dolenga-Mostovichning zamondoshlarig'a tasodifiy kishilarning yuksalishi misolidan yaxshi tanish edi.

"Qasdma-qasdlikka eng ahmoq odamni bosh ministr qilib tayinlayman. O'taketgan kaltabin ham prem'er bo'lishi mumkinligini ko'rsatib qo'yaman ularga", - degan edi bir kuni Pol'shaning o'sha pgytdagi hukmdori marshal Pilsudskiy. Bu gapini isbotlash uchun u bir yili arxeologiya professori Deon Kozlovskiy qishloq xo'jaligi ministri qilib tayinlagan edi.

"Muttahamning parvozi" dan so'ng Dolenga-Mostovich yana o'n beshta roman yozdi. Bu asarlar ham kitobxonlar orasida katta muvaffaqiyat qozondi. Buning sababi avtorning sotsial va maishiy konfliktlarni yaxshi his etib, ularni mahorat bilan tasvirlay olishida, albatta.

"Muttahamning parvozi" 30-yillardagi Pol'sha burjua jamiyatidagi ziddiyatlarni aks ettiruvchi muhim hujjatdir. 1939 yili fashist qo'shinlari Pol'shaga bostirib kirganida Dolenga-Mostovich kapitan unvonida armiyaga safarbar etiladi va ko'p o'tmay halok bo'ladi.

"Muttahamning parvozi" romani hozirgi kunga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmay, Pol'shada qayta-qayta nashr qilinmoqda. 1956 yili bu roman asosida fil'm yaratildi.

D. Gal'perina

AvvalgiIII- qismB Keyingi